

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANAGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**Qo'lyozma huquqida
UDK: 16-5A120301-06**

AHMEDOVA XURSHIDA A`ZAMJONOVNA

**Xorazm tarixnavislik maktabi (Abulg'ozi Bahodirxon, Munis, Ogahiy va
Bayoniy)**

5A120301 – O'zbekiston tarixi

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar:
t.f.n. A.A.Erko'ziyev.**

Namangan – 2016

MUNDARIJA:

Kirish.....	3-9
 I Bob. Abulg’ozi Bahodirxon va Shermuhammad Munis – Xorazm tarixnavislik maktabining yirik vakillari.....	10
1.1. Abulg’ozi Bahodirxonning “Shajarai turk” asari – muhim tarixiy manba.....	10-30
1.2. Shermuhammad Munis yashagan davr tarixi va uning ilmiy faoliyati.....	
I bob bo’yicha xulosa.....	
 II Bob. “Firdavs ul-iqbol” – Shermuhammad Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan noyob tarixiy asar.....	
2.1. Shermuhammad Munis tomonidan “Firdavs ul-iqbol” asarining yozilishi va o’rganilish tarixi.....	
2.2. “Firdavs ul-iqbol” asarining Ogahiy tomonidan davom ettirilishi va asarning o’zbek tilidagi nashri haqida ayrim muloxazalar.....	
II bob bo’yicha xulosa.....	
 III Bob. Ogahiy qalamiga mansub tarixiy asarlar va Bayoniyni ilmiy merosi.....	
3.1. Xorazm tarixini yoritishga qaratilgan Ogahiy qalamiga mansub tarixiy asarlarning yozilishi va ularning o’rganilishi tarixi.....	
3.2. Bayoniyni ilmiy merosi	
III bob bo’yicha xulosa.....	
 Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati.....	
 Xulosa.....	

KIRISH

Disertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Mustaqillik o'zbek xalqi uchun berilgan eng oliy va bebaho ne'mat bo'ldi. Istiqlol sharofati bilan xalqimizning azaliy orzusi ro'yobga chiqdi, mustaqillik tufayli o'z e'tiqodi, urf-odatlar, qadriyatlar o'z o'rniga qaytdi. O'z oldiga huquqiy demokratik davlat qurishni maqsad qilib olgan O'zbekistonning XXI asrdagi istiqbolli siyosati-jamiatni demakratlashtirish va isloh etishdir. Mamlakatimiz mustaqillikdan keyingi qisqa muddat ichida ham mashaqqatli ham, sharaflı yo'lni bosib o'tdi va mana bugun jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lgan davlatlar qatoridan munosib joy oldi. O'zbekiston manashu qisqagina yigirma besh yil mobaynida iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohada dunyoning har qanday rivojlangan mamalakatlari bilan teng huquqiylikka asoslangan hamkorlik aloqalarini o'rnatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ozodlikka erishgan dastlabki kunlarimizda "O'z istiqbol va taraqqiyot yo'limiz – bu gul bilan qoplangan yo'l emas, bu totalitarizm merosidan xalos bo'lish va poklanish, mafkuraviylik illati yetkazgan ziyon-zahmatlarni bartaraf etishning qiyin, uzoq davom etadigan yo'lidir", deb aytgan so'zlari zamirida qanchalik chuqur hayotiy ma'no borligini yana bir bor anglaymiz¹.

Mustaqillik tufayli o'zbek xalqining ko'p asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va diniy merosini o'rganish, undan xalqning umumiy va bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yo'l ochildi. Ma'naviy boyliklar, qadriyatlar, davlat, millat, shaxsning bebaho xazinası va taraqqiyot manbai xisoblanadi. Aynan ushbu ma'naviy va mafkuraviy asosni mustahkamlash ham da rivojlantirishda tarix fani alohida ahamiyatga egadir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: "...tarix xotirasi, ...milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi"².

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tarix xaqida o'z fikrlarini davom ettirib, "Tarixdan ibrat olib yashah, tarix haqiqatlarini bilish kishiga quvvat

¹ Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – B. 27.

² Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: ҳавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 140 – 14.

beradi, uni hayot haqiqati bilan qurollantiradi. Tarixni yozishda hech qachon o'ng tomonga ham, chap tomonga ham og'masdan, faqat haqiqat va adolat nuqtai nazaridan yo'l tutilishi kerak. Soxta tarix bamisoli o'gu kabi insonni zaharlaydi, uning ong-u dunyoqarashini chalg'itadi" deb "Ona yurtimiz baxt-u istiqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir" deb qayd etganlar³.

Xozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, Vatanimiz nafaqat Sharq, balki, umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan bo'lganligini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozil-u fuzolalar, olim-u ulomalar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Uch ming yillik davlatchilik an'analariga ega bo'lgan o'zbek xalqi tarixida Xorazm davlatchiligi, uning boshqaruv tizimi alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov 1998-yil Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida "tarixi qariyb uch ming yilga boradigan, buyuk fan va madaniyat o'lkasi bo'lgan, jahon sivilazasiyasiga bebaho hissa qo'shgan ulug' zotlar Vatani, "Avesto"dek o'lmas asar yaratilgan tabarruk tuproq – Xorazm zamini butun dunyoga ma'lum va mashhur. Bu yurt tengsiz allomalar, aziz avliyolar, podshoh-u sarkardalar, botir va pahlavonlarni ko'p ko'rgan"⁴, deb Xorazm tarixiga bo'lgan bugungi kundagi munosabatni yaqqol ko'rsatib bergan.

Bugun biz yoshlarga berilgan ulkan imkoniyatlar va yuksak ishonch bilan o'zimizning shu yurt uchun, shu xalq uchun shijoatimizni fidokorona mehnatimizni ayamay bor kuch qudratimiz bilan harakat qilishimiz kerak. O'tmish ajdodlarimiz qoldirib ketgan tarixiy manbalarni bilish, ularning ilmiy merosini o'rganish bizning bugungi kundagi eng muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Har bir xalqning tarixiy, madaniy qiyofasini aniq belgilovchi buyuk davlat arboblari, allomalari, yirik shoirlari-yu, adiblari bo'ladi. Shunday ajdodlarimizning ibratli hayot yo'li, o'tmishi muhim ahamiyatga ega. Qadimiy

³ Karimov I. A. Ona yurtimiz baxt-u istiqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: Ozbekiston, 2015. – B.112.

⁴Каримов И. А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2000. –Б.75.

Xorazmni va uning buyuk allomalarini tanimagan, ezozlamagan xalq bo'lmasa kerak dunyoda. Zardusht, Al-Xorazmiy, Beruniy, Abulg'ozi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Bayoniydek ulug' zotlar Xorazmni dovrug'ini dunyoga taratdi.

XVIII – XIX asrlrda ham bir qator Xiva xonligi hududida bir qator allomalar ijod qildilar, Xorazm tarixini ko'klarga ko'tardilar. O'zlarining “Firdavsul-iqbol”, “Riyozi ud davla”, “Zubdat ut tavorix”, “Jomi' ul voqeoti sultoniy”, “Gulshani davlat”, “Shohidi iqbol”, “Shajarai xorazmshohiy” va “Xorazm tarixi” kabi asarlari bilan tariximizni yoritishga va uni bizgacha yetib kelishiga o'z hissalarini qo'shdilar. Bu asarlarda XVII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning boshlari tarixi, ayniqsa Xorazmda qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligi o'rnatilgandan keyingi davr tarixi juda mufassal bayon etilida.

Xorazm tarixini o'zida to'laligicha bayon qilgan asarlarni milliy istiqlol talablari asosida o'rganish bizning asosiy vazifamizdir. Bu manbalarda xonlikning siyosiy tarixi to'liq yoritilgan, shuningdek ijtimoiy va iqtisodiy masalalarga oid ko'plab qimmatli ma'lumotlar ham keltirilgan.

Xorazmning XVII – XIX asrlardagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, Xorazm tarixnavislik maktabi vakillari Abdulg'ozi Bahodirxon, Munis, Ogahiy va Bayoniylarning ilmiy me'rosini o'rganish va ilmiy xulosa qilishg mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning ob'yekti va predmeti. XVII – XIX asrlarda Xorazim tarixnavisligi namoyondalari – Abulg'ozixon, Munis, Ogahiy, Bayoniylar tomonidan Xorazmning shajaraviy tarixnavisligi asosida yaratilgan va shu davr tarixini o'zida aks ettiruvchi tarixiy asarlar tadqiqotimizning ob'yekti va predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. “Xorazm tarixnavislik maktabi (Abulg'ozi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Bayoniy)” mavzusi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

– XVII – XX asr boshlarida Xorazmning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini ilmiy adabiyotlar va manbalar orqali yoritish;

- XVII – XX asr boshlarida Xorazmda ilm-fan, tarixnavislikning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni aniqlash;

- Abulg'ozi Bahodirxonning hayoti, faoliyati va ilmiy me'rosini o'rganish va ilmiy xulosa qilish;

- Abulg'ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarining yaratilish jarayoni, uning tarkibiy qismlari va ilmiy ahamiyatini o'rganish;

- Abulg'ozi Bahodirxonning ilmiy me'rosini o'rganilishini tadqiq etish;

- Shermuhammad Munisning hayoti, ijodi va adabiy faoliyati tadqiq etish;

- Shermuhammad Munisning “Firdavs ul- iqbol” asarining yaratilishi va asarning adabiyotshunoslar va tarixchilar tomonidan o'rganilishini ko'rsatib berish;

- Ogahiy tomonidan “Riyozi ud davlat”, “Zubdatut tavorix”, “Jomi'ul voqeoti sultoniyy”, “Gulshani davlat”, “Shohidi iqbol” kabi asarlarning yaratilishi va bu asarlarning ilmiy qiymatini ko'rsatib berish;

- “Firdavs ul-iqbol” asarining Ogahiy tomonidan davom ettirilishi va undagi voqealarning xronologik ketma-ketligini tahlil etish;

- Muhammad Yusuf Bayoniy hayot yo'li va ilmiy merosini o'rganish;

- Bayoniy tomonidan yaratilgan “Shajarayi Xorazmshohiy” va “Xorazm tarixi” asarlarida Xorazm tarixining yoritilishini o'rganish va Xorazm tarixnavislik maktabi vakillarining asarlarini o'zaro solishtirish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. XVII – XX asr boshlarida Xorazmda tarixnavislikning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar, Abulg'ozi Bahodirxon, Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiy, Muhammad Yusuf Bayoniylarning hayot yo'li va ilmiy me'rosini o'rganish, ko'rsatib berish va ilmiy xulosa qilish tadqiqot oldiga qo'ygan asosiy masala va farazlari hisoblanadi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlarning qisqacha tahlili. Xorazm tarixnavislik maktabi vakillari Abulg'ozi Bahodirxon, Munis, Ogahiy va Bayoniylarning ilmiy faoliyati bugungi kunga qadar bir qator sharqshunos va tarixchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Xorazm tarixi, Xiva xonligi tarixi, Abulg'ozi Bahodirxon, Munis, Ogahiy va Bayoniylarning hayot yo'li va asarlariga doir ilmiy

adabiyotlar vujudga keldi. Jumladan, sobiq ittifoq davrida qadimgi Xorazm, Xiva xonligi tarixi va Xorazm tarixshunosligiga oid bir qator adabiyotlar yaratildi. Xuusan, akademik olim S.P.Tolstovning “Qadimgi Xorazm”, akademik Ya.G’ulomovning “Xorazmning sug’orilish tarixi” asarlari bu boradagi eng muhim tadqiqotlar hisoblanadi. Shuningdek, V.V.Bartold asarlarida Xorazm tarixi va Xorazm tarixnavisligi xaqida muhim ma’lumotlar berilgan⁵.

Mustaqillik yillarida ham Xorazm tarixini o’rganish yuzasidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. N.Polvonov, O.Qo’shjonov, S.Hasanov, A.Abdurasulov, D.Bobojonov, M.Abdurasulov, Q.Munirov va boshqalarning asarlari va tadqiqotlrida qadimgi Xorazm va Xiva xonligi tarixi, Abulg’ozi Bahodirxon, Munis, Ogahiy va Bayoniylarning ilmiy faoliyati xaqida qimmatli ma’lumotlar mavjud⁶.

Mustaqillik davri tadqiqotlari orasida S.Hasanovning “Xorazm ma’naviyati darg’alari”, Q.Munirovning “Xorazmda tarixnavislik”, H.Xudoynazarovning “Abulg’ozi Bahodirxon tarixchi va adib”, “Shajarai turk” va uning o’rganilishi” asarlari o’zining ilmiy qiymati bilan ajralib turadi.

Tadqiqotda qo’llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiylik, xolislik, davriy izchillik, qiyosiy, tanqidiy, mantiqiy va xronologik, semantik va pragmatik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertasiyasidan kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda “O’zbekiston tarixi”, oliy o’quv yurtlari Tarix yo’nalishi talabalari uchun “O’zbekiston tarixi” “Xiva xonligi tarixi”, “Manbashunoslik va tarixshunoslik”, “O’zbek davlatchiligi tarixi” fanlaridan ma’ruza matnlari tayyorlash va amaliy mashg’ulot darslarida o’quv qo’llanma sifatida foydalanish mumkin.

⁵ Толстов С. П. Қадимги Хоразм. – Т.,1964.; Фуломов Я.Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Т.:1959; Бартольд В.В. Сочинение.ЧI. М.:1963.

⁶ Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Т., 2007.; Ҳасанов С. Хоразм маънавияти дарғалари. – Т., 2001.; Абдурасулов А. Хива. – Т., 1997.; Бобожонов Д., Абдурасулов М. Фирдавсмонанд шаҳар. – Хива, 2008.; Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик. – Т., 2002.; Хоразм тарихи.1-китоб. Муаллифлар жамоаси. – Урганч, 1997.; Хоразм тарихи. Муаллифлар жамоаси. 2-китоб. – Урганч: 1997.; Худойназаров Ҳ. Абулғози Баҳодирхон тарихчи ва адиб. – Т., 1994.; О’sha muallif. Худойназаров Ҳ. “Шажараи турк” ва унинг ўрганилиши. – Т., 1993.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- XVII – XX asr boshlarida Xorazmning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bir qator ilmiy adabiyotlar va manbalar orqali yoritildi;
- XVII – XX asr boshlarida Xorazmda ilm-fan va tarixnavislikning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar ko'rsatib berildi;
- Abulg'ozi Bahodirxonning hayot-faoliyati, ilmiy me'rosini o'rganildi va taxlil qilindi;
- Abulg'ozi Bahodirxonning ilmiy me'rosini mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o'rganilishi tadqiq etildi;
- Shermuhammad Munisning hayoti, ijodi va adabiy faoliyati bir qator adabiyotlar va manbalar orqali yoritildi;
- “Firdavs ul- iqbol” asarining yaratilishi tarixi, asarning ilmiy ahamiyati va adabiyotshunoslar va tarixchilar tomonidan o'rganilishini ko'rsatib berildi;
- Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan yaratilgan “Riyoziy davlat”, “Zubdatut tavorix”, “Jomi'ul voqeoti sultoniy”, “Gulshani davlat”, “Shohidi iqbol” asarlari va bu asarlarning ilmiy qiymatini ko'rsatib berishga xarakat qilindi;
- Muhammad Yusuf Bayoniy hayot yo'li va ilmiy merosi o'rganildi va ilmiy xulosa qilindi;
- Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy” va “Xorazm tarixi” asarlarida Xorazm tarixining yoritilish jarayoni ko'rsatib berildi;
- Xorazm tarixnavislik vakillarining asarlari o'zaro solishtirildi va mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilindi.

Tadqiqotning manbalari. Tadqiqotning asosiy manbalari XVII – XX asr boshlarida Xorazmda yaratilgan tarixiy manbalar hisoblanadi. Abulg'ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk”⁷, “Shajarai tarokima”, Shermuhammad Munisning “Firdavs ul-iqbol”⁸, Muhammad Rizo Ogahiyning, “Riyoziy davlat”, “Zubdatut tavorix”⁹, “Jomi'ul voqeti suloniy”, “Gulshani davlat”, “Shohidi

⁷ Абуғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992.

⁸ Шермухаммад Мунис. Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. – Тошкент: Ўқитувчи, 2010. – 381б.

⁹ Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Зубдату-т-таворих. – Т.: Ўзбекистон, 2009.

iqbol”¹⁰, Muhammad Yusuf Bayoniyning ”Shajarai Xorazmshohiy”¹¹, ”Xorazm tarixi” asarlari magistrlik dissertasiyasi uchun asosiy manba bo’lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari. Mavzuni yoritish jarayonida O’zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov asarlarida ilgari surilgan Vatan tarixini manbalar asosida haqqoniy o’rganish, xolislik va tarixiylik tamoyillariga asosiy e’tibor qaratishga oid g’oyalar nazariy asos vazifasini bajardi. Tadqiqot jarayonida muammoni yangi tarixiy tafakkurning kontseptual nuqtayi nazaridan idrok etishga, tarixiy voqealarning xarakterini ularning real mazmuni asosida, hozirgi zamon tarix fani talabalari kontekstida ochib berishga asosiy e’tibor qaratildi.

Tadqiqotning davriy chegarasi. Tadqiqotning davriy chegarasi XVII – XX asr boshlari qilib belgilandi. Chunki, Xorazm tarixnavisligi asoschilaridan bo’lgan xon va olim Abulg’ozi Bahodirxon aynan XVII asrda yashab, ijod qilgan bo’lsa, Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiy va Muhammad Yusuf Bayoniylar XVIII – XX asrlar oralig’idayashagan va ijod qilgan.

Dissertasiya tarkibining qisqacha tavsifi. Magistrlik dissertasiyasi ishi kirish, uch bob, yetti paragraf, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro’yxati hamda ilovalardan iborat. Magistrlik dissertasiyasi hajmi 102 betni tashkil qiladi.

¹⁰Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. V жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашр. 1980; Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. VI жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашр., 1980.

¹¹ Баёний. Шажарайи хоразмшоҳий. – Тошкент; 1994.

I Bob. Abulg'ozī Bahodirxon va Shermuhammad Munis – Xorazm tarixnavislik maktabining yirik vakillari

1.1. Abulg'ozī Bahodirxonning “Shajarai turk” asari muhim tarixiy manba

XVII – XIX asrlarda Xorazm tarixini yoritishga qaratilgan tarixnavislik yo'nalishida yozilgan adabiy tarixiy asarlar yaratildi. Bu davr Xorazmda “Xorazm tarixnavislik maktabi” vakillari tomonidan sermahsul ijod davri bo'ldi va Xorazmda shajaraviy tarixnavislik asosida qariyb uch asrlik tarix, ayniqsa, Xorazmda Qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligi o'rnatilgandan keyingi davr tarixi juda mufassal bayon etildi.

Bu davrda Xorazm tarixini yozib qoldirishga yirik tarixnavislar, adabiyotshunoslar va hattoki davlat arboblari ham o'zining munosib hissalarini qo'shdilar. Davlat arbobi bo'lishiga qaramay Abulg'ozixonning o'zi ham Xorazmda tarixnavislik maktabining asoschilaridan biri bo'lib hizmat qildi. O'rta Osiyoda davlat va madiyat rivojlanishida yuz bergan qariyb iki asrlik inqirozdan keyingi uyg'oninsh Abulg'ozining ijtimoiy-siyosiy va ijodiy faoliyati bilan boshlanadi. Abulg'ozixon tomonidan yaratilgan “Shajaraiy turk”, “Shajaraiy tarokima” asarlari Xorazmning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotini yoritibgina qolmay, undan keyingi Munis, Ogahiy, Bayoniy singari tarixnavislar uchun dasturulamal bo'ldi. Uning an'analari ayniqsa, Munis va Ogahiyga barakali tasir ko'rsatdi. Ular Abulg'ozixonning tarixnavislik an'alarini qabul qilib yanada rivojlantrirdi. XIX asrda Munis tomonidan yozib, Ogahiy tomonidan tugallangan “Firdavs ul-iqbol” asari shubhasiz Abulg'ozixon asarlarining ta'siri ostida yozilgan tarixiy asar bo'ldi.

Abulg'ozixon 1603-yil 15-avgustda (hijriy 1014) Urganchda dunyoga kelgan. U Xiva xoni Arabmuhammadxonning (hukmronligi 1602 – 1623) to'rtinchi o'g'li edi. Arabmuhammadxonning yetti farzandi bor edi. Ular Asfandiyorxon, Habash Sulton, Elbars sulton, Abulg'ozixon, Sharif Muhammad Sulton, Xorazmshoh Sulton va Afg'on sulton¹².

¹² Худойназаров Х. “Шажараи турк” ва унинг ўрганилиши. – Т.: Ўқитувчи, 1993. – Б. 34.

Abulg'ozixon tug'ilishidan qiriq kun oldin Arabmuhammadxon Ural qozoqlari bilan bo'lga urushda g'alaba qozonadi shu sababli u o'gliga Abulg'oziy deb ism qo'yadi. Bundan tashqari unig onasi g'oziylar avlodidan bo'lib nasl-nasabi Chingizxon avlodiga borib taqaladi. Abulg'ozixonni olti yoshda onasi vafot etadi va u o'n olti yoshga kirguniga qadar otasining qo'lida tarbiya topadi. U otasining nomi bilan ataluvchi Arabmuhammadxon madrasasida tahsil oladi. Abulg'ozixon ham otasi va akalari singari feodal urushlarda qatnashadi va uning ismiga Bahodir nomi qo'shib aytila boshlaydi.

Abulg'ozixon yashagan davrda Xiva xonligida og'ir siyosiy vaziyat yuzaga kelgan edi. Taxtparast beklar tinimsiz hokimyat talashish bilan ovora edilar. Arabmuhammadxon hali taxtdan ketmasdan uning o'g'illari taxt uchun tinimsiz kurash olib borar edilar. Abulg'ozixon "Shajarayi turk" asarida bu haqida quyidagi voqea orqali bayon etadi. "...Arabmuhammadxon taxtga o'tirg'andan so'ng o'n to'rt yil bo'lganida... Elbars Sulton xonning Bastom kelganini eshitgach, besh yuz kishi yubordi, "bor otangni tutib olib kel" deb, xon xovliga qamaldi. Elbars Sultonning kishilari otdin tushib, to'rt tarafdin urush soldi. Ul vaqtda oftob bosti. Qorong'u bo'lgandan so'ng devorning har yeridan tushdi, xonni otiga mindirib, jilovini olib yarim kechada Elbars Sultonning oldiga olib keldilar. Otasini bir uyga soldi, eshigina kishi qo'ydi, o'ttuz yildan beri yig'ilgan hazinani oldi, taqi itga va qushga berdi. Otasining beklarining barchasini tutdirib, bo'lg'on mollarini barchasini o'ldirdi"¹³.

Habash va Elbars sultonlar toj-taxt talashib otasini ko'zini o'yib oldilar, so'ngra bunga ham qoniqmay, "Otasini va Xorazmshoh inisini va Asfandiyor sultonning ikki o'g'lini qo'lga, to'rtini bir yerda o'ldurdi"¹⁴. Abulg'ozixon bu holatdan o'ziga yaetarlicha saboq oladi.

Abulg'ozixon akasi Asfandiyorxon o'lgandan so'ng (1643-yil) asta-sekin xonlikni kirita boshlaydi. U avvalo 1643-yilda Orol xonligini egallagach, Orol o'zbeklariga tayanib, Xiva xonligini ham ishg'ol qilib, hukmronlikni uzil-kesil

¹³ Абуғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992. – Б. 167.

¹⁴ Абуғозий. Шажарайи турк... – Б. 160.

qo'lga kiritadi. U xonlikni qo'lga olgach Xiva, Vazir va Orol hududlarini birlashtiradi va u yerlarda bunyodkorlik ishlarini olib boradi.

Abulg'ozixon taxtga chiqqach, Xorazmda ilm-fanni taraqqiy ettirishga va madaniyatni yaxshilash yo'lida ko'plab ishlarni amalga oshirdi. U 1657-yildagi Buxoro va Karmanaga qilgan omadli yurishidan keyin yurtga katta to'y beradi, xalqning oldida o'g'linig hizmatlarini qadrlab, unga toji-taxt ramzi bo'lgan tug', lashkar, bayroq va nog'ara shu bilan birga Hazoraspni tuhfa etadi¹⁵.

Abulg'ozixonning yana bir tahsinga sazovor ishlaridan biri hali vafot etmay turib, taxtni o'g'li Anushaxonga topshiradi o'zi esa ilm-fan bilan shug'illanishga kirishadi. Abulg'ozixon bu bilan otasining taqdiri o'zida takrorlanishini oldini oladi.

Abulg'ozixon o'zining "Shajarai tarokima", "Shajarai turk" asarlarini yaratishda ko'plab tarixiy asarlarni o'rganib chiqadi va mo'g'illar hukmronligidan boshlab o'zining Xorazm taxtiga kelguniga qadar bo'lgan tarixiy davrni hech qanday tarixiy asarlarda aks ettirilmaganligini takidlab o'tadi. Bu Abulg'ozixonning fikri ammo, shu o'rinda bir fikrni aytib o'tishimiz kerakki, XVI asrning o'rtalarida Xorazmda yashagan O'tamish Hoji ibn Mavlono Muhammaddo'st qalamiga mansub bo'lgan "Chingiznoma" asari aynan Xorazmda yaratilgan bo'lib, asar Shayboniy davri tarixiga bag'ishlab yozilgan. Asar Shayboniy Esh Sulton (965/1558-yili o'ldirilgan) buyurtmasiga binoan yozilgan. Asar haqidagi dastlabki ma'lumotlar E. F. Kal, B. B. Bartold, A. Z. Validov tadqiqotlarida uchratishimiz mumkin. V. P. Yudin mazkur asar asosida bir nechda maqolalar e'lon qilgan, asarni rus tiliga tarjima qilib, uning tabdilini va matniga takstologik izohlar bilan bergan. Nashr muharriri B. Ahmedov ham unga kirish so'z yozgan va asar, uning muallifi hamda tadqiqotchisiga yuqori baho bergan. V. P. Yudin "Chingiznoma" ma'lumotlarini tadqiqot doirasiga tortib, uning Dashti Qipchoq, Oltin O'rda, umuman Qozog'iston tarixiga doir barcha ma'lumotlaridan foydalangan.

¹⁵ Абуғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992. – Б. 168.

Asarning nushalari Xorazm hududlarida tarqalmaganligi uchun ehtimol Abulg'ozixonning bu asar to'g'risida hech qanday ma'lumotga ega emasligi mumkun, aks holda Abulg'ozixon o'zining tarixiy asarlarida bu asar haqida ma'lumot berib o'tgan bo'lar edi.

Abulg'ozixonning dastlabki yozgan tarixiy asari "Shajarai tarokima" deb nomlanib, unda o'g'uz qabilalarining, xususan turkman xalqlarining kelib chiqishi haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Abulg'ozixon turkmanlarni o'ziga bo'ysundirish maqsadida ularning ustiga ko'p marta yurish qilgan va yurishlari tufayli yigirma mingdan ortiq turkmanlarning halok bo'lishiga sabab bo'ladi va bunda o'zini aybdor deb biladi va o'zida turkmanlar tarixini aks ettiruvchi "Shajarai tarokima" asarini yozadi. Asarning yozilish tarixi to'g'risida muallif asarning o'zida ma'lumotlar keltirib o'tadi. Muallifning aytishicha, asar juda ham sodda tilda yozilgan shuning uchun uni o'qib tushunish o'quvchiga qiyinchilik tug'dirmagan¹⁶.

Asarda Odam ato avlodlari, Muhammad (s.a.v.) alayhissalom payg'ambarimizga qadar o'tgan payg'ambarlar eslanadi. Nuh payg'ambarning og'illari Xom, Som, Yofas va turk, mo'g'il xalqlari tarixi so'zlanadi. Qoraxon o'g'li O'g'izxon faoliyati haqida to'htaladi, butun o'g'iz eli va turkman xalqining qabilaviy tarkibi, urug'larning bir-biri bilan bog'langan nuqtalari, tarixiy-etnogenezi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, Xiva xonligi bilan turkmanlarning siyosiy kurashlari ham eslab o'tiladi. "Shajarai tarokima" asari Abulg'oz Bahodirxon taxtga o'tirgandan ancha vaqt o'tgandan so'ng yozilganligi ta'kidlangan. Bu ma'lumotga qaraganda, asr 1660 – 1661-yillar orasida yozilgan. "Shajarai tarokima" asarida turkman xalqlari o'rtasida inoqlik o'rnatilishi ta'kidlangan. Ushbu asarning ruscha tarjimasi va tanqidiy matni, 1958-yili A. N. Kanonov tomonidan Sank-Peterburgda chop etilgan. Mazkur asarning yetita nushasi saqlanib qolgan. Ularning ikkitasi Rossiyada va qolgan beshta nushasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Ular turli xil ko'chirilgan bo'lib, faqat ikkitasidagina kotiblaning nomi yozilgan. Bulardan biri

¹⁶ Худойназаров Х. Абдулғози Баҳодирхон тарихчи ва адиб. – Т.: Ўзбекистон, 1994. – Б. 4-5.

Mirzo Amon ibn Eson Xuzoriy bo'lib, nushani Rajab oyi 1341/ 17-fevral, 9-mart 1923-yili Buhoroda ko'chirgan (nusha raqami 1223). Ikkinchi kotib Muhammadsharifho'ja Muhammad o'g'li Mulla Bekjon Rahmon o'g'li iltimosi bilan rabi al-avval 1344/19-sentabr – 19-oktabr 1925-yili ko'chirilgani ma'lum bo'ladi.

Abulg'ozixonning yana bir tarixiy asari “Shajarai turk”dir. Asarning asosiy qismi 1663–1664-yilda yozilgan. Asar Xorazm tarixini yoritishda qimmatli manba sifatida ahamiyatga ega, chunki asardagi voqealarning aksariyatida muallifning bevosita ishtirokini olsak, ikkinchi sabab asarni yozishda Abulg'ozixonning yuksak mahorati, uning yetuk tarixiy bilim egasi ekanligi va asarni yozishda o'zigacha bo'lgan mutaffakkirlar tomonidan yozilgan tarixga oid o'n sakkizdan ortiq tarixiy asarlarni yig'ib ulardan foydalanganligidir. Asarni Abulg'ozixon o'z ona tilida yozgan. Abulg'ozir Bahodirxon: “Bu tarixni yahshi va yomon barchasi bilsin deb, turk tili bilan aytdim. Bir kalima chig'atoy turkiydan, forsiyda va arabiydan, qo'shmayman, ravshan bo'lsin deb, turkiyni handoq aytibmanki, besh yashar o'g'lon tushunur”– deb yozadi¹⁷.

“Shajarai turk” asari hususida ko'plab tadqiqotchilar ilmiy ishlar olib bordilar birinchilardan bo'lib, Munis va Ogahiy Abilg'ozixonning asarlarini o'rganib chiqdilar va bu asar tasirida Xorazm tarixnavislik maktabini davom ettirib “Firdavs ul iqbol” asarini yozdilar.

Keyinchalik esa “Odam ato avlodlari, Muhammad (s.a.v.) alayhissalom madaniyatini izlab” nomli kitobida, Ya. G'. G'ulomov “Xorazmning sug'orilish tarixi”, M. I. Yo'ldoshev “Xiva xonligida yer egaligi va davlat tuzilishi”, Q. Munirov – “Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari”, X. Xudoynazarov “Abulg'ozir Bahodirxon tarixchi va adib” kabi asarlarida Abulg'ozining “Shajarai turk” asaridan foydalanildi va asar to'g'risida nihoyatda yahshi fikrlar bildirildi.

Abulg'ozixonning asarlari faqatgina Sharq tarixchilarinigina emas, 1800-yillardan boshlab rus va G'arbiy Yevropa olimlarining ham diqqat e'tiborini o'ziga torta boshladi. Asar 1825-yilda Qozonda Rumyansev, 1854-yilda G.S.Sablukov,

¹⁷ Абуғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992. – Б.128.

1871-yilda P. I. Demizonlar tomonidan bir necha marotaba matbuotda nashr etildi¹⁸.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasining asosiy kutubxonasida "Shajarayi turk" asarining 217 va 47-nomerlari bilan belgilangan ikkita qo'lyozma nusxalari saqlanadi. 217-nomerdagi qo'lyozma tekstining ancha to'laligi bilan ajralib turadi. "Shajarai turk" asari Abulg'ozixonning bevaqt vafot etishi tufayli to'laligacha o'zi tomonidan yozib tugatilmagan. Asar Abulg'ozixonning o'g'li Anushaxonning topshirig'i bilan Mahmud Urganjiy tomonidan yozib tugatilgan. Mahmud Urganjiy asarni yozib tugatibgina qolmay, asarni ma'lum darajada to'lg'izib, unga yangi boblar qo'shgan. Demizon tomonidan nashr etilgan 217-tekstda asarning muqaddima qismini, I bobdan II bobning yarmisigacha, yani boshidan to 30-betgacha Abulg'ozixonning o'zi yozgan. So'ngra II bobning ikkinchi yarmi, III, IV, V, VI, VII boblar, yani 31-betdan 177-betgacha Mahmudiy bin Muhammad Zamon tomonidan yozilgan. Dashti Qipchoqda hamda Xorazmda Shayboniynon I ning avlodlari podsholik qilgan va Abulg'ozixonning Xiva uchun qilgan oxirgi jangi to'g'risida so'z yuritiladi va VIII va IX bobning asosiy qismi, yani 177-betdan 319-betgacha yana Abulg'ozixonning o'zi tarafidan yozilgan. Asarning oxiri, ya'ni 319-betdan 334-betgacha bo'lgan qismini Mahmudiy bin Muhammad Zamon yozgan. "Shajarayi turk" 47-nomerli qo'lyozma qismida ham asarni Mahmudiy bin Muhammad Zamon tomonidan davom ettirilgani takidlab o'tiladi. Ammo, aynan qaysi boblaridan boshlab davom ettirilgani va qanday qo'shimchalar kiritilgani to'g'risida to'liq to'htalib o'tilmaydi. Bu ma'lumotlardan foydalanar ekanmiz, Abulg'ozixon "Shajarai turk" asarini yozilish tarixi haqida bayon qilayotganda Xiva xonligi tarixini yozish uchun tarixchi topolmaganligini yozib o'tadi. Ammo Abulg'ozixonning asarni tugatolmaganligi tufayli Mahmudiy bin Muhammad Zamon tomonidan asar tugatilganligi, shu bilan birga asarga qo'shimcha boblar kiitilganligi, aynan yuqorida keltirilgan boblar, ya'ni II bobning ikkinchi yarmi III, IV, V, VI, VII boblar Muhammad Zamon tomonidan yozilganligini takidalab o'tiladi, Demak, bu davrda ham o'z davrining yetuk

¹⁸Гуломов Я. Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи.—Т.: Фан, 1959. — Б. 12-13.

tarixchilari bo'lgan. Bunday deyishimizga asos bor. Chunki, “Shajarai turk” asaridek tarixiy asarni davom ettirish, unga qo'shimcha kiritishni kishidan juda katta bilim va salohiyatni talab etadi. Tarixchi-tadqiqotchi sifatida Muhammad Zamonning boshqa bir asarlari ham bo'lsa kerak degan xulosaga ham kelish mumkin. Chunki, shunday tarixiy asarni yozishga bilim va tajribasi yetarli bo'lgan shaxsning boshqa tarixiy yozma ijodi bo'lmasligi mumkin emas.

“Shajarai turk” asari ham tarixiy manba sifatida ham, badiiy-adabiy, siyosiy yodgorlik sifatida o'rin tutadi. Asarni yozishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan Abulg'ozixon o'zidan oldin yozilgan tarixiy asarlarni o'rganib tahlil qilib chiqadi. Asarni yozish davomida o'n sakkizdan ortiq tarixiy asarlarni o'z atrifiga jamlab, tahlil qilib chiqadi. Abulg'ozixon asarni yozishdan maqsad faqatgina Chingizxon avlodini tarixini yoritish emas balki, o'zidan oldin o'tgan ota-bobolarining Xorazmda hukmronlik qilgan davrlari tarixini, ya'ni o'z ajdodlari beparvoligi tufayli yozilmay qolgan tarixni yozib, avlodlarga qoldirish edi. Asar Abulg'ozixon tomonidan 1663–1664-yillar davomida yozilgan. Asar musulmon Sharqi asar yozish uslubiga binoan an'anaviy yozuv turiga ko'ra birinchi bobdan Alloh Odamni yaratgandan to Mo'g'ilxon tug'ilgan davrga qadar bo'lgan davr qisqacha bayoni bilan boshlanadi. II bobda Mo'g'ilxonning tug'ulganidan to Chingizxongacha bo'lgan davr aks ettirilgan. Bunda tarixiy voqealarni afsonalar bilan qorishib ketganligini ko'rishimiz mumkin. III bobda esa, Chingizxonning tug'ilganidan vafot etgan davriga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. IV bobda O'dagay qoon va uning avlodining hukmronligi haqida so'z yuritiladi, V bobda Chig'atoyxon avlodining Movarounnahr va Qashg'arda podsholik qilganligi, VII bobda Tuluxon avlodining Eronda hukmronlik qilganligi to'g'risida, VII bob Jo'jixon avlodining Dashti Qipchoqda podsholik qilganani haqida, VIII bob Jo'jixonning o'g'li Shaybonxon avlodining Movarounnahr, Qirim, Qozon va Turonda xonlik qilgan davri haqida bayon qilinadi. IX bob Shayboniyxon avlodining Xorazmda hukmronlik qilgan davri tarixiga bag'ishlanadi. Asarda mana shu bob juda ham qimmatli sanaladi, aynan shu bobda muallif, XVI – XVII asrning ikkinchi yarmidagi Xiva xonligining siyosiy, ijtimoiy tarixini bayon qiladi.

Muallif, shu davrdagi ijtimoiy muhitni ham, otasi hamda akalari o'rtasidagi toj-taxt uchun olib borilgan kurashni, shuningdek, o'zining qochoqlikda yurgan kezlari, urush va mag'lubiyatlari haqida to'liq yoritishga harakat qiladi. Shu o'rinda Abulg'ozixon va Zahiriddin Boburning hayot va ijod yo'lidagi o'xshashlikni ko'rishimiz mumkin. Bu ikki shahsning hayot yo'lidagi o'xshashlik uzoq yillar davomida yurtidan uzoqda vatan sog'inchi bilan yashaganligini olsak, ijodidagi o'xshashlik Abulg'ozini Bobur an'alarini davom ettirib, "Boburnoma"ga hamohang asarlar yaratganligida edi. Bobur o'z asarlarini Andijon shevasida yozgan bo'lsa, Abulg'ozixon asarlarini o'z ona tilisi – Xorazm shevasida yozadi.

Asarda muallif Xiva xonligi tarixida o'sha davr siyosiy voqealarini yoritishga e'tibor qaratgan bo'lsada, unda tarixning turli masalalariga oid e'tiborli ma'lumotlar ko'plab uchraydi. Jumladan, asarda o'lkadagi ijtimoiy-iqiyisodiy vaziyat haqida ham ko'plab ma'lumotlar mavjud. Asarda turk-mo'g'ul qabilalari, xususan, ularning nomlari, etimologiyasi, urf-odatlar haqidagi etnografik ma'lumotlar kiritilgan. Bunda o'zbeklar, sartlar, hamda turkman urug'lari (sariq, yovmit, qizil, ayoq, ersari va boshqalar) haqidagi ma'lumotlar ham o'ta muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, asarda turkmanlarning turk qabilalarining beshta katta avlodini takidlab o'tiladi. Ular, uyg'ur, qang'li yoki qiniqli, qipchoq, qalach, qarluq qabilalari. Shunisi qiziqki, muallif urug' qabilalarning nomlarini keltirar ekan ularning joylashish o'rnini ham keltirib o'tadi. Demak, Abulg'ozixonning "Shajarai turk" asari toponomik jihatdan ham o'ziga xos o'ringa ega. Asarda qalach va o'g'uzlarning turkman qabilalaridan uzoqlashmay Movarounnahr va Xuroson hududlariga joylashganligi takidlab o'tiladi. So'ngra muallif, boshqa urug'larga ham to'htalib o'tgan. Takrin yoki makrin, qirg'izlar, kamakamchutlar, o'mang'it, tatarlar, o'yrat yoki oyrot, tumat urug'i, nayman, qirayt, ungut, xitoy, turqaq, mo'g'il, market yoki makrit, qo'nqirat, qurlasva, echkirin, o'rmavut, qo'niqqimar, arlat, kilgit, baday va qishliq urig'lari uyshan, suldus, ilkurkin, kankit, do'rman, barin va suqut o'klan, bayovut, jalayir urug'larining nomlarining kelib chiqishi hamda hududiy o'rnini keltirgan. Shuningdek, muallif mo'g'ul urug'larini ikki katta guruhga bo'ladi. Biri qiyon/qiyot (nirun). Ikkinchisi

nbuguz/nukus (darlikin) va o'zbeklarning etnik tarkibiga kirgan mo'g'illarning yigirma beshta urug'ini sanab o'tadi. Bular orlot/arlat, og'or, olayunotli, o'qli, aymoq, boshqird, bayot, tot, totar, temirli, tirk, turkman, sultonli, savroqi, sovchili va boshqalar. Asarda Xorazmning ijtimoiy-iqtisodiy axvoli to'g'risida ma'lumot berilgan joyida Amudaryo o'zanining o'zgargan vaqti va uning oqibatlari haqida ham ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, shu davrda hukmronlik qilayotgan Qo'qon, Buhoro va Xiva xonliklarining ichki va tashqi siyosati, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar to'g'risida ham ma'lumotlar berib o'tiladi.

“Shajarayi turk”da keltirilgan tarixiy ma'lumotlar ichida Shaybon ulusi va uning sarhadlari, uning XV asrning so'nggi choragi XVI asr boshlaridagi umumiy ahvoli, Sibir xonligi, Xorazmning XVI – XVII asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, uning Rossiya, Qozoq hamda Buxoro xonliklari bilan bo'lgan o'zaro munosabatlari haqidagi ma'lumotlar diqqatga sazovordir.

Shayboniylar hukmronligi davrida, XVI asrda O'rta Osiyo hududida feodal tarqoqlik kuchaya boshlaydi. Buning ijtimoiy- siyosiy sabablaridan biri shayboniylar davlati boshida cheksiz huquqqa ega bo'lgan xon o'tirgan, butun viloyatlar shu xonadon a'zolariga, sultonlarga bo'lib berilgan, viloyat hukmronlarn esa maxsus askariy guruhga, urug' va qabilalarning yuqori doiralariga, ruhoniylarga suyanganlar. Biroq hukmdorlar xonga bo'ysunishni istamay, o'z hududini mustaqil boshqarishga intilgan.

“Shajarai turk”da muallif ta'kidlaganidek, asarni yozishdan maqsad Yodgorxon davridan boshlab yozilmay qolgan tarixni yozib, uni keyingi avlodlarga yetkazish edi. Bunda Abulg'ozixonning o'zi hukmdor bo'lganligi sabab, u rasmiy doira arboblari to'at etishi shart bo'lmagan. Bu esa, mutloq ijod erkinligini ta'minlagan ya'ni asarda o'zidan oldingi va o'zi bilan zamondosh hukmdorlarning, shuningdek, o'zining ham davlat boshqaruvi, ichki va tashqi siyosati haqidagi fikrlarini ochiq bayon etgan. Jumladan, hukmdorlar siyosati o'zaro kurashlar oqibatida mahalliy

xalqning aziyat chekkani asarda jonli tarzda bayon etiladi. Elbarsxon vafotidan so'ng, Yodgorxon nabiralari o'rtasida toj-taxt uchun bo'lgan kurashlarda Urganch shahri, uning aholisining ahvoli ifodalangan.

Shayboniyxon vafotidan so'ng shoh Ismoil Xurosondagi barcha viloyatlarga dorug'a yubordi. Xorazmga ham uchta dorug'a yuborilib, ulardan biri Xiva va Hazoraspga, yana biri Urganchga hamda keyingisi Vazir shaharlariga yuboriladi. Demak, xonlik tuzilishi arafasida undagi asosiy shaharlar Xiva, Hazorasp, Urganch va Vazir shaharlarining siyosiy mavqeyi baland bo'lgan. So'fiyonxon davrida xonlik poytaxti Urganch shahri bo'lib, shuningdek, bu davrda xonlikda Vazir, Yangi Shahar, Tirsak, Xuroson, Durun, Manqishloq, Xiva, Hazorasp, Kat, Buldumsoz, Pingichka, Bog'obod, Nisoy, Obivard, Chahordeh, Mahna, Chacha, Abulxon va Dehiston kabi shaharlar bo'lgan. Xonlik taxtiga sulola vakillarining eng yoshi ulug'i o'tqazilgan. Bunday taomilning mavjudligi ham ba'zan ayanchli oqibatlarga olib kelganligi haqida asarda bir necha bor qayd etiladi. Chunki, sulola vakillarining hammasi ham boshqaruvchilik qobiliyati ega emas edi.

“Shajarayi turk” asarida tashqi siyosatda Eron bilan munosabatlar ko'p o'rinlarda eslatiladi. Buqachaxon hukmroligi davrida shoh Tahmasp xonlikka elchi yuboradi: “Men xong'a o'g'ul bo'layin deytururman. Temurbiy Chingizxon avlodina kuyov bo'ldi ersa, hanuzgacha ani Temur Ko'ragan deytururlar. Men ham Chingizxon avlodina ko'ragan bo'lmoqni ko'nglim izlay turur. To Xunkordek ulug' dushmanim aytqay kim shoh Tahmosib o'zbek podshohining qizin oldi; yaxshi yarashdi”¹⁹. Bug'achaxonning o'z qizi yo'q edi, shuning uchun u So'fiyonxonning Oysha begim otli qizini unga uzatadi. Oysha begimning Ag'ish sulton ismli akasi boshchiligida to'qqiz kishi Kazvinga yuboriladi. Shoh Ag'ish sultonni juda katta ehtirom va tantanalar bilan qarshi oladi. Ag'ish sultonga

¹⁹Абуғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992. – Б. 128.

Xo'jand shahrini beradi, sulton Xo'jandni vafot etgunicha o'ttiz yil davomida boshqaradi. Shuningdek, Bug'achaxonga to'qqizta oltin xisht (xanjar), to'qqizta kumush xisht, to'qqizta tepasi zarbof, quyisi ipakdan tikilgan, to'shaki va barcha buyuumlari oltin va kumushdan bo'lgan chodir, egari va yugani bo'lgan to'qqizta ot, shu bilan birga ming bo'lak ipak matolar yuboradi²⁰. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, chingiziylar avlodining obro'si nafaqat Movarounnahr va Xuroson, balki Eronda ham yuqori ekanligi va o'sha davrda ham ahamiyatini yo'qotmaganining guvohi bo'lamiz. Shuningdek, shoh Ismoil davridagi o'zaro nizolar bu davrga kelib ancha yumshaganligi ham ma'lum bo'ladi.

“Shajarayi turk” asarida Xiva xonligining Buxoro amirligi, turkmanlar bilan munosabatlari xaqida ham qimmatli ma'lumotlar mavjud. Tashqi siyosatda Avaneshton davrida Xuroson etagidan to Astrobodgacha bo'lgan yerlar Urganch podsholariga taalluqli bo'lgan. Uning Dinmuhammad, Mahmud va Ali sulton ismli uch o'g'li bo'lgan. Dinmuhammad 19 yoshiga yetganda ham otasi unga hech nima bermaydi. Bu vaqtda Urganchlik yigitlar Xurosonga, qizilboshlar ustiga bosqinchilik natijasida o'ljaga ega bo'lib qaytar edilar. Dinmuhammad otasining ruxsatisiz Astrobod va Mozandaronga yurish qilganda shu yigitlar bilan kelishadi. O'zaro kelishmovchiliklar tufayli Dinmuhammadxon Muhammadg'ozi sultonni o'ldiradi. Bu xabarni eshitgan Sulton g'ozi Vazirda Ali sultonni o'ldiradi. Avaneshton bu voqealardan so'ng kengash chaqiradi. Kalxon, Aqatoyxon, akasi So'fiyonxon va Bug'achaxon bundan xabar topgach, Sulton g'ozining kishilari Avaneshtonga xujum qildi deb Vazir ustiga, Avaneshton kishilari esa Urganchga yurish qiladi. Amnakxonning o'g'illari Urganchda, Elbarsxonning o'g'illari Vazir shahrida kengashdilar. Avaneshton ko'p marta yarashishni taklif qiladi, ammo aka-ukalari bunga rozi bo'lmaydilar. Amnakxon o'g'illari Vazirning kun chiqish tomonidagi obod Qumkend shahriga boradilar va Sulton g'ozi bilan urushadilar. Avaneshton urushni

²⁰Абуғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992. – Б. 128.

borshsitirishiga qaramay, Vazir shahriga kirib boradilar va Elbarsxonning Sulton g'ozini boshliq 16 ta o'g'illarini o'ldirdilar. Aqatoyxon Sulton g'ozining xotini, ikki o'g'li va ikki qizini Buxoroga yuboradi. Shundan so'ng Belikach sulton avlodlari Yangi shahrdan Qumkendga kelgach, bo'lgan voqeadan xabar topadi. Shundan so'ng ular urganch orqali Buxoroga yurishga qaror qiladi²¹.

Bu voqealardan xabar topgan Buxoro xoni Ubaydxon (Ubaydullaxon) Buxorodan, Abulxayrxonning o'g'illari ittifoq tuzib, Toshkentdan Baroqxon, Samarqanddan Juvonmardxon, Hisordan Hamza Mahdiyxonning nabiralari Urganch ustiga yurish qiladilar. Abulg'ozixon Ubaydullaxonga qarshi kurashga otlangan Dinmuhammadxon haqida gapirar ekan uning tashabbuskorligini ta'riflab: "Tangrim jonimni senga topshirdim, tanimni tuproqqa topshurdum" deb turpoqni ko'ylakining yoqasindin qo'ynig'a qo'yub ko'pa berdi-da beklarga qarab aytdi "Men o'ldum agar sizlarning joningiz mendin ortiq bo'lsa, urushg'a bormang, agar mening birlan barobar bo'lsa qolmang", tedi, taqi otlanib yuruy berdi. Barchalari yig'lay-yig'lay Dinmuhammad sultonning ortindan ketdilar"²².

Hoji Muhammadxon (1558 – 1593) xonligi davrida Abdullaxon II xonlik hududiga yurish qiladi. "Shajarai turk"da Abdullaxon II yurishi uchun uch sabab ko'rsatiladi. Birinchidan, Abdullaxon IIning ovozi bu davrda Rum hukmdorigacha boradi va u Abdullaxon oldiga Payola podshoh degan kishini elchi qilib yuboradi va bir tomondan u va bir tomondan Abdullaxon bo'lib shayx o'g'lini (fors shohi) qirib tashlashni taklif qiladi. Payola podshohi ehtirom bilan kuzatdi. U bu yerga Hindiston orqali uch yilda yetib kelgan edi. Shundan so'ng u Urganch va undan turkmanga borib Shirvon orqali borsam Istambulgacha to'rt oylik yo'l deydi. Yurishning ikkinchi sababi ham mana shudir. Chunki, bu davrda Shirvon Rum hukmdori mustamlakasi bo'lib, Movarounnahrning hojilari va savdogarlari

²¹ Абуғозий. Шажарайи турк.... – Б. 133.

²² Абуғозий. Шажарайи турк.... – Б. 135.

qizilboshlarning yeridan o'tmaslik uchun Urganch orqali Mang'ishloqqa o'tib, bu yerdan Shirvon kemalariga chiqadilar. Urganchga kelgan Payola sultonning barcha mollarini Hoji Muhammadxonning o'g'li Ibrohim sulton olib qo'yadi. Bundan g'azablangan Abdullaxon uni qayta Mang'ishloqqa yuborib, Shirvon kemasiga o'tirishini ta'minlaydi. Urganchga yurish qilishidan bir yil oldin Hoji Qo'tas degan kishi ko'p hojilarga va karvonga boshchilik qilib Xivaga keladi. Po'lod sultonning to'ng'ich o'g'li Boba sulton ularning barcha mollarini tortib oladi va o'zlarini piyoda Buxoroga quvib yubordi. Hoji Qo'tas Abdullaxonga arz qiladi, bunga javoban Abdullaxon "Hoji Muhammadxon men kabi podshoh, navkarim emas" deydi. Shunda Hoji Qo'tas: "tangla tangri qozi bo'lib, payg'ambar shafatchi bo'lganda, seni tutub yukunurman-da, ayturman "Xudoyim Hoji Muhammadxonning kuchi Abdullaxonning bir navkarindin ortuq ermas erdi. Abdullaxonning kuchi yotar erdi, erindi. Taqi borib mening haqqimni olib bermadi" derman. Xon aytibdi hoji bir ulug' yerdin tuttung. Xo'b-xo'b, qo'limizdan kelsa qilali"²³ tebd.

Yurishning keyingi sababi bu davrga kelib Avaneshtxon nabiralarining barchasi vafot etib, Abdullaxonning lo'lidan tug'ilgan bir noma'lum o'g'li qolgan edi. U Marv va Obivardni boshqargan. Hoji Muhammadxon ukalarining o'g'illari har yili Marvga yurish qilib unga ko'p ozor beradilar. Nurumxon bunga chidolmay Abdullaxon oldiga xutbani Hoji Muhammadxon nomiga emas Abdullaxon II nomiga o'qisam Marvni iyenga berar deb keladi. Shundan so'ng Abdullaxon II hujum boshlab Marv, Obivard, Nisoy va Bog'obodni egallaydi. Hoji Muhammadxon qo'lida Xurosonda Durunda boshqa viloyat qolmaydi²⁴.

Arab Muhammadxon davrida kurashlar yanada avj olgan. Abulg'ozi Xorazm xonligining o'ziga tegishli bir bo'lagini boshqarayotgan dastlabki yillardan boshlab, kuchli markazlashgan feodal davlati tarafdori

²³ Абуғозий. Шажарайи турк.... – Б.151.

²⁴ Абуғозий. Шажарайи турк.... – Б. 151.

ekanligini namoyish qiladi. Xisrav sulton, Somi sultonlarning Arabmuhammad davlatini fitna yo'li bilan egallashga intilishlarini qattiq qoralaydi. Otasining faqat fitna boshliqlarinigina o'ldirib, ularning sheriklari gunohlarini kechishi bilan kelisha olmaydi. “Xonning fe’li kengligi va gunohkorlarni afv qilg’ani, otamiz xonning boshina va barcha yurt xalqining boshina ko’rguliklar keltirur”²⁵, – hisoblaydi. Yurtdagi notinchliklarda, qavm-qarindosh, ota-bola, aka-ukalarning toj talashib, o’zaro urushlaridan bezor bo’lgan Abulg’ozi feodalizmning ilk rivojlanish davrlarini haqida shunday yozadi: “Qadimiy xalq bu zamonning xalqindin yaxshi erdi. Agar el va xalq yig’ilib, kishi o’ltura bilur bo’lsa va yo gunohkor so’ray bilur bo’lsa va yo bir ish boshqarmoq qo’lindin kelur bo’lsa, ne uchun bir mardg’a podshoh ot qo’yub, evining to’rmida o’lturtub, barcha xalq ixtiyorlarin aning qo’lina beratururlar”²⁶.

Bu o’rinda cheksiz huquqqa ega bo’lgan hokimi mutlaq haqidagi barcha elu yurtlarning “bir mard podshoh”ga bo’ysunishi to’g’risidagi orzular, ya’ni mamlakatning kichik-kichik xonliklarga bo’linib ketishidan norozilik, e’tiroz ko’rinib turibdi. Shu boisdan ham Abulg’ozi o’z otasi tirikligidayoq toj-taxt talashib, xonlikni parchalab yuborayotgan akalari Xabash va Elbars sultonlarga va ularning niqoblangan homiylari Qurbon hoji va Chin hojilarni qoralaydi. Otasi Arabmuhammading isyon ko’targan o’g’illari yoniga Qurbon hojini yuborib, u keltirgan soxta xabarga ishonganidan norozi bo’lgan Abulg’ozi: “... Men ham otamni ko’rayin teb eshikka borib erdim, Hoji ham eshikka keldi, xon qatiga birga kirduk. Xon: “Ko’rgan-eshitganingni ayt, hoji”,– dedilar. Ne aytayin xonim, borg’anima pushaymon bo’ldum. Yuqorisi Dorug’an ota, quyni Baqirg’an otag’acha o’lturg’an o’zbek o’g’lonlarining qatig’a yig’ilib turur... Men bir og’iz otangiz chorulata yubordn teb aytib erdim, ming yerdin qichqurg’an ovoz keldi... Xonim ish yomon bo’ldi. O’zung bilursen, mening senga jonim

²⁵Абуғозий. Шажарайи турк.... – Б. 160.

²⁶Абуғозий. Шажарайи турк.... – Б. 161.

kuyganda, o'zgalarning to'kinging etaki kuymas. Emdi Xevaqa ketako'r. Bu zolimlardan yiroq bo'l. Elimiz, xalqimiz bir maslahat qilurmiz"²⁷,– deb aytgan gaplariga ishonganidan Abulg'ozi g'azablanadi. Vaholanki, asarda ta'kidalanishicha, “O'sha vaqtlarda xalq xondin (Arab Muhammadxon) andag' qo'rqar edilarkim, ... Xon ko'runushga chiqib xalqg'a aytsa, ini va o'g'lunguzni Habash qatig'a yubormang, agar har kim yuborsa mendin yaxshilik umid qilmasun, mening bu so'zumni bir-biringizga ayting teb hukm qilsa, kishi yuborib shahrlarda va bozorlarda ushbu so'zni aytib jar chorlatsa, bir kishining haddi yo'q erdi, evindin tashqari chiqa bilgay"²⁸.

Asfandiyor sulton bilan Abulg'ozixon birgalashib qo'shin tortib, Elbars sultonning ustiga bostirib boradilar va isyonchi ustidan g'alaba qozonadilar. Mag'lubiyatga uchragan Elbars sulton besh-olti kishi bilan qirg'a chiqib ketadi. Ana shundan keyingi voqealar, “Shajarai turk”da quyidagicha tasvirlanadi: “... Evini va elini chobduq (Elbars sultonning oila a'zolari va uning yaqin odamlari ko'zda tutiladi.) Barcha sultonlar xon qatig'a yig'ilduk. Otamni ko'rayin teb keldum. Urduda yakka namozshom o'qub turub erdilar. Namozdin forig' bo'lg'andin so'ng yaqinlarig'a kelib o'lturdim-da, aytdum: “Elbars sulton besh-olti kishi birlan qirg'a chiqib ketdi. Emdi ne fikr qilasiz?” Aytdilar: “Sening ko'nglingga ne kela turur?”. Men aytdum: “Asfandiyor sulton birlan faqirg'a hukm qilung... Elbars sultonni o'ldurali, andin so'ng qolgan besh o'g'lingizshing hech qaysisi sizning hukmingizga tajovuz qilmaslar”²⁹. Arab Muhammadxon bu masalada Chin hoji bilan maslahatlashadi. Habash va Elbarslar tomonida bo'lgan Chin hoji “O'g'lonlaringizning birisin o'ltursangiz, qolg'anining hech qaysisi sizga inonmas”³⁰ deydi.

Bu o'rinda Abulg'ozining dunyoqarashi ochiq-oydin ifodalangan. U yirik davlatni parchalanib ketishdan saqlab qolishga intiladi, otasi va akalarini shunga undaydi. Lekin otasi Arabmuhammad o'g'li Abulg'ozining

²⁷Абуғозий. Шажарайи турк.... – Б. 167.

²⁸Абуғозий. Шажарайи турк.... – Б. 161.

²⁹Абуғозий. Шажарайи турк.... – Б. 163.

³⁰Абуғозий. Шажарайи турк.... – Б. 163.

taklif-mulohazalarinn qabul qilmaydi. Abulg'ozi haqiqatni otasi yuziga antib solishdan ham qaytmaydi: "... Sizni tutub, evga solib, molingizni olg'andin so'ng, emdi ne qoldi? Tongla mundin yomonki ishlar bo'lur, pushaymon qilursiz", – deydi.

Biz Abulg'ozining yuqoridagi so'zlaridan uning o'sha davr tarixiy voqealarinnng shohidi, faol ishgirokchisi ekanligini bilib olamiz. Haqiqatan ham, Xabash va Elbarslar, Abulg'ozi to'g'ri ta'kidlaganidek, yomon ishlar qila boshlaydilar.

Arabmuhammad jangda yengiladi, qamoqqa olinadi, farzandlari har tomonga tarqab ketadi. Abulg'ozi Buxoroga, Asfandiyor sulton Makkaga ketishga majbur bo'ladi. Keyinchalik Xabash va Elbars sultonlar o'z otasining ko'ziga mil tortish bilan hamqanoatlanmay, uni o'g'li va nabiralari – Asfandiyorxonning ikki o'g'li bilan Xorazmshoh ismli ukasini qatl qiladilar.

Asfandiyorxon davrida ham o'zaro qirg'in urushlar to'xtamaydi. Asfandiyorxon taxtga turkmanlar yordamida chiqqach, xonlikda ularning mavqeyini oshirishga harakat qiladi, hamda o'zbeklarga zulm qila boshlaydi, ularni shafqatsizlik bilan qiradi. Ayniqsa, uyg'urlar va naymanlar qattiq jabr ko'radilar: "... Asfandiyorxon uyg'ur, naymanni qirdi. Andin so'ng barcha o'zbek birlan yov bo'ldi. O'zbek uch bo'lindi. Birisi mang'it, birisi qozoq va birisi Movarounnahrqa ketdi"³¹.

Bundan keyiigi kurashlar aka-ukalar Asfandiyorxon, Abulg'ozi va Sharifmuhammad xonlar o'rtasida yuz beradi. Chunki toj-taxtga ega bo'lgan Asfandiyorxon ham o'zidan oldingi saltanat an'analariiga amal qilib, Xiva, Xazorasp va Katni o'zi oladi. Urganchni Abulg'ozixonga, Vazirni Sharifmuhammadxonga in'om qiladi. Asfandiyorxonning turkman qabilalariga tayanib saltanatni boshqarganini ko'rgan Abulg'ozixon o'zbek qabilalariga tayanib, xonlikni butunlay qo'lga kiritish siyosatini yurgizadi.

Asfandiyorxon barcha o'zbeklarning Buxoroga ko'chib ketishlaridan

³¹Абуғозий. Шажарайи турк.... – Б. 166.

hayiqib, ularning taklifini qabul qilishga majbur bo'ladi. Bu muvaffaqiyatdan mag'rurlanib ketgan o'zbek qabilalarining beklari Abulg'ozining tadbirlariga ko'nmay, uni tezroq taxtga ko'tarishga shoshiladilar. "... Bu kecha to'rt yoqg'a kishi yuborali. Tong otkanda ming kishi darvozada hozir bo'lsun. Muhammad Husaynbek boshliq bu turkmanni qiroli. Taqi, Xevaqaqn o'lturg'an turkmanni chopali. Bu qish Xevaqning qalxasiin qabab istali. Bahor olurmiz",— deb shovqin solishadi.

Abulg'ozining "... turkmanni qira bilmassiz. Eshitib qochar. Qishina turkmanning barchasi Xevaqa ustida turur. Ani ham ola bilmassiz. Xevaqa borib yotsangiz evingiz egasiz bo'lur. Qalmuq kelur. Taqi O'g'lon o'shoqingizni olur ketar", deb ularni bu yo'ldan qaytarishga intiladi va o'zining quyidagi tadbirlarini ular o'rtasiga tashlaydi: "... Muhammad Husayn boshliq turkmanlarni yaxshi siylab yuborali. Sharif Muhammad kuyuk qal'ada qishlasun. O'zbekning barchasini buz to'yg'andin so'ng ko'churib Sharif Muhammad birlan bizning oramizg'a kelturali. Har besh yuz evli va ming evli bir jib solib qishlasun... Bir yerg'a yig'ilali. Ichimizda oz bo'lsa besh-olti yuz turkman bo'lur. Avval ani qirali. Taqi Xevaqa ustina yurali, bu vaqtda Abulxon va Manqishloqning turkmani oshliq olmoq uchun Xevaqq'a kelnb, barchasi enlik evina ketar. Bahor qo'y-qo'zilar uchun Xevaqa o't bo'lmas... Sart eki ekmoq uchun kendli kendina ketar. Xevaqa ichinda Asfandiyorxon qatinda ko'p bo'lsa yuz, oz bo'lsa ellik kishi qolur. G'ofil borib, darvozaning og'zina tusholi"³² — deb g'alaba qozonish yo'lini ko'rsatsa ham qabul qilishmaydi. "O'tlanmoqni munosib ko'rub, Xevaqa ustina yurdilar. Yomon ish qildingiz, yurtni buzdingiz teb, ayta-ayta ikki kundai so'ng keyinlarindin bordum. Xikaiik ariqining labinda Toshko'prik tegan, yerda borib tushduk. Turkmanning och-ariqin topib o'lturdik", deb afsuslanadi.

Biroq g'alabaga erisha olmaydilar. Asfandiyorxon bilan bo'lgan urushda yengiladilar. Abulg'oz mag'lubiyatga uchragach, madad umidida avval qozoq xoni Tursunxon, so'ngra Buxoro xoni Imomqulixon dargohlarida payt poylab yurishga majbur bo'ladi. U o'zbek qabilalarining yordamida yana o'z yurtiga qaytadi. Yana

³²Абуғозий. Шажарайи турк.... – Б. 172.

o'zbek-turkman bo'lib urushadilar.

“Andin so'ng men besh-olti kishi birlan Xevaqa keldim. Sharif Muhammad mendan ikki oydin so'ng Hazorasbda Asfandiyorxon qatig'a keldi. Ul ikkisi bir bo'ldi. Taqi mening birlan urushdilar. Men g'olib keldim, sulh qildilar. Olti oydin so'ng Xevaqa g'ofil o'lturub erdim, ikkisi kelib darvozag'a yaqin tushdi. Tashqarida o'lturg'on turkmanning qora-yomoni Asfandiyorxong'a yig'ildi. Ul besh ming kishi bo'ldi. Mening qatimda olti yuz kishi bo'ldi... Bir et peshim urush bo'ldi, shul vaqtda jov qochti”³³.

Xullas, aka-uka o'rtasidagi toj-taxt talashib, qon kechilgan urushlarda Abulg'ozixon yengilib, Asfandiyor tomonidan Eronga surgun qilinadi. Eronning Isfahon shahrida o'n yil nazorat ostida saqlanadi. Biroq, bu o'n yil Abulg'ozi uchun, uning kelajagi uchun nihoyatda foydali bo'lib chiqadi. U garchi saltanat boshqarishdan mahrum etilgan bo'lsa ham, avvalgi o'n yilda, ya'ni olti yoshidan o'n olti yoshiga qadar olgan bilimining kamini to'ldiradi. Surgundaligida olgan bilimlari uning yetuk shaxs, ijodkor bo'lib yetishuviga zamin bo'ladi³⁴.

Abulg'ozi o'n yildan so'ng o'z tayyorgarligini me'yoriga yetgan hisoblab, o'n birinchi yil surgundan qochadi va bir qancha qiyinchiliklar bilan qolmiq xonining yordamida o'z yurtiga yetib keladi: “... Andin ketib Manqishloq bordim. Ul paqtda Manqishloq turkmani buzulib yetti yuz evlik qolib, ul ham Qolmuqg'a tobi' bo'lub turub erdi. Qolmuqning nodshohi manim kelganimni eshitib, yaxshi knshilarnni yuborib mani olib bordi-da, bir yil saqlab Urganchda o'lturg'an o'z xalqimiz ichina yubordi”.

Bundan so'ng Abulg'ozi siyosiy faoliyatining yangi davri boshlanadi. Bu 1643 – 1663-yillarni o'z ichiga oladi. Abulg'ozi shu vaqtga qadar (u ham bo'lsa, o'n olti yoshidan boshlab, to Asfandiyorxon tomonidan Eronga surgun qilinganiga qadar) otasi va akasining vassali sifatida mamlakatning bir bo'lagi – o'ziga in'om qilingan hududda saltanat ishlarini boshqarib, tajriba to'plagan edi. U qirq bir yoshida, avvalo, Orol hokimligini, so'ngra butunlay Xiva xonligi boshqarish ishlarini qo'lga

³³Абуғозий. Шажарайи турк.... – Б. 174-175.

³⁴ Худойназаров Ҳ. “Шажарайи турк” ва унинг ўрганилиши. – Т., 1993. – Б. 39.

kiritib, yigirma yil davomida – oltmish bir yoshigacha xonlik qiladi.

Biroq, Orol hokimligiga ko'tarilgach, xonlikni butunlay qo'lga kiritish oson bo'lmadi. Bu haqda "Shajarai turk"da shunday deyiladi: "Ul vaqtda Imomqulixon o'lub, inisi Nodirmuhammadxon akasi Imomqulixoi yeriga xon bo'lib erdi. Biz turkmandin aqamizning o'g'lonlari va viloyatini tiladuk, bermadi. Taqi Nodirmuhammadxonning otina xuda o'qub Ashraf sultonni yubordi. Biz yov bo'lub Xevaqlari ikki marta chopduk. Andin so'ng Nodirmuhammadxon Xevaqlari bilan Hazorasbga hokim yubordi. Asfandiyorxonning o'g'lun va qizin va ko'chin ko'churub olib borib Qarshida o'lturtdi. Xevaqlari bilan Hazorasbning amalotini Asfandiyorxon kimga bergan bo'lsa, Nodir Muhammadxonning kelgan ilgor beklari shul kishidan ayurmadi...³⁵".

Tarixshunos olim va shoir Shermuhammad Munis "Firdavsul-iqbol" asarida yozshicha, Abulg'ozi davlat tepasiga kelgandan so'ng ko'p kishilarga o'z yonidan o'rin va amal tayin etgan. Abulg'ozixon xonlikni boshqarishda dastavval xonlikda markazlashgan boshqaruv tizimni mustahkamlashga e'tibor qaratdi. Bu jarayonda u avvalo, turkman yo'l boshchilarini boshqaruv ishlaridan chetlashtirdi. Ularning yersuvlari, mol-mulklari musodara qilinib, o'zlari mamlakat ichkarisiga surgun qilindi.

Xonlikdagi barcha lavozimlarga o'zbek urg'ularining boshliqlari qo'yildi. Abulg'ozixon ma'muriy isloqot o'tkazib, xonlikning boshqaruv tizimini batamom yangitdan tashkil etdi. Xonlikning boshqaruv tizimida o'zbek urug'larining mavqeyi ortib bordi hamda ulardan 360 nafar vakil xon saroyida turli lavozimlarga ko'tarildi. Xon yangi amaldorlar orasidan eng obro'li 32 nafarini o'z yoniga oldi. Munis ta'biri bilan aytganda, "andoqkim ikki shayx ul-islom, ikki qozi, bir rais Said ota avlodidan, bir mutavalli, bir naqib, to'rt otaliq, to'rt inoq, to'rt mirob, to'rt parvonachi, ikki oko, ikki arbob, to'rt chig'atoyi inoki va bir vazirkim, holo mehtar derlar va bir qushbegi, bu ikkovi o'rinsiz xon xuzurida oyoq ustida turadilar"³⁶.

Uning mamlakatni boshqaruvida muhim islohot o'tkazib o'zbek urug'larini to'rt guruhga bo'ldi: birinchi guruhga uyg'ur-naymanlar bo'lib, do'rmon va

³⁵Абуғозий. Шажарайи турк..... – Б. 179.

³⁶ Абуғозий. Шажарайи турк..... – Б. 52.

yuzming jamoasi uyg'urlarga, hamda payg'ambar avlodi shayx va bo'rloqlar naymonlarga qo'shildilar; nukuz-mang'itlar ham bir guruhga kiritilib, kanagas va xo'ja ellari ularga birlashtirildi; keyingi guruhlarga kang'li qipchoq urug'lari kiritilib, ularga o'n to'rt urug' qo'shiladi. Birlashmalarga inoqlar boshchilik qilganlar. Xon ana shu inoqlar orqali qabilaga tegishli masalalarni hal qilgan.

Bu urug'larning barchasiga Darg'ondan Orol dengizigacha, Amudaryoning har ikkala tomonidan yer ajratib beriladi. Shu tarzda aholi Yangi Urganch istehkomiga ko'chiriladi. Xon 1646-yilda janubi-g'arbda qal'a bunyod qildiradi, hamda Eski Urganch xarobalari shu davrdan boshlab Ko'hna Urganch deb atala boshlanadi. Munisning ma'lumotiga ko'ra, bu yer "bag'oyat ma'mur va obodon va Xorazmning ulug' savdo xonasidur"³⁷. Akademik olim Ya.G'ulomov Abulg'ozixon hukmronlik qilgan davrni tavsiflab xonning tashkilotchiligi va tashabbuskorligi haqida shunday deydi: "Garchi tarixda Abulg'ozi hukmronlik qilgan davrda uning nomiga qo'yilgan kanalni uchratmasakda, Xivani egallagan va Janubiy Xorazmni obod qilishda katta tashabbus ko'rsatgan Abulg'ozi tarixda qoladi".

Ichki siyosatda Abulg'ozixon mamlakat yaxlitligini saqlash maqsadida 1646 – 1653-yillari u Tajan, Bomibaurma (Qizil arvonning janubiy-sharqiy tarafida joylashgan manzilgoh), Atrok va Jurjon turkmanlari bilan urush olib bordi, 1655 – 1662-yillari o'lkaga vaqt-vaqti bilan bosqin qilib turgan Yoyiq (Ural)lik o'ris qozoqlari, qalmiqlar va qozoq ko'chmanchilari bilan kurash olib bordi. 1663 – 1664-yillari bir necha marta Buxoro ustiga yurish qiladi, hamda xonlik sarhadlarini kengaytirishga xarakat qildi.

Xulosa sifatida shuni qayd qilish mumkinki, Abulg'ozixon Xiva xoni Arab Muhammadxonning to'rtinchi o'g'li bo'lib, Abulg'ozi otasi va aka-ukalari urushlarda bahodirlarcha jang qilgani uchun uni "Bahodirxon" deb atay boshlaganlar. Abulg'ozi Bahodirxon o'z otasining nomi bilan ataluvchi Arabmuhammadxon madrasasida tahsil olgan. O'z zamonasining bilimdonlari qo'lida tahsil ko'rgach, tarix faniga ixlos va ishtiyoq qo'yadi

³⁷Шермухаммад Мунис. Мухаммадризо Огахий. Фирдавс ул-икбол. – Т., 2010. – Б. 5.

Abulg'ozixon Xiva xonligida og'ir siyosiy vaziyat yuzaga kelgan bir davrda yashadi. Ota-bola, aka-ukalar o'rtasidagi taxt uchun kurashlar avjiga chiqdi, bu kurashlar natijasida Abulg'oziy Eronning Isfaxon shahrida 10 yil tutqinlikda yashadi. Abulg'oziy bir qancha kurashdan so'ng 1644 – 1645-yillarda Xiva taxtini egallaydi va 1663 – 1664-yilgacha Xivada xonlik qiladi. Abulg'ozixon xonlik taxtiga chiqqach, Xorazmda ilm-fanni taraqqiy ettirish va madaniyatni yaxshilash maqsadida o'z saroyiga binokorlar, tabiblar, shoirlar tarixnavislar, adib, xattot va boshqa kasb egalarini to'pladi. Abulg'ozixonning “Shajarayi tarokima”, “Shajarayi turk” nomli tarixiy, “Manofe ul-inson” (Inson uchun foydali tadbirlar) nomli tibbiyotga oid asarlari mavjud va bizgacha yetib kelgan.

1.2. Shermuhammad Munis yashagan davr tarixi va uning ilmiy faoliyati

Shermuhammad Avazbey o'g'li Munis. Uning to'liq ismi Shermuhammad mirob ibn amir Avazbiy ibn Eshimbiy Mirob ibn Hasanquli atoliq ibn Oraz Muhammad bakavul ibn Davlatbiy Keray ibn Muhammadjon so'fi biy yuz bo'lib o'z so'zlariga qaraganda “It yilidan keyin kelgan qo'y yilida, Navro'z kuni, payshanba tongida” olamga kelgan ekan. Munis asrida keltirilgan barcha ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, u 19 safar (payshanba kuni shu kunga to'g'ri keladi) 1192/19-mart bo 1778-yilda Xiva shahrining Qiyot qishlog'ida mirob oilasida dunyoga kelgan. Munis o'zining o'zbek qabilasining yuz urug'ug'idan bo'lganligini shajarasida ham keltirib o'tadi. Munis talantli shoir, keng ma'lumotli tarixchi, tarjimon va xushxat kalligrafik olimdir. Munis uning adabiy taxallusi bo'lib, lug'aviy ma'nosi “ulfat”, “hamdam”, “do'st” degan ma'nolarni anglatadi³⁸. Munis dastlabki ta'limni qishloq maktabida oldi, maktabni tamomlagach o'sha zamonning oliy maktabi hisoblangan madrasada o'qidi. Munis fors, arab tillarini yahshi o'rgandi va keyinchalik sharq klassik adabiyotini o'rganishga kirishdi. Nizomiy, Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Lutfiy ijodi bilan yaqindan tanishdi.

³⁸ Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-икбол. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. – Б.5.

Munisning hayoti va ijod yo'li adabiyotchilarimiz tomonidan o'rganildi va shoir va uning ijodiy namunalari haqida ilmiy maqollalar bosilib chiqdi.

Munisning ota-bobolari xon saroyida miroblik ishlarini boshqarib kelgan. U yoshlik chog'laridan boshlab ilm olishga qiziqdi, tarix va adabiyotni sevdi va o'zidan ilgari o'tgan shoir va tarixchilarning asarlarini zo'r ishtiyoq bilan o'rgandi. Munis o'z ustozlaridan Sayyid Eshonho'ja (u Xivada Munis bilan qo'shni bo'lgan) va Sayyid Muzaffarho'ja mutavvalliyni tilga oladi. Bundan Munisning yahshi ta'lim olib, fors va arab tillarini o'rgangani, she'r va tarixnavislikka layoqatli bo'lib tarbiy olganini bilish mumkin. Munis juda ham erta saroy hizmatiga jalb qilinadi. U dastlab Muhammad Rahimbek xizmatida bo'lgan. Otasiga o'xshab mirob sifatida xon va xonzodaning harbiy yurishlari va ovlarida hamrohlik qilgan. Biroq uning xon saroyida xonga yaqinligi, saroydagi hizmati uning uning moddiy ahvolini yaxshilashga olib kelmagan. U o'zining pul muammosidan qiynalganligini asarlarida ham yozib o'tadi. U "Firdavs ul iqbol" asarida moddiy masalalarda qiynalganligini va uylanish uchun Muhammad Rahimbekdan 100 ashrafiy qarz olganligini yozib o'tadi.

Munis o'zining yoshlik paytlarini "Firdavs ul iqbol" asarida yanada yahshiroq tasvirlagan. "Bu iborat ma'ni oro hurupining roqomi va bu jahoxiri garon baho uqudining nozimi... Shermuhammad al mullaqab bil Munis b. Amir Avazbey mirob... bundoq arz qilurkim, kichiklik ovoni, yigitlik anfuvonikim, hayot olamining navbahorining ayyomi hujusta osoridur, il fasl havosi va bu mavsum taqozosi bila beparvoliq bodiyasidan jununtoz erdim va jaholat ma'rakasida arbadaboz, boshimda ishrat havosi vofir erdi, ko'nglimda nashot savdosi mutakosir...". Bu misralarda shior yoshligini hursanchilikda o'tkazishni orzu qilgani ammo yoshligi qiyinchiliklar bilan o'tganligini bayon qiladi³⁹.

Munis yaratgan asarlarga to'xtalishdan avval u yashagan davrga nazar tashlaydigan bo'lsak, Xorazm qadimdan madaniy markaz sifatida o'ziga xos o'rin tutib kelgan. Xorazm o'ziga xos ilm fan taraqqiyotining markazi xisoblangan. Bu

^{39 39}Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. – Т.: Ўқитувчи, 1960. – Б.15.

sohada buyuk allomalarimiz Muhammad ibn Muso al Xorazmiy, Abu Abdullo al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Allomai Zamahshariy o'zlarining munosib hissalarini q'o'shganlar.

Lekin, Xorazmda yaratilgan bu yuksak madaniyat Chingizxon istilosi natijasida yo'q qilib tashlandi.

Bu ahvol uzoq vaqt – Xorazmda markazlashgan davlat tuzilgunga qadar davom etdi. Xorazm goh u goh bu davlat ihtiyoriga o'tib yurdi. Faqatgina Abulg'ozixon davriga kelibgina Xorazmda siyosiy ahvol izga tushdi.

VII asrning o'rtalarida Xiva xonligi chuqur siyosiy inqiroz davrini boshdan kechiriyotgan edi. Bu inqiroz qabilalar orasida bo'lib turgan qonli kurashlar, xon bilan amaldorlar o'rtasidagi, ko'chmanchilar bilan o'troq xalq o'rtasidagi to'qnashuvlar, shiningdek, tashqi dushman bilan bo'lgan kurashlar natijasida kelib chiqqan edi. Bu xolning shu davr Xorazm iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sir etishi turgan gap.

Mamlakat tushkunlikka qarab borayotgan va feodallar orasida to'xtovsiz qonli urushlar davom etayotgan bir davrda qo'ng'irot urug'i sulolasining boshliqlaridan Eshmuhammad o'g'li Muhammad Amin davlatni qo'lga olishga kirishdi.

“Xon amri bilan Muhammad Aminbek Xo'jaquli inoqni xon ko'rinishida tutib o'ldirdi. Ibrohim inoqni Muhammad Amin inoq qatlg'a yetkurdi. Bu voqea qo'y yili sanai 1175 (1761 – 1762)-shavvolda...vuqu' topdi. Ham il kun juma namozidan burun Muhammad Amin inoqni Ibrohim inoqg'a qoim maqom etdilar. Muhammad Amin inoq ul fursatda 32 yoshda erdi. Og'oz davlati va ibtidoi amorati ul kundandir”.

Muhammad Amin inoq davlatni qo'lga olgunga qadar Xivada bir necha yil turkman – yovmitlar hukmronlik qildilar. Ular bilan mahalliy o'zbek amaldorlari orasida davlatni qo'lga olish uchun bo'lgan kurashlar natijasida mamlakat vayron bo'ldi, xalq esa chidab bo'lmas darajada og'ir ahvolda, ochlik va yalong'ochlikda kun kechirar edi. Munisning “Muhammad Amin inoqg'a qo'shulguncha bir yilda

53 martaba yovmit sipohi bilan urishdilar”, deb keltirgan ma’limoti u davrda to’xtovsiz feodal urushlari bo’lib turganligidan dalolat beradi.

Bu kurashlar natijasida XVIII asrda Xorazm xalqlari naqadar achinarli tushib qolganligi Munis yozib qoldirgan quyidagi ma’lumotlarda ochiq ko’rinadi: “Andin so’ng muonidlar Hazorasp, Xonqoh va Oroldan o’zga jami’ mamoliki Xorazmga istelo topib, fuqoro va raoyoning avsof va amvolida ihtiyor qolmadi. Yovmutning zulm va taaddisi haddan o’tib, qal’a qal’aga raft-omad qila olmadilar. Bu jihatdan Xorazm diyorida qahat va g’ilo shoyi bo’ldi. Toun va vabo xoqi’. Aksari maorif va mashohir, balki fuqoro ba raoyo mahalla- mahalla va qabila- qabila jalo ihtiyok qilib... atrof va aqtori olamg’a muntashir bo’ldilar. Xususan, Buhoro jonobiga musofirot ko’rgizib, ju’ (ochlik) balosidan qutildilar. Qochmoqqa qudrati yetmagan xalq avlodin qozoq va qoraqalpoqqa sotib nafaqa qildilar. Yovmut dag’i o’g’irlab sota boshladi. Aksari qulo’ (qal’alar) va bilod (shaharlar) xarob bo’lib, kentlar va mazra’lar besha va changaliston va kulot yerlar nayiston bo’ldi. Xivaq... ning oliy imoratlari munhadim bo’lib, o’rniga so’kso’k va yulg’in ko’kordi. Vahshiy jonivorlar odamiyzodg’a qoim maqom bo’ldi. Aningdek obod shaharda 40 uylik raiyat qoldi. Ba’zi yerda odamni ham yebdular”.

Xorazmda yashovchi xalqlar qahatchilik va ochlik balosidan qutilish maqsadida xotin, bola-chaqalari bilan Buxoro tomonga qochishga majbur bo’ldilar. Vaqtincha Xorazmdan voz kechishga majbur bo’lgan Muhammad Amin inoq yana Xorazmga qaytib keldi.

“Uni shahar va qishloq zodogonlari qo’llab quvatlaydilar. Muhammad Amin inoq turkman sardorlari hokimlik qilish uchun o’zaro kurash davrida mamlakatda siyosiy hukmronlikni o’z qo’liga olgan turkmanlarga qarshi, shuningdek, Buxoro ig’vosi ta’sirida bo’lgan Orol mang’itlariga qarshi kurash oplib bordi. O’zaro taxt uchun bo’lgan barcha kurashlar oqibatida mamlakat ocharchilik va zulm ostida qoldi. Ayniqsa, shaharlar tushkunlikka yuz tutdi. Og’ir ahvolda qolgan shahar aholisi qo’zg’alon ko’tardi, yirik yer egalari qo’llab-quvvatlangan shahar zodogonlari (xo’jalik) boshchilik qildilar. Yirik yer egalari hokimyatning markazlashtirish tarafdori bo’lib, iqtisodiy hayotning izdan chiqib ketishi tufayli

ularning manfaatiga zarar yetkazilgan edi. Qo'ng'iroqliklar bu kurashda ham o'zlarining boshlig'i sifatida Muhammad Amin inoqni ilgari surdilar va unga katta yordam berdilar"⁴⁰.

Davlatni qo'lga olishda va o'z hukmronligini tiklashda Muhammad Amin inoq amirlar, katta yer egalari, savdogarlar, ruhoniylarga suyanganligini Munisning "Muhammad Amin inoq... vaqtni g'animat bilib, aksari umaro (amirlar) bila yovmit muholifatida muttafiq bo'lib, qal'adorliq umurig'a ishtig'ol ko'rg'izdi", degan so'zlari ham isbot qiladi.

Shunday qilib, Xorazmda hukmronlik qilgan qo'ng'iroq urug'i sulolasiga dastlab Muhammad Amin inoq asos soldi. U xon avlodidan bo'lmasa ham, hamma ihtiyor uning qo'lida bo'lib, mamalakatni soxta xonlar nomidan boshqarar edi. Bu davrda sohta bo'lsa ham xon bo'lishi kerak edi, chunki, mahalliy aholi ichida xonning tarafdorlari ko'p edi.

Muhammad Aminning o'g'li Avoz inoq (1790 – 1804) ham otasining ishini davom ettirdi. Lekin Avaz inoqning o'g'li Eltuzar (1804 – 1806) sohta Abulg'ozi V ni taxtdan tushirib, o'zini qo'ng'iroq urug'i sulolasining xoni deb e'lon qildi.

Buxoro bilan bo'lgan urushda Eltuzar suvda cho'kib o'ladi. Xiva askarlari yengiladi. Shundan so'ng Xiva taxtiga mazkur sulolaning ko'zga ko'ringan nomoyondalaridan biri – Eltuzarning ukasi Muhammad Rahim I (1806 – 1825) o'tiradi.

Muhammad Rahim o'z mavqeini mustahkamlash maqsadida, vaqtincha bo'lsa ham, eski xon avlodidan bo'lgan Abulg'ozi V ni yana davlat teppasiga olib keldi. "Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi hududlardagi dehqonlarning asosiy ommasi XVII asr oxiri – XIX asr boshlarida bo'lgan urushlarda aktiv qatnasahdi. Bu urushlar hukmron sinflarga yoqmaydigan oqibatlariga olib kelishi muqarrar bo'lib qoldi, chunki dehqonlar, ayniqsa yersiz kambag'allar yer uchun kurashga qo'zg'algan edilar.

⁴⁰ Ғуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Т.: Ўзбекистон Фанлар Академияси, 1959. – Б. 216.

Muhammad Rahim taxtga o'tirishi bilanoq xalaqning g'azabi va tug'yoni naqadar kuchli ekanligini darhol payqab oldi. Bayoniyning "Xorazm tarixi" asarida aytilishicha, 1221 (1806 – 1807)-yili jumodil avval (avgust) oyida Beshqal'a rayonidagi dehqonlarning ko'pchilik qismi xonga qarshi bosh ko'tarib, Xivaga tomon yo'l oldi. Muhammad Rahim, garchi uyushmagan dehqonlar ommasini tormor keltirgan bo'lsa ham, bu voqeadan qo'rqib, Abulg'ozi V ni taxtga o'tqazdi, o'zi esa uning huzurida inoq bo'lib qoldi". Lekin taz vaqt ichida Muhammad Rahim o'z mavqeini mustahkamlab olib, Abulg'ozi V ni yana davlat teppasidan chetlatdi va o'zini xon deb e'lon qildi. Muhammad Rahim bobosi Muhammad Amin inoq davrida boshlangan Xiva xonligi hududini kengaytirish va u yerda yashovchi qabilalarni birlashtirish ishini qattiqqo'llik bilan davom ettirdi.

"Muhamad Rahim I (1806 – 1825) oliy kengash ta'sis etdi, soliq islohati o'tkazdi, o'lponlarni muntazam undirib olish yo'li bilan davlat daromadini oshirdi, bojhona va pul zarb qila boshladi".

Uzoq davom etgan qattiq kurashdan so'ng Muhammad Rahim I 1811-yili Orolni bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. To'ra Murod so'fi o'ldirildi. U yerdagi 20 000 oila yashashi mumkin bo'lgan qal'a yer bilan yakson qilindi.

XIX asr boshlarida, davlatni markazlashishi natijasida mamlakatda o'tgan davrlarga nisbatan hamma sohalarda ham bir daraja jonlanish boshlandi. Bu jonlanish tasodifiy bo'lmay, bir qancha iqtisodiy va ijtimoiy sabablar natijasida kelib chiqqan edi.

Qabilalar o'rtasidagi unchalik keng bo'lmagan iqtisodiy aloqalar ularning bir-biri bilan birlashishiga sabab bo'ldi va xonlarning markaziy davlat tuzish uchun bo'lgan intilishlarini yengillashtirdi. Tovar-pul munosabatlarining o'sishi xonlik soliq sistemasining o'zgarishida aniq ko'rindi. XIX asrning birinchi yarmida soliqni natural xolda emas, pul bilan yig'a boshladilar. Pul solig'ining nisbiy ravishda kuchaydi. Masalan, Xivada yerdan olinadigan solg'it solig'i pul bilan olinar edi.

XVIII asr oxiri va XIX asrda sug'orish ishlarining jonlandi. Irrigatsiya sohasida anch ishlar qilindi, ko'p yerlarga suv chiqarildi, yangi qishloqlar paydo bo'ldi.

Mamlakatda eng yahshi yerlar, mevazor bog'lar xon va uning avlodlari, amaldorlar, yirik feodallar va ruhoniylarning qo'lida edi. "Bu yerlar yersiz dehqonlar va majburiy ravishda ko'cirib keltirilgan kishilar va qullar kuchi bilan ishlangan".

XIX asrning o'rtalariga kelib, qoraqalpoq, turkman, feodallarining Xiva xonlariga qarshi olib borgan kurashlari va xonlikning ichidagi o'zaro feodal kurashlar iqtisodiy taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada xalqning ahvoli yanada og'irlashdi.

Feodal kurashlarning kuchayishi natijasida bu davrda Xiva taxtiga kelgan xonlar (Muhamad Amin Abdulla, Qutluq Murodlar) uzoq vaqt davlatni qo'lda tutib tura olmadilar.

Qutlug' Murod o'ldirilgandan keyin Xivada davlat teppasiga Sayid Muhammad (1856 – 1865) keladi. U hukmronlik qilgan davrda qo'shni xalqlarning Xiva xonligiga qarshi harakatlarini sindirish uchun ularga qarshi shavqatsiz ravishda kurash olib bordi. Undan keyin hokimyat teppasiga Muhammad Rahim II (1865 – 1910) keldi.

XIX asrga kelib O'rta Osiyodagi xonliklar, shuningdek, Xiva xonligi ham markazlashgan xonlikka aylandi. Ana shu markazlashish natijasida mamlakatda bir oz iqtisodiy jonlanish boshlandi, bu hol, albatta, fan va adabiyot taraqqiyotiga ham bir qadar ta'sir ko'rsatdi.

XIX asrda ko'zga ko'ringan va ko'pgina tarixiy asarlar yozgan saroy tarixchilari – Munis va uning shogirdi Ogahiy hamda ularning ishini davom ettirgan Bayoniylar edi. Ulargacha XVII asrda hukmronlik qilgan Xorazm xoni va tarixchisi Abulg'ozi (1643 – 1663) "Shajarai turk" va "Shajarai tarokima" nomli tarixiy asarlar yozgan edi. Abulg'ozidan boshlab to Eltuzar (1804 – 1806) davrigacha Xorazmda tarixiy asarlar yaratilgani ma'lum emas.

Munis o'z asarida Abulg'ozidan so'nggi davr Xorazm xonlarining hech kim tomonidan yoritilmaganligi haqida quyidagilarni yozadi: "Ma'lum bo'lsinki, Xorazm diyorida podshohlik qilgan Chingiz avlodining voqioti Abulg'ozixon Arabxondan so'ng yozilmay qolgan ekan. Shuningdek, Eshmuhammadbiy va Muhammad Amin inoqning davridagi voqealar ham yozilmay qolgan edi.

Men (Munis) u davrda bo'lib o'tgan voqealarni kuchim yetgancha tekshirib va aniqlab yozdim. Lekin ko'p voqeaning bo'lgan vaqtini aniqlashga muvaffaq bo'lmadim. Shuning uchun bu davr tarixini yozish uzoq vaqtga cho'zildi"⁴¹.

Abulg'ozidan Eltuzar davrigacha hech kim tomonidan bunday mas'uliyatli ishning bajarilmaganligi va bu ishning Munisga topshirilishi, uning o'z zamonasining talantli tarixchisi ekanligidan dalolat beradi.

Xorazm tarixi haqida o'zbek tilida tariiy asarlar yaratish, boshqa tillardagi tarixiy, adabiy asarlarni o'zbek tiliga tarjima etish kabi ishlarni keyinchalik uning shogirdi Ogahiy, Bayoniy va boshqalar saroy tarixchilari davom ettirdilar.

Munis, Ogahiy, Bayoniylar XIX asrda va XX asr boshlarida Xorazmda hukmronlik qilgan xonlarga atab o'zlarining "Firdavs ul iqbol", "Riyoziy davlat", "Zubdat ut tavorix", "Gulshani davlat", "Jomi' ul voqeoti sultoniy", "Shohidi iqbol", "Shajarai xorazmshohiy", "Xorazm tarixi" nomli tarixiy asarlarini yozib qoldirganlar.

Bu tarixiy asarlar 1914-yilgacha, ya'ni Xiva xonligida XVII asr ikkinchi yarmidan to Asfandiyor (1910 – 1918) davrigacha bo'lgan tarixiy voqealarni o'z ichiga oladi.

O'rta asr mashhur sharq tarixchilaridan Al Ma'sudiyning (X asr) "Murujuz zihab", Ibn al Asrning "Alkomil fit tarix" va Mirxondning "Ravzatus safo" kabi umumiy tarixga oid mashhur asarlari va shuningdek, boshqa ko'pkina tarixiy va adabiy asarlar o'zbek tiliga tarjima qilindi. Bu asarlar to'g'risida batafsil to'htalib o'tirmaymiz bu alohida ishni talab etadi. Ularning ba'zilari haqida to'xtalib o'tamiz. Munis Mirxondning "Ravzat us safo" nomli asarining I tomini va II

⁴¹Муниров Қ. Мунис, Огахий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. – Т.: Ўқитувчи, 1960. – Б.12.

tomining birinchi yarmini fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Bu davrda ko'plab kitoblar faqatgina fors tilida yozilgan bo'lib bu kitoblarni faqatgina fors tilini biladiganlarga mutola qila olgan xolos. Lekin Xorazmda yashovchi o'zbeklar bunday asarlarni o'qiy olmas edilar.

Bu tarjimaning yagona nushasi hozirda O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda. Asar noma'lum shaxs tomonidan qora siyohda nasta'liq xati bilan Qo'qon qog'oziga yozilgan. Ohirida bir necha qog'ozi yetishmaydi. Sarlavhalar qizil siyoh bilan yozilgan. Har bir beti 23 qatordan iborat. Asar 678 varaqdan iborat bo'lib, o'lchovi 17X33 sm. Sarni aynan Munis tomonidan tarjima qilingan deyishimizga sabab, tarjimaning oxirida Munis tarjima tamom bo'lganligini sheriyl usulda bayon qilib o'tadi. Umuman, Xorazmda XIX asrning ikkinchi yarmida tarixiy va adabiy asarlarni to'plash va o'zbek tiliga tarjima qilish keng avj olgan edi.

Adabiyot sohasida ham bir qancha saroy shoirlari yetishib chiqdi. Saroyda o'tgan davrlarga nisbatan g'azalxonlik avj oldi. XIX asr ikkinchi yarmida Xiva xoni saroyida yashagan shoirlar haqida Tabibiy o'zining "Majmuatush shuaro" nomli asarini yozgan.

Tarjima ishlari va saroy adabiyoti jonlangan bo'lishiga qaramay, Xorazmda bo'lgan tarixiy voqealarni yozish ishi Munis va Ogahiydan keyin to'xtab qolgan edi.

XX asrning boshlariga kelib, 1873-yildan to Asfandiyorxon davrigacha Xorazmda bo'lgan tarixiy voqealarni Xorazm tarixchi adabiyotchilaridan biri Bayoniy o'zining "Shajarai xorazmshohiy" asarida yozib qoldirgan.

Xulosa o'rnida shuni qayd qilish kerakki, 1873-yili Xiva xonligini Rossiya tomonidan bosib olinishi Xivaning ijtimoiy-iqtisodiy va shu bilan birga madaniy hayotiga ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Bu davrda tarixni xolis baholash va uni yoritish mushkul masalalardan biriga aylandi. Shu davrga qadar o'zbek xalqining va buyuk ajdodlarimizning tarixini o'zida aks ettirgan asarlar yo'q qilindi.

I bob bo'yicha xulosa. Abulg'ozixon Xiva xoni Arab Muhammadxonning to'rtinchi o'g'li bo'lib, Abulg'ozi otasi va aka-ukalari urushlarda bahodirlarcha jang qilgani uchun uni "Bahodirxon" deb atay boshlaganlar. Abulg'ozi Bahodirxon o'z otasining nomi bilan ataluvchi Arabmuhammadxon madrasasida tahsil olgan. O'z zamonasining bilimdonlari qo'lida tahsil ko'rgach, tarix faniga ixlos va ishtiyoq qo'yadi Abulg'ozixon Xiva xonligida og'ir siyosiy vaziyat yuzaga kelgan bir davrda yashadi. Ota-bola, aka-ukalar o'rtasidagi taxt uchun kurashlar avjiga chiqdi, bu kurashlar natijasida Abulg'oziy Eronning Isfaxon shahrida 10 yil tutqinlikda yashadi. Abulg'oziy bir qancha kurashdan so'ng 1644 – 1645-yillarda Xiva taxtini egallaydi va 1663 – 1664-yilgacha Xivada xonlik qiladi. Abulg'ozixon xonlik taxtiga chiqqach, Xorazmda ilm-fanni taraqqiy ettirish va madaniyatni yaxshilash maqsadida o'z saroyiga binokorlar, tabiblar, shoirlar tarixnavislar, adib, xattot va boshqa kasb egalarini to'pladi. Abulg'ozixonning "Shajarayi tarokima", "Shajarayi turk" nomli tarixiy, "Manofe ul-inson" (Inson uchun foydali tadbirlar) nomli tibbiyotga oid asarlari mavjud va bizgacha yetib kelgan.

Munis, Ogahiy, Bayoniylar XIX asrda va XX asr boshlarida Xorazmda hukmronlik qilgan xonlarga atab o'zlarining "Firdavs ul iqbol", "Riyozi ud davla", "Zubdat ut tavorix", "Gulshani davlat", "Jomi' ul voqeoti sultoni", "Shohidi iqbol", "Shajarai xorazmshohiy", "Xorazm tarixi" nomli tarixiy asarlarini yozib qoldirganlar. Bu asarlarning Xorazm tarixini o'rganishdagi ahamiyati juda katta. Xususan, mashhur olim V.V.Bartold Munis va Ogahiy asarlari bilan tanishgandan so'ng: "Munis va Ogahiylarning adabiy va tarixiy asarlari, qanchalik kamchiliklarga ega bo'lmasin, tarixiy voqealarni bayon etishda hamda ularda berilgan aniq materiallarning ko'pligi jihatidan bizgacha yetib kelgan Qo'qon va Buhoro xonliklari tarixi bo'yicha yozilgan hamma asarlari o'zidan ancha orqada qoldirib ketadi" degan edi.

II Bob. “Firdavs ul-iqbol” – Shermuhammad Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan noyob tarixiy asar

1.3. Shermuhammad Munis tomonidan “Firdavs ul iqbol” asarining yozilishi va uning o’rganilish tarixi

Xorazmda Abulg’ozixon davridan boshlab Xorazm tarixnavislik maktabiga asos solindi. Munis, Ogahiy va Bayoniylar bu maktabning davomchilari sifatida faoliyat olib bora boshladilar va sermahsul ijod na’munalari bilan tarixning XVII va XIX asrlarini tarix saxifalarida muhrladilar.

Bunday tarixiy asarlardan biri Munis qalamiga mansub bo’lgan, keyinchalik Ogahiy tomonidan davom ettirilgan “Firdavs ul iqbol” asaridir. Asar Xorazmda turkiy tilda yozilgan. Asar tiliga aynan to’htalishimizning sababi, bu davrda Buxoroda va Qo’qonda barcha ijod na’munalari fors-tojik tilida yaratilgani bizga ma’lum. Bu davrda O’rta Osiyoda Xorazmdagina davlat ishlari va adabiy jarayon turk-o’zbek tilida olib borilgan.

Munis o’z zamonasining juda ham iste’dodli shaxslaridan biri edi. Munisning iste’dodini anglagan Xorazm xoni Eltuzarxon unga 1220/1805-yilining o’rtalarida o’z sulolasining tarixini yozib qoldirishni buyuradi. Munis bu tarixiy asarni yozishga kirishar ekan, asarni “Firdavs ul iqbol” (Bahtu saodat jannati) deb Eltuzar vafot etgach, Munis asarni yozishni to’htatib qo’ydi. Xorazm taxtiga Eltuzarxondan so’ng Muhammad Rahim I keladi va uning buyrug’i bilan Munis asarni yozishni yana davom ettiradi. Lekin, Munis asarning Muhammad Rahimxon hukmronligi tarixining yettinchi yiliga kelganda esa asarni yozishni to’htatadi va Mirxondning “Ravzat us safo” asarini tarjimasiga shug’illanadi. Muhammad Rahimxonning vafotidan keyin hokimiyat tepkasiga kelgan Olloquli keladi u ham Munisga tarjimini davom ettirishni buyuradi. Biroq Munis ikkinchi kitobni oxiriga yetkaza olmay, 1244 (1829)-yili vafot etadi. “Firdavs ul iqbol” asari oxiriga yetmay qoladi. 1255 (1839 – 1840)-yili Munisning shogirdi va uning tarbiyasini olgan Muhammad Rizo Ogahiy chaqirib, 1813-yil voqealarini bayon etish bilan uzilib qolgan “Firdavs ul iqbol”ni davom ettirishni buyuradi. Ogahiy 1813-yildan boshlab, Xorazmda sodir bo’lgan voqealarni yozishga kirishadi.

Munis o'z asarini shu davr ana'naviy asar yozish turiga muvofiq asarni hamd va na't bilan boshlaydi. So'ngra oz hayoti va hamda asarning yozilish tarixi haqida qisqacha ma'lumot berib, bevosita Xorazm tarixini yozishga kirishadi.

Asar muqaddima, besh bob va xotimadan iborat.

I bob – Odam atodan Nuh payg'ambar avlodigacha bo'lgan hodisalar haqida;

II bob – Yofasdan Qo'ng'iro't shu'basigacha bo'lgan mo'g'ul hukmdorlari haqida;

III bob – Qurlos avlodiga mansub podshohlar (Chingiziylar to Abulg'ozixon ibn Yodgorgacha) davrida sodir bo'lgan voqealar haqida;

IV bob – Qo'ng'iro't Eltuzarxonning ota-bobolari haqida;

V bob – Eltuzarxonning tug'ulishidan boshlab, bu asarning yozilib tamom bo'lishiga qadar sodir bo'lgan voqealar haqida.

Xotimada esa u davrda yashagan olimlar, avliyolar, amirlar, beklar, shoirlar, donishmandlar, hunarmandlar va boshqalar haqida ham yozmoqchi bo'lgan.

“Firdavs ul-iqbol” dastlab Mundarijoti fehristiy (debocha) bilan boshlanadi.

Asarni nomlanishi unda turkiy xalqlar tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar mavjudligini ko'rsatadi.

Asarni yozish jarayonida tarixiy davrni aks ettirish eng avvalgi maqsad bo'lsada, ammo muallif, Odam atoning yaratilishi, Nuh payg'ambar avlodi, Qobil va Hobil o'rtasidagi munosabatlarga ham to'htalib o'tadi, bu jarayonlarni Munis hikoya, hamda shery yo'llar bilan tasirli qilib ifodalaydi va bu asarni qimmatini yanada oshiradi.

Asarning boblari tarixnavislik nuqtai nazari va hajm jihatidan (dastxati va nushalarida) bir hil emas. Boshida ikki bob koplyativ ahamiyat kasb etgan va dastxatida 23 varaqdan iborat. Uchinchi bobdagi Chingiziylar davri uch qismga bo'lingan va uning uchinchi qismi Xorazm Arabshohiylari davrini qamrab olib, Abulg'oziy vafoti bilan tamom bo'lgan va juda ham orginaldir. To'rtinchi bob oldingi uchta bobdan ham ko'p – qariyb 80 varoqni tashkil qiladi. Beshinchi bob ham matnning 4/3 qismini tashkil qilib, asl ma'lumotlardan iborat. Yuriy

Bregilning xulosasiga ko'ra, "Firdavs ul iqbol" ning 7/8 qismi o'ta original va qimmatli ma'lumotlar bilan to'ladir.

"Firdavs ul iqbol" asarining tarix ilmidagi ahamiyati shundan iboratki, unda Xorazmning qadimgi davridan boshlab, Muhammad Rahimxon I (1806 – 1825 yy.) davrigacha bo'lgan siyosiy tarixi xronologik tartibda bayon qilingan. Munis qadim zamondan boshlab Abulg'ozixon davrigacha Xorazmda bo'lgan voqealarni bayon etar ekan. Abulg'ozixon davridagi Xiva va Buhoro xonliklarining o'zaro munosabatlariga ham to'htalib o'tgan. Shuningdek, asarda XVIII asr va XIX asrning birinchi choragi, ya'ni Qo'ng'iro't sulolasining vakillarining Muhammadamin inoq (1755 – 1790), Avaz inoq (1790 – 1804), Eltuzarxon (1804 – 1806) va Muhammad Rahimxon I (1806 – 1825) larning Xorazmda hukmronlik qilgan yillaridagi tarixiy voqealar bayon qilingani, iqtisodiy va ijtimoiy hayotga doir ayrim ma'lumotlar ham berilgan.

Munis asarida Eltuzarning birinchi to'rtta g'alabasini bayon qiladi. Bular: qorqalpoqlarga qarshi yurish; yovmitlarning mag'lubiyati, Xo'jayli mudofa devorining buzib tashlanishi; Qo'ng'iro'tning bosib olinishidir. Bulardan avvaligi ikkitasi Eltuzarxon bo'lmasdan oldin sodir bo'lgan edi. Keyingi ikkitasi Eltuzarxon ko'tarilgandan keyin voqea bo'lgan. Xonning qo'ng'iro'tni qamal qilishi rabi' al-avval 1220/30-may 1805-yilida boshlanib, 17-rabi'as-soniy /20-iyun 1805-xon istehkomni olgani bilan tugagan. Shu voqeadan so'ng Munis xon huzuriga chaqiriladi va ya'na bir marotaba Eltuzar tarixini yoritish uchun oxirgi buyruqni oladi.

Eltuzarxinning buxoroliklar bilan urush qilib, fojeali halok bo'lishiga qadar (3-iyul 1806) Munis bir yildan ko'proq muddatda Sherg'ozixon davri (1125/1712) gacha bo'lgan tarixni yozgandi. Keyingi tanaffus uzoq vaqt davom etadi. Keyin Muhammad Rahimxon (bir bazm chog'ida) unga ishni davom ettirishni va uning hukmronlik davrini ham yozishni buyuradi.

Munis Eltuzarxondan oldingi hukmdorlardan Eshmuhammadbiy va Muhammad Amin inoq davrlaridan boshlangan voqealarni 1807-yil o'rtalaridan yozoshni davom ettirib, ancha vaqti va sa'y-harakatlarini sarflaydi. Muhammad

Rahimxonning yettinchi yili bayoniga kelganda (uning keltirgan oxirgi sana 21-safare 1227/5-mart 1812-dir), birdan Munis Muhammad Rahimxondan “Ravzat us safo” tarjimasi uchun buyruq olib, qayta “Firdavs ul iqbol” ni yozishga kirishadi. Yuqorida aytilganidek, “Firdavs ul iqbol”ni Ogahiy yozib tugatgan va undagi voqealar bayoni 1825-yilgacha yetkazilgan. Ogahiy Munis vafot etgach “Firdavs ul iqbol” asarini tarqoq varoqlarini to’playdi va asarni 1258/1842-yilda tamomlaydi.

Munis asarni dastlab “Iqbolnoma” deb nomlamoqchi bo’ladi, lekin asarga “Firdavs ul iqbol” deb nom beradi⁴².

Asar sulolaviy tarixnavislik (yoki mahalliy va sulolaviy tarix kombinatsiyasi) ning yorqin na’munasidir. Yuriy Bregil asarni yaratilishida hech qanday induvidualizm yo’q, bu asar Abulg’ozixon va “Ravzat us safo” asari tasirida yozilgan degan fikrlarni bildiradi. Aksincha, sulolaviy tarixshunoslik faqatgina fors tarixshunosligiga xos emas, Munis asarni yozishda tarixchi sifatida o’zidan oldingi tarixshunoslarning tarixiy asarlarini yahshi o’rgangan xolda, ulardan foydalangan. Bu uning yahshi ijodkorligidan dalolat beradi. Biz dastlab Munis “Firdavs ul iqbol” asarini yozish davrida “Ravzat us safo” asarini shahsan o’zi tarjima qilganligini ta’kidlab o’tgan edik. Bu davr nuqtai nazari bilan qaraganimizda, bu juda ham katta ma’suliyat va iqtidorni talab etadi. Munis qo’lyozmasida uning manbalar qatorida Mir Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo”, “Tarixiy Jafariy”, Sa’labiyning “Arais (al majolis fi qisas al-anbiyo)”, “Nizom at tavorix”, Tabariy asari, “Tarix”i Hofizi Abroy, “Hukamo tarixi” (Shahrazuriyniki), “Tarixi Muqaddasiy”, “Zafarnoma” muqaddiymasi tilga olinadi. Biroq bu asarlar nomi “Ravzat us safo” matni bilan birga “Firdavs ul iqbol”ga ko’chganini Yu.Bregil ham ta’kidlaydi. Lekin, Munisning o’zi manbasining manbasi ham asari matniga o’tganini alohida ta’kidlamagan.

Munis asaridagi ko’p parchalar va voqealar bayonida anonim manbalar va informatorlarga havola etib “rivoyat qilurlar”, “muarrixlar andoq ayturlarkim”, “muallif bir nushada ko’rgankim”, “boshqa so’zga qaraganda” so’zlar bilan

⁴² Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. – Б.7.

kifoyalangan. Munis asarda Yofas alayhissalom tarixining bayonida aning sakkiz o'g'li bor erdi. “Avlodi bisyor ko'p bo'lub, har qaysi o'z avlodi bila Turonzaminning bir tarafig'a borib, shaharlar bino qildilar. Otlari bul tartib bila kim – Turk, Xazar, Saqlob, Chin, Kamori, Munsiq, Rus, Tozuh. Mirxond “raxzat us safo” da G'uz, Xulx, Sadsoni aning o'g'lonlaridan sanab, o'n bir debdur”⁴³. Bu joyda Mirxondning “Ravzat us-safo” asaridan foydalanganligini aynan yozib o'tadi. Ba'zi joylardagi bunday so'zlar to'g'ridan-to'g'ri uning manbasining aynan ko'chirmasi bo'lsa, ayrim holatlarda Munis ma'lumoti boshqa manbalardan olingani taxmin qilinadi. Bunday nomi bilan tilga olinmagan Munisning manbalardan biri Hamdulloh Qazvinining “Tarixi guzida”si ekanini Yu. Bregil ham aniqlagan.

Munis o'z davri tarixi bayoniga yaqinlashgan sari yozma manbalarning yo'qligidan nihoyat aziyat chekkanligini asarida ta'kidlab o'tadi. Uning shikoyati Eltuzarxon davridan oldingi tarixga tegishlidir. Xorazm mulkida hukmronlik qilgan chingiziylar tarixini Abulg'oziy ibn Arabxondan keyin boshqa hech kim yozib qoldirmaganligini, Eshmuhammadbiy va Muhammadamin inoq g'alabalarining hech bir joyda qayd etilmaganligini afsus bilan ta'kidlaydi.

Ammo shu o'rinda biz xorazmlik muallif tomonidan turkiy tilda Xivada yaratilgan Shayboniylar davriga oid ilk asarlardan biri “Chingiznoma”ni esga olib o'tamiz. Asar Munisning “Firdavs ul iqbol” asarida Shayboniylar davri tarixini yozritishda manba sifatida foydalansa maqsadga muvofiq bo'lar edi, ammo, Munisning ham bu tarixiy asar to'g'risida hech qanday ma'lumotga ega emas edi. Chunki, “Chingiznoma” asari to'g'risida hech qanday to'xtalish bo'lmagan. Munisning “Chingiznoma” saridan foydalanishi asarni yanada tarixiyligini yanada oshirar edi.

Munis asrda xalq og'zaki ijodidan ham keng foydalangan bunday voqealarni bayon qilishda axborotchilarni ba'zi xollatlarda anonim tarzida bersa ba'zida ularning nomlarini aniq keltirib o'tadi. Masalan, Arang davriga (1099 – 1105/1688 – 1694) oid ba'zi voqealarni Sayyid Isomiddin ho'ja Sayyid Muhammadpanohho'ja

⁴³ Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-икбол. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. – Б.65.

o'g'lidan eshitganini yozadi. Shu davr oid voqealar bayonida ma'lumot beruvchi sifatida yana uning bobolaridan biri bo'lgan Jiyanbiy Mirob nomi ham tilga olinadi. Demak Munisning ajdodlari ham tarix sohasiga yaqin odamlardan bo'lgan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Sherg'gozixonning Xurosonga yurishi tafsilotlarini Munis bobokaloni Eshimbiy mirobning eronlik quli nomidan bolaligi paytida eshitganini yozgan. 1165/1751 – 1752-Xo'rozbekning o'ldirilishini esa Munis o'sha davrda yashagan bir odamdan eshitganini ta'kidlaydi. Avazbek ibn Eshmuhammad haj tafsiloti va uning Nodirshoh davrida (boshqa yana 19 nafar zodogonlar bilan) o'ldirilgan Muhammad Rahimxon tilidan bayon qilinadi. Munis bu tafsilotlarni Muhammad Rahimning bekligi davrida eshitgan ekan. Muhammadamin inoq nomi bilan bog'liq ba'zi voqealar Munisning otasi Avaz Mirob nomidan beriladi.

“Firdavs ul iqbol” asarining beshinchi bobida Munis tarixiy voqealarning ancha erkin va mufassal bayon qilishga harakat qilgan. Bu tabiiy, chunki bu davr tarixining guvohi va faol ishtirokchisi Munisning o'zi bo'lgan. Munis asarda o'zi ishtirok etayotgan voqealar bayonini hijriy 1216-yilning zu-l-qada/1802-mart oyini tilga oladi. Shu bobning ko'plab qismlari voqea ishtirokchilarining tilidan yozilgan. Asarning olti joyida huddi shunday guvohlar tilidan yozilgan jummalarni uchratishimiz mumkin. Shuningdek, bu bobni arxiv hujjatlari asosida yozilganligini ham ko'rishimiz mumkin. Munis xon saroyida amaldor vazifasida ishlagan ko'p joylarga xon bilan birga borgan bo'lishi mumkin ammo, ba'zi joylardagi voqealarni shasan o'zi ko'zi bilan ko'rmagan. Yu.Bregilning tahminiga ko'ra, Munisning o'z kundaligi ham bo'lgan. Fikrimizcha, bu tahmin to'g'ri qo'yilgan. Aks holda bir nevhga yillardan so'ng (1713 – 1812-yillar voqealari 1807 –1819-yillar davomida yozilgan; bir joyda esa 1215/1800-yili voqeasini bayon qilib, Munis (“buni endi 1224-yili bildik” deb ta'kidlaydi) ya'ni bu voqeani 9 yildan so'ng bayon qilyapti. Voqealarni kundan-kunga (Bazan muayyan kunning aniq vaqti ko'rsatib) yozishning imkoni bo'lmas edi.

“Firdavs ul iqbol” asarining o'rganilishiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, asar Xiva xonligini o'rganishda muhim tarixiy manba sifatida juda ko'plab tarixchilarni

o'ziga jalb etgan. Asarda voqealarning ishtirokchilar tomonidan bayon qilinishi asarning qimmatliyigini yana ham oshiradi, chunki, voqealarga birmuncha o'xshatish va ilmiy bezaklar bilan tasvirlansada, ammo, voqealar haqiqiyliyini asl holatini yo'qotmagan. Asar nafaqat osiyolik balki, yevropalik tarixchi va sayyohlarning e'tiborini o'ziga jalb etgan.

Yevropada “Firdavs ul iqbol” mualliflari Munis va Ogahiy haqidagi birinchi ma'lumotni Herman Vamberi bergan. Biroq uning ma'lumotlari biroz chalkash ekanligini Yu. Bregil ko'rsatadi. H.Vamberi 1863-yili Xivaga kelganida Munis vafot etgan edi. Ogahiy ham Vamberi bilan uchrashmaganligi aniq. H.Vamberi xivaliklardan olingan ma'lumotlarni yig'ib, Munisga nisbatan berilgan juda bir zaif she'rni nemischa tarjimasi bilan keltirgan. Mazkur axborotida H.Vamberi Munis va Ogahiyning tarixiy asarlaridan xabardor ekanligini bildirib, yaqin kelajakda ularning adabiy merosidan na'munalar tarjima etishini rejalashtirayotganligini aytgan⁴⁴.

Keyingi ma'lumot Aleksandr Kunga tegishli. 1873-yili Xiva xoni saroyining talon-tarojida ishtirok etgan A.Kun (asli kelib chiqishi nemis, O'rta Osiyoda Iskandar to'ra nomi bilan o'zini tanishtirishni hush ko'rgan sharqshunos) 300 jild qo'lyozma kitoblar orasida Munis va Ogahiy kitoblarini ham olgan. U zudlik bilan “Turkistaniskiy vedomosti”da shu haqida axborot berib, Munis asarining oxirgi bobi mazmuni va Ogahiy asarlari haqida ma'lumot bergan. 5-dekabr 1873-yili A.Kun Rossiya jo'g'rofiy jamiyatida ham ma'ruza qilib, Munis va Ogahiy xronikalari haqida ma'lumot bergani ma'lum.

N.I.Vaselovskiy “Очерк историко-географических сведений в Хивинском ханстве с древних времен до настоящего” asarida (–СПб.,1877) A.Kun ma'lumotidan foydalanib, Munis va Ogahiy asarlari bilan tanisha olmadi, chunki, ular hali ham A.Kunning qo'lida bo'lgan edi. Lekin N.I.Veselovskiy A.Amirxanyansga yozgan xatida Munis va Ogahiy tomonidan yozilgan asarlarga “unchalik ahamiyatga ega emas” deb baho bergan. H.H.Hovart (H.H.Howort) ham 1880-yilda o'z asarida A.Kun ihtiyoridagi Xiva solnomalarini eslatib o'tgan.

⁴⁴ Мунис ва Огахий. Фирдавс ул-икбол. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. – Б.8.

Xon saroyidan olingan 300 jild qo'lyozmalarning ba'zilar Peterburgdagi Osiyo muzeyiga berildi. Biroq A.Kun o'z vafotigacha (1888) Munis va Ogahiy asrlarini o'zida saqlagan. 1890-yilda uning vorislari kitoblarni Osiyo muzeyiga sotishadi. G.Zaleman esa A.Kun kolleksiyasini tavsiflaganida Munis va Ogahiy asarlari haqida ham ma'lumot beradi. Shu vaqtning o'zida pastor A.Amirxanyans "Firdavs ul iqbol" asarini o'rganib, mufassal tavsifini bergan. Uning bu tavsifi "Записки пастора Авр.Амрханяна об «Истории Хивы» asari hozir Sankt Peterburgda saqlanadi.

Ruhoniy Avram Amirexanyans "Firdavs ul iqbol" asariga juda professional tarixchi va manbashunos sifatida baho berib, quyidagi xulosalarni bergan:

- Munis Abulg'ozi Bahodirxonning tarixiy asarlarini davom ettirgan;
- U Abulg'oziy o'z asarida maqsadga muvofiq kelmagani bois tushurib qoldirgan voqealarni to'ldiradi. Munisning asarida biz Abulg'oziyxon hukmronlik qilgan davrdan ilgarigi hamda u xonlik qilgan davrda bo'lgan, lekin Abulg'oziyxon tomonidan keltirilmagan voqealar haqidagi ma'lumotlarni uchratamiz;
- Xorazmda katta mansabga ega bo'lgan kishilarning hayoti haqida ma'lumot beradi;
- qumli sahrolar, Orol dengizi, Amudaryoning dastlabki oqimi va Hojimxon xonlik qilgan davrda uning o'zgarishi haqida qiziq geografik Ma'lumotlar keltiriladi. Shuningdek, Shoxobod arig', Bandi sulton haqida ham ma'lumotlar mavjud;
- asardagi ma'lumotlar faktlar asosida yozilgan bo'lib, aniq xronologik tartibga ega;
- muallif, o'z asarini yozishda og'zaki va yozma materiallarni diqqat bilan to'plagan;
- asar sof klassik ilmiy tilda yozilgan;
- kitobda keltirilgan voqealar bir- biri bilan yahshi bog'langan⁴⁵.

⁴⁵ Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. – Б.12.

A.Amirxanyans o'z davrining mashhur sharqshunoslari prof. Berezin, baron Demezov, akademik Fren va Ilminskiylarni chig'atoy tilida yozilgan manbalarni bostirishda, "... qo'llarida shunday bir mukammal qo'lyozma asar bo'lsa edi, o'zlarini bahtli hisoblagan bo'lur edilar"⁴⁶ deb xulosa qilgan.

Munis va Ogahiy asarlarini V.V.Bartold ham jiddiy o'rgangan va "Munisshunoslikka" asos solgan. Akademik V.V.Bartold barcha asarlarida Xiva yilnomalaridan yetarli darajada foydalanib, ularga yuqori baho beradi. U hatto 1914 – 1917-yillari davomida "Firdav ul iqbol" asari matnini ham tahrir etib nashrga tayyorlagani ma'lum. V.V.Bartold 1929-yili esa uning chop etilishi yaqinligi haqida habar ham beradi. Biroq uning rejalari amalga oshirilmaganligidan xabarimiz bor.

V.V.Bartold Munis va Ogahiy asarlari bilan tanishgandan so'ng, shunday xulosaga kelgan edi: "Munis va Ogahiylarning adabiy va tarixiy asarlari, qanchalik kamchiliklarga ega bo'lmasin, tarixiy voqealarni bayon etishda hamda ularda berilgan aniq materiallarning ko'pligi jihatidan bizgacha yetib kelgan Qo'qon va Buhoro xonliklari tarixi bo'yicha yozilgan hamma asarlari o'zidan ancha orqada qoldirib ketadi". Lekin V.V.Bartold Bayoniy asarlaridan xabarsiz bo'lgan. Asardagi kamchiliklar bizning fikrimizcha, mana shu davr siyosati bilan bog'lash mumkin. Munis va Ogahiy tomonidan yozilgan asarlarni tadqiq etish davomida shuni ko'rish mumkinki, Munis ham, Ogahiy ham o'z asarni yaratishda xonning xizmatida bo'lgan, asarni imkon boricha tarixiylik reallik asosida yozishga harakat qilgan va bizning fikrimizcha buni uddasidan chiqqan deb o'ylaymiz, bu asarlarni bugungi kunga kelib ham Xorazm tarixini yoritishda tadqiqotlarimizga jalb etmoqdamiz va qimmatli manba sifatida foydalanmoqdamiz. Keyinchalik, P.P.Ivanov, A.L.Borovkov, Z.Aksakov, Ya.G'ulomov, Q.Munirov Munis va Ogahiy asarlarida o'z tadqiqotlarida keng foydalanganlar. "Firdavs ul iqbol" asaridan parchalar 1969-yili Qozog'istonda nashr etilgan "Материал по истории казахский ханств XV – XVII веков" (Алма-ата,1969) kitobiga (tarjimon N.N.Mingulov) ham kirgan.

⁴⁶ Мунис ва Огахий. Фирдавс ул-икбол. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. – Б.12.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki asardagi tarixiy voqealar faqatgina Xiva xonligining emas boshqa hududlarning tarixini yoritishda ham o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan. Mazkur asar haligacha to'liq holatda o'rganilmagan. Asarni to'liq holatda o'rganilishi natijasida tarixning xali ochilmagan tilsimlari, ayon bo'lishi mumkin. Bunday deyishimizga sabab, asardagi asosiy voqealarni muallif tomonidan guvohi bo'lib yozilgan voqealar tashkil qiladi.

2.2. "Firdavs ul-iqbol" asarining Ogahiy tomonidan davom ettirilishi va asarning o'zbek tilidagi nashri haqida ayrim muloxazalar

"Firdavs ul iqbol" tarixiy asari ikki muallif, ya'ni Munis va Ogahiy qalamiga mansubdir. Bularning ikkalasi ham qadimiy Xorazm diyorining farzandi hosoblanadi. Munis va Ogahiy yoshligidan yahshi talim va tarbiya topgan va umrining so'ngi damlariga qadar saroyda hizmat qilib xalq dardi bilan hamnafaslikda hayot kechirgan. Biz "Firdavs ul iqbol"asari to'g'risida fikr yuritishdan avval Ogahiyning hayot va ijod yo'liga to'htalib o'tsak.

Muhammad Rizo Ogahiy XIX asrda Xorazmda yashagan va ijod etgan atoqli tarixchi, talantli shoir va tarjimondir. Ogahiyning hayoti, ijodi va boy ilmiy merosi haligacha tarixchilarimiz va adabiyotchilarimiz tomonidan yetarli darajada o'rganilgan emas.

O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganishda va yoritishda Ogahiy tomonidan yozilgan tarixiy asarlar va o'zbek tiliga qilingan tarjimalarning ahamiyati nihoyatda katta. O'z ustози Munisning ishini davom ettirgan Ogahiy tarix fani xazinasini va o'zbek adabiyotini yangi asarlar bilan boyitdi, rivojlantirdi va unga salmoqli hissa qo'shdi.

Ogahiy tarixchi sifatida O'rta Osiyo, shuningdek, O'zbekiston xalqlari tarixini boy ma'lumot beruvchi bir necha tarixiy asarlar yaratdi. Shoir sifatida u yuksak badiiy mahorat bilan yozilgan she'rlarni o'z ichiga oluvchi mukammal devon tuzib qoldirdi. Tarjimon sifatida ko'pkina sharq tarixchi va adiblarining tarixiy, adabiy asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi.

Ogahiyning adabiy faoliyati va adabiy merosi haqida, hali yetarli bo'lmasa ham, ilmiy tadqiqot ishlariga egamiz, lekin uning tarix fani xazinasini boyitishda qilgan xizmatlarini taqdirlovchi, uning tarix fani xazinasiga qo'shgan bebaho hissasi- tarixiy asarlari juda ham kam o'rganilgan.

Muhammad Rizo Ogahiy XIX asrning boshlarida Xorazmda Chingizxon avlodining qoldiqlarini davlat sahnasidan chetlatilib, hukronlik uzil-kesil mahalliy qo'ng'iroq urug'i sulolasi vakillarining qo'lga o'tgan, siyosiy va iqtisodiy hayot o'tgan davrlarga nisbatan bir oz tartibga tushib qolgan davrda dunyoga keladi. Bu haqda Munis shunday deb yozad: "Bu yil 1224 (1809) mohi mazkur, ya'ni zulqa'daning o'nida, shanba kuni (8-dekabr, - juma kuni) Erniyozbekka kim, faqirning (Munisning) inisidur, hazrati vahibal atoyot bir farzandi arjumand va valadi saodat payvand ato qildi. Ul... Muhammad Rizobekka mavsum bo'ldi...

Ogahiy yashagan davr XIX asrning I-II choraklariga to'g'ri keladi. U yashagan davrda Xiva xonligi taxtida Muhammad Rahim I (1806 – 1825), Olloquli I (1825 – 1843), Rahimquli (1843 – 1846), Muhammad Amin (1846 – 1855), Abdullo, Qutluqmurod, Said Muhammad (1856 – 1865), Muhammad Rahimxon II (1865 – 1910)lar hukmronlik qildilar. Ogahiy 1291 (1874)-yili Xorazmda vafot etgan.

Ogahiy to'g'risidagi ma'lumotlarni biz uning O'zbekiston Fanlar Akademiyasida saqlanayotgan adabiy tarixiy qo'lyozma asarlariga tayangan holda o'rganamiz. Shuningdek, Ogahiyning g'azal, muhammas, ruboiy, qasidalarini orqali ham uning hayot faoliyati bilan tanishimiz mumkin.

Ammo Ogahiyning ijodi hali adabiyotchilarimiz va tarixchilarimiz tomonidan haligacha to'liq o'rganilgan emas, to'g'ri Ogahiy ijodi o'rganilgan, lekin ular Ogahiyning ulkan so'z ustasi ekanligini, o'zbel adabiyotida tutgan o'rnini, o'zbek adabiyoti va tarixi uchun qo'shgan salmoqli hissasini va O'zbekiston tarixini organishdagi ahamiyatini yetarli darajada yoritib bera olmaydi. Xiva shoirlaridan Laffasiy o'z asarida: "Ogahiy Muhammad Rizo mirob qiyotlik Erniyozbek mirobning o'g'li bo'lib, xonlar davrida Shermuhammad mirob Munisning dastparvarda shogirdi, amakizodalaridan edi", deb yozadi.

Ogahiy devonida o'zi haqida quyidagi ma'lumotni yozib o'tadi: "Maqsadsizlik maydonida avora, malolat va malomatga uchragan Muhammad Rizo al mulaqqab bil Ogahiy o'z boshidan o'tgan sarguzashtlarini va ahvolini quyidagicha bayon etaman. Mening ota-bobolarim Xorazm sultonlarining amirlaridan va yuz nomli o'zbek toifasidan miroblik mansabiga yetishganlardandir.

Yoshlik chog'imdan boshlab ilm olishga qiziqdim. Madrasada o'qidim. Olimlarning, shoirlarning xizmatida va suhbatida bo'lishni o'zimga lozim deb bildim.

Qadam aylabon ilm yo'lida bosh,
Hunar kasbida aylar edim talosh.
Ne tunlar manga xobi rohat edi,
Ne kunlar zamoni farog'at edi".

Bu she'rda Ogahiyning ilm olishga juda ham qiziqqani va ijod qilish uning uchun kunda ham, tunda ham, rohat bag'ishlashini yozib o'tganligini anglashimiz mumkun.

Ogahiy, o'z so'zida davom etib, ya'na shunday deydi: "Hali ilm qoidalaridan to'la bahramand bo'lganimcha yo'q edi, jahonning rango-rang jafosi va balosi, hayot anduhi shiddatining og'ir yuki tog'dek boshimga tushdi; sipohigarlik mansabining shug'li zanjiriga giriftor bo'ldim. Goho motamdorlik taxsiridan afsurda, goho suv guvorlik tafakkurida pajmurda, goho ovqat guzorlik asbobi saranjomining fikri bilan boshimda qora qayg'u, goho sipohdorlig', alomatining tahiysi bilan ko'zimga jahon qorong'u, goho podshoh xizmatining taraddudi bila ko'nglimda ming g'am goho vazir mulozamatining tajassusi bila jonimda yuz alam; ammo ana shu yuqorida aytilgan tashvishlardan qutulib, bir oz vaqt va fursat topsam, zo'r ishtiyoq va zavq bilan olimlarning, shoirlarning suhbatida bo'lib, bahra olar edim". "Goho haqiqiy oborlar suhbatida bo'lib, bahra topar edim, goho o'zini xalq oldida obid ko'rsatish uchun qalbaki zohidlar suhbatida bo'lib, jahlim chiqar va ulardan e'tiqodim qaytar edi. Ana shu sayr asnosida, ularning har birini o'z holiga muvofiq qilib, g'azallar, qasidalar, ruboiylar, masnaviylar, muhammaslar, musaddaslar yozar edim. Ulardan ko'pi

xalq og'zida ashula qilib aytilar edi. Ulardan Ba'zilarining musavvadasi beparvoligim sababli chochilib yotgan edi”.

Bu ma'lumotlarni o'rganish orqali Ogahiyning biror-bir kasbga majburan yo'naltirilgan bo'lsa kerak degan xulosaga kelishimiz mumkin, fikrimizni izohi sifatida Ogahiy tomonidan keltirilgan quyidagi jummalarni keltirishimiz mumkin:

“Podshoh xizmatining taraddudi bilan ko'nglimda ming g'am va goho vazir mulozamatining tajasusi bila jonimda yuz alam” degan so'zlardan Ogahiyning harbiy ish bilan shug'ullanishdan, mansab egasi bo'lishdan, podshoh hizmatida va vazir mulozamatida bo'lishdan xursand emasligi ko'rinib turibdi. Uning: “Goho shavq angiz qasidalar, goho shahd omiz g'zallar, goho shakar rez muhammaslar xayol etib, avroq suturig'a bitar erdim... ulcha kim xotirim murodi erdi, yetar erdim” degan so'zlaridan uning maqsadi nima ekanligini bilib olish qiyin emas.

Ogahiyning asosiy maqsadi ilm egasi bo'lish, o'zbek adabiyoti va tarixiga qo'shish edi. Ogahiyning boshqa davlat ishlariga jalb etilishi uning ijod erkinligiga to'sqinlik qilgan. Shuning uchun ham u, boshqa ishlar bilan shug'ullanishni o'z boshiga tushgan kulfat deb biladi. Ogahiy yuqoridagi ishlar bilan ovora bo'lsa-da, u adabiyot va atriq faniga qiziqishni qo'ymagan. Bir oz vaqt topsa, olinlar va shoirlar bilan suhbatda bo'lgan. Yozgan sherlari xalq orasida keng atrqalgach, Ogahiy shoir sifatida tanilgan va shuhrat topgan. Avval uning she'rlari tarqoq holda bo'lib, 1855 – 1865-yillar orasida Ogahiyning o'zi ulardan devon tuzib, “Ta'vizul oshiqin” deb nom bergan. Ogahiy Xiva xonlarining saroyida otabobosidan meros bo'lib kelayotgan miroblik mansabida ham ishlagan.

Munis 1829-yili Xurosondan qaytayotganida yo'lda vafot etadi. Uning o'rniga Ollohqulixon Ogahiyning miroblik vazifasiga tayin etadi. Ogahiy 1268 (1851 – 1852)-yili Muhammad Amin tomonidan o'z iltimosiga ko'ra bu vazifadan ozod etiladi. Bu to'g'rida uning o'zi bunday deb yozadi: “Faqirkim (Ogahiy) ba'zi kasal sababidan ul hazrat... (Muhammad Amin) bila yurib, safar qilmoqdin ma'zur erdim, bu jihatdin... o'z iltimosim mujibi bila safardin maof tutib, sanai 1268- (1851 – 1852) da to'nkuz yili muharram oyining o'n to'qqizida juma kechasi amakizodam Muhammad Karimbekni o'rnimga miroblig' mansabiga mansub etib,

sarafro'zlig' va kamyoblig' yetkurdilar"⁴⁷. Uning "kamyoblig' yetkurdilar" degan so'zidan xon saroyida miroblik vazifasida ishlash joniga tekkanligi, bu vazifadan qutilish maqsadida ekanligi ko'rinib turibdi. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, Ogahiyga mansab emas unga ijod bilan shug'illanish uchun erkin va tinch hayotning o'zi yetarli.

"Firdavs ul iqbol" tarixiy asari Shermuhammad Munis vafot etgach uning jiyanlari va shogirdi Ogahiy tomonidan davom ettirildi. Ogahiy "Firdavs ul iqbol" asarini 1813-yildan 1825-yilgacha bo'lgan voqealar qismini yozadi va shu tariqa ushbu tarixiy asar avlodlar mulkiga aylanadi.

Munis ishini davom etgazgan Ogahiyning yozma manbalardan foydalanish imkoniyati ko'proq bo'lgan. Ayniqsa, u xon arxivi xujjatlaridan keng foydalanganligini "Firdavs ul iqbol" dan tashqari boshqa tarixiy asarlarida ham ko'rish mumkin. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, Ogahiy 1812 – 1825-yillar voqealarining guvohi sifatida yozishi mumkin emas edi. Chunki 1809-yilda olamga kelgan Ogahiy Muhammad Rahimxon davrida hali juda yosh edi. Ogahiy Muhammad Rahimxon vafotidan 15 yil o'tgach amakisining ishini davom ettirish uchun kirishgani ma'lum. Ogahiy asosan yozma manbalardan foydalanib, og'zaki ma'lumotlarni (bu haqda faqat bitta joyda eslatilgan) qiyinchilik "taraddular bila" qo'lga kiritilganini ta'kidlagan. Bundan tashqari Ogahiy Munisdan qolib ketgan boshqa yozma manbalardan ham foydalanish mumkunligini taxmin qilsa bo'ladi. Ogahiyning "Firdavs ul iqbol"ida keltirilgan hujjatlaridan taka urug'iga berilgan ikkita yorliq, qozoqlar boshlig'idan kelgan noma, Afg'oniston va Saraxsdan kelgan xatlarning qisqa mazmuni, Buxoro yurishida ishtirok etgan boshliqlarning ro'yhati, Muhammad Rahimxon va amir Haydar o'rtalaridagi maktublarning qisqa mazmuni, xonning Buxorodagi xitoy-qipchoqlariga yuborilgan xati, amir Haydar (qalbaki) nomasining matni va hakoazolarni ajratish mumkin.

Ogahiy Munisga nisbatan ba'zi yurishlarni juz'iyot (ikir-chikir) lari bilan batafsil bayon qilgan. Lekin gap shundaki, ba'zi ahamiyatsiz voqealar to'liq bayon etilgan bo'lsa, ba'zi ahamiyati katta bo'lgan harbiy yurishlar faqat eslatib o'tilgan.

⁴⁷ Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Бағнийнинг тарихий асарлари. – Т.: Ўқитувчи, 1960. – Б.19.

Munis va Ogahiy tarix asarlarining bir xususiyati ularda keltirilgan voqealar sanalarining aniqligidir. Bu esa O'rta Osiyo tarixshunosligida ularning alohida ahamiyatiga ega ekanligidan darak beradi. Ularning sanalari hisobini hijriy yili va oylarida, arab va eroniy oylar nomi bilan, turkiy muchal orqali, hafta nomlari, namozlar vaqti bilan, xalq taqvimi (navro'z, navro'zi Xorazmshohiy, navro'zi sultoniy), zodaik- burjlar ramzlari va hokazolar bilan berishadi.

Asarda she'riy bezak (stixodekor') ham kuchli berilgan. Munis jami 2915 misradan iborat 683 sh'riy parcha beradi. Ogahiy esa 514 misradan iborat 84 she'riy parchalarni kiritgan. She'riy parchalar Mullo Sayyidoyi Buhoriy, Nizomiy, Sa'diy, Firdavsiy, Mirzo Nizom Hiraviy va oltitasi noma'lum shoirlarga tegishli. Asarda Munis va Ogahiyning ham tarix, masnaviy va qasidaları bor (21 ta fors tilidagi ta'rix- xronogrammadan 16 tasi Munisnikidir).

Mazkur asar manbashunosligida Q.Munirovning asarlari hamda "Firdavs ul iqbol"ning ilmiy-matnini tayyorlab, ingliz tilida izohlar va ko'satkichlari bilan chop etgan Y.Bregilning xizmati beqiyosdir. Biroq shuni ham afsus bilan ta'kidlash kerakki, "Firdavs ul iqbol" o'zbek tiliga to'liq chop etilmagan. Shu asarning asl egasi bo'lgan o'zbekistonlik tarixchilar, mutaxassislar va keng kitobxonlar ommasi haligacha undan foydalanish imkonidan mahrum.

Munis va Ogahiy qalamiga mansub bo'lgan "Firdavs ul iqbol" asarining to'qqista nushasi mavjud bo'lib, bu nushalar, asosan, Rossiya FA Sharqshunoslik institutida 571a (590oa), E6 VIII, raqamlari ostida, O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondida 5364/1, 821/1, 9979,7422, 275/1 raqamlari ostida hamda Xel'sinkida saqlanadi⁴⁸.

Asarning Sank-Peterburgda saqlanadigan nushalaridan 571a (590 oa) raqamdagisi mahalliy O'rta Osiyo qog'oziga, qora siyohda nasta'liq xatida ko'chirilgan. Sarlavhalar esa qizil siyohda yozilga. Nusxa Munis va Ogahiyning avtografidir.

Nusxaning ochiq qolgan varaqlari ko'p (269 a, b, 270 a, b, 290 a, b, 291 a, b, 439 a, b, 440 a, b, 442 a varaqlari). 442 varaqning b-betidan boshlab Munis

⁴⁸ Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари..... – Б.44.

vafotidan so'ng, Ogahiy tomonidan yozilgan qismi boshlanadi. Nusxa namlikdan zarar ko'rgan. Asarda hoshiyalar ko'p ko'zga tashlanadi. Ushbu nusxa 613 varaqdan iborat. O'lchovi 14,5x24,5 sm.

Mazkur fondga saqlanayotgan E6- VIII (590 a) raqamidagi ikkinchi nusxa xati qora siyoh bilan ko'chirilgan, sarlavhalari qizil siyohda bo'lib, matn ham qizil ramka ichiga olingan. Asarni ko'chiruvchi esa Mullo Nur Niyoz xalifa ibn mulla Muhammadniyoz xatib bo'lib, u bu nushani 1856 – 1857-yillarda ko'chirgan. Nusxa yaxshi saqlangan bo'lsa ham, uning 150 ta varag'i namda qolganligi seziladi. Asarning hajmi 263 varaq, o'lchovi 27-48 sm.

O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan “Firdavs ul iqbol” asarining nusxalari esa quyidagi kodikologik hususiyatlarga ega. 5364/1 raqamli nusxa nasta'liq xatida, qora siyohda ko'chirilgan. Muqovasi charmdan ishlangan bo'lib, bu Xorazm muqovasozligiga xos. Nusxa Mulla Muhammadrizo ibn Muhammadkarim devon tomonidan 27-sentabr 1904-yilda Muhammad Rahimxon II Feruz buyrug'iga ko'ra ko'chirilgan. Asar 244 varaqdan iborat. O'lchovi 29x43 sm.

Shu xazinadagi ikkinchi nusxa (821/1) to'liq holda saqlangan. Nastaliq xatida qorq siyoh bilan ko'chirilgan. Boblar va alohida ajratilgan so'zlar qizil siyohda berilgan. Matn 25 satrdan iborat bo'lib, nusxa 259 varaqni tashkil etadi. O'lchovi esa 26,5x43,5. Uni ham Mulla Muhammadrizo ibn Muhammadkarim devon 1297/1879-/80-yili ko'chirgan. “Firdavs ul iqbol” asarining mazkur xazinada yana to'rtta nushasi mavjud.

“Firdavs ul iqbol” asari manba sifatida quyidagi mavzu va muammolarni yoritishda katta ahamiyatga ega. Bular:

1. Xorazm tarixnavisligini davom ettirib, uni yangi bosqichga ko'targan.
2. Munis keng ma'noda o'zbek tilida birinchilardan bo'lib musulmon tarixshunosligini bergan.
3. Munis asari o'sha davr o'zbek tilining barcha jihatlarini bilan o'rganishda muhim manba bo'ladi.

4. Xorazmda hukmronlik qilgan shayboniylar nasablari, ular o'rtasidagi oilaviy munosabatlar.
5. O'troq va ko'chmanchi aholining davlat va ijtimoiy tuzumlariga doir ma'lumotlar.
6. O'rta Osiyoga kelib o'rtnashgan ko'chmanchi qabila va elatlarning tarixi, ularning yangi konfederatsiyalar tuzishdagi o'rni.
7. O'lkadagi etnik va etnosiyosiy jarayonlarni yoritish, turk-eron etnomadaniy jarayonlar.
8. Xorazm shayboniylari, keyinchalik qo'ng'irotlarning Eron, Orol bo'ylari, Dashti Qipchoq va Buhoro bilan aloqalari, yurish va urushalari haqida aniq ma'lumotlar.
9. Ko'chmanchilar hokimyatining sakralizatsiya masalalariga doir materiallari.
10. Avval ko'chmanchilar keyinchalik o'rtroq aholi an'anasiga asoslangan markaziy davlat-ma'muriy apparati va boshqaruvning shakillanishi, uning strategik mohiyati.
11. Ko'chmanchi turk va mo'g'il qabilalarining turkiy aholi o'rtasidagi assimilyatsiyava o'troqlashuv masalasiga doir ma'lumot.
12. Xorazm shayboniylari va qo'ng'irotlar sulolasining hokimyatni bosib olishga hududlarida hukmronlik kegitimatsiyasi masalalariga doir kuzatuvlar.
13. Xorazm shayboniylari, arabshohlar (Abulg'oziy) davrida joriy qilingan va amalda bo'lgan unvon va mansablar, ularning darajalari ahqidagi ma'lumotlar.
14. Qo'ng'irotlar davridagi harbiy tarixi, askariya va ahrbiy ishi to'g'risidagi ma'lumotlar.
15. Asarning manba sifatida Xorazm tarixnavisligiga baho berish uchun ahamiyati.
16. Munis tarixnavisligi va ijodiy faoliyatiga baho berishda asarning istoriografik mohiyatiga va struktural va infarmatsion (ma'lumot berish) chegaralarining ahamiyati.

Asarning o'zbek tilidagi nashri haqida gap ketganda, ushbu yirik hajmga ega bo'lgan asarni tayyaorlashda "Firdavs ul iqbol" asarining Yu. Bregil tomonidan ilmiy-tanqidiy nashri asos qilib olingan. Rossiya FA Sharq qo'lyozmalari instituti (sobiq Rassiya FA Sharqshunoslik instituti Spb. bo'limi) da 571 a (590 a) va VIII raqamlari ostida saqlanayotgan nusxalari va O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondida 5364/1, 821/1, 9979, 5071, 7422, 275/1 raqamlardagi nusxalardan solishtirish va matnni to'ldirish uchun foydalanildi. Tabdil matnini Yu.Bregil tomonidan tayyorlangan ilmiy-tanqidiy nashri bilan Ismoil Bekjonov solishtirgan. Matndagi arab tilidagi jumlar, oyat va hadislarni to'g'ri o'qish, tarjima etishga Nozimjon Iminjonov va Hamidulla Aminov yordam berganlar.

Ma'lumki, manbashunoslik sohasida mutahasis bo'lmagan ayrim nazaryotchilarning "tabdil" ishini (masalan, tarjimaga nisbatan) kamsituvchi o'ta noto'g'ri va noholis bir fikri haligacha ilm olamida hukm surib kelmoqda. Bunday qarashga quyidagi misollar yordamida salbiy baho berib, ilmiy haqiqatni yuzaga chiqarishga to'g'ri keladi. O'zbek klassiklari asarlarini arab, fors va qadimiy turk tilidan behabar tadqiqotchining to'laqonli o'rganishi (xoh ilmiy tadqiq etish, xoh tabdil qilish) also mumkin emas. Chunki, matndan joy olgan yuzlab so'z, iboralarning ana shu tillarda berilishi, u yoki bu asarning hozirgi o'quvchi diqqatiga butunlay yaroqsiz holatda havola etilishi bo'lib, tabdil qiluvchiga ham tarjimonlik, ham ilmiy-tadqiqotchilik vazifasi ma'suliyatini yuklaydi. Zero, gapdagi biror notanish so'z mazkur gapning o'quvchi nazaridan mavhum qolishiga olib kelib, dastlab, bu so'z uchun lug'at yozilishi, qolaversa, uning o'zbek imlosidagi ayni ko'rinishi- traskiripsiyasi yaratilishi lozim bo'ladi.

Ayniqsa, arab tilida yozilgan manbalarda xattoki zeru-zabarlarini noto'g'ri tarjimasi natijasida ham matn umuman o'zgarib ketishi mumkin yoki bu so'z hech qanday ma'no anglatmay qolishi ham mumkin.

Demak, tabdilchi ayni paytda ham tarjimon, ham lug'at tuzuvchi, bo'lib, tarjimaga qaraganda ikki baravar ko'proq ishni amalgam oshirmoqda. Tabiiyki, matndagi eski turkiy so'zlarning ham bugungi tilimizda ancha farqli ekanini, shuningdek, ularning o'sha davr xattotlari tomonidan arab imlosida yana ham

o'ziga xos shaklda ifoda etilgani tabdil qiluvchi zimmasiga uchinchi bir vazifani ham yuklaydi. Ko'rinadiki, tabdil ishi oson bo'lmay, uni ado etuvchi bir paytning o'zida tarjimonlik, lug'atnavislik va eski yozuv xususiyatlarini o'rganuvchi olim sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bu esa asarning o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida mutlaqa amalgam oshmay, tarjimon xorijiy tildagi gapni matndan uzoqlashmagan (ammo har holda asl matn quliga aylanmagan ozod) holda, ish ko'raveradi. Munis, Ogahiy kabi o'ta bilimdon so'z san'atkorlarining asarlari tabdili esa ishni yana ham mukammallashtiradi. Chunki, tabdil qiluvchi uchun bu buyuk adib va shoirlarning so'z san'ati oldidagi mas'uliyati juda yuksak bo'lib, ular asarlarida kelgan arabcha so'zlarning odatdagidan tashqari, aniqrog'i, arab, gramatikasidagi "Bob"lar qonuniyatidan chiqib, qoidalarini erkin qo'llagani, forscha so'zlarning esa ko'pincha arxaik shakllarda havola etilgani va gohida mualliflar tomonidan forscha, o'zbekcha so'zlarning arabiylashtirib berilgani singari holatlar ishlash tabdilcha faoliyatini bir necha bor yuksakroq o'ringa ko'taradi.

"Firdavs ul iqbol" asari tarixiy asar bo'lishiga qaramay Munis va Ogahiy singari so'z ustalari tili bilan o'sha davr an'anasi muvofiq holda yozilgan asarda ko'plab she'riy parchalar hamda arabcha, forscha, so'zlar iboralar, maqollar keltirib o'tilgan shu sababli asar tilini tyshinish murakablik tug'tiradi.

"Firdavs ul iqbol" asarini Bregil tomonidan yozilgan nushasi va 2010-yildagi yangi nashrini solishtirganimizda yangi nashrda Bregil tomonidan yo'l qo'yilgan chalkashliklarni to'g'rilab o'tilganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkunki, "Firdavs ul iqbol" asarini o'rganish davomida Xorazm tarixini aniq tarixiy voqealar yordamida o'rganib tadqiq qilishimiz mumkin. Ammo bu jarayonda tadqiqotchi tomonidan yuksak darajada bilim, tajriba talab etildi va shu bilan birga tadqiqotchi ham tarixchi, ham tarjimon bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi, shundagina ko'zlanagan maqsadga erishiladi.

II bob bo'yicha xulosa. "Firdavs ul iqbol" tarixiy asari ikki muallif, ya'ni Munis va Ogahiy qalamiga mansubdir. Bularning ikkalasi ham qadimiy Xorazm diyorining farzandi hisoblanadi. Asar Xorazmda turkiy tilda yozilgan. "Firdavs

ul iqbol” asarining tarix ilmidagi ahamiyati shundan iboratki, unda – Xorazmning qadimgi davridan boshlab, Muhammad Rahimxon I (1806 – 1825 yy.) davrigacha bo’lgan siyosiy tarixi xronologik tartibda bayon qilingan. “Firdavs ul iqbol” tarixiy asari Shermuhammad Munis tomonidan boshlangan va Munis vafot etgach, uning jiyani va shogirdi Ogahiy tomonidan davom ettirilgan. Ogahiy “Firdavs ul iqbol” asarini 1813-yildan 1825-yilgacha bo’lgan voqealar qismini yozadi va shu tariqa ushbu tarixiy asar avlodlar mulkiga aylanadi. Munis va Ogahiy qalamiga mansub bo’lgan “Firdavs ul iqbol” asarining to’qqizta nusxasi mavjud bo’lib, bu nusxalar, asosan, Rossiya FA Sharqshunoslik institutida 571 a (590 oa), E6 VIII, raqamlari ostida, O’zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondida 5364/1, 821/1, 9979,7422, 275/1 raqamlari ostida hamda Xel’sinkida saqlanadi.

Ogahiyning “Firdavs ul iqbol” tarixiy asaridan tashqari “Riyoziy ud davlat”, “Zubdat ut tavorix”, “Jomi’ ul voqeti suloniy”, “Gulshani davlat”, “Shohidi iqbol” kabi ko’plab tarixiy asarlari mavjud. Shuningdek, Ogahiy tomonidan bir qator tarixiy asarlar o’zbek tiliga tarjima qilingan va Xiva xonligida ilm-fan taraqqiyotiga katta xissa qo’shgan.

III Bob. Ogahiy qalamiga mansub tarixiy asarlar va Bayoniyni ilmiy me'rosi

3.1. Xorazm tarixini yoritishga qaratilgan Ogahiy qalamiga mansub tarixiy asarlarning yozilishi va ularning o'rganilishi tarixi

Ogahiyning “Firdavs ul iqbol” tarixiy asaridan tashqari “Riyozi ud davlat”, “Zubdat ut tavorix”, “Jomi' ul voqetii suloniy”, “Gulshani davlat”, “Shohidi iqbol” kabi ko'plab tarixiy asarlari mavjud. Shuningdek, Ogahiy tomonidan bir qator tarixiy asarlar tarjima o'zbek tiliga qilingan.

Muhammad Rizo Ogahiy XIX asrda Xorazmda yashagan va ijod etgan atoqli tarixchi, talantli shoir va atirjimonidir. Ogahiyning hayoti, ijodi va boy ilmiy haligacha atirxchilarimiz va adabiyotchilarimiz tomonidan yetarli darajada o'rganilgan emas.

O'rta Osiyo jumladan, O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganishda va yoritishda Ogahiy tomonidan yozilgan tarixiy asarlar va o'zbek tiliga qilingan tarjimalarning ahamiyati nihoyatda katta.

Ogahiy tarixchi sifatida O'rta Osiyo, shuningdek, O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganishda boy ma'lumot beruvchi bir necha tarixiy asarlar ijod etgan. Shoir sifatida u yuksak badiiy mahorat bilan yozilgan she'rlarni o'z ichiga olivchi mukammal devon tuzib qoldirgan. Tarjimon sifatida ko'pkina sharq tarixchi va adiblarining tarixiy, adabiy asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi. Ogahiyning bizgacha yetib kilgan g'azal, muxammas, masnaviy, ruboiy, qasidalar ham ko'p bo'lib o'zbek adabiyotining yanada boyitishga xizmat qiladi.

Ogahiy devonining muqaddimasida o'zining hayoti va ijodi haqida quyidagilarni yozib qoldirgan: “Maqsadsizlik maydonida avora, malolat va malomatga uchragan Muhammad Rizo al mulaqqab bil Ogahiy o'z boshidan o'tgan sarguzashtlarimni va ahvolimni quyidagicha bayon etaman. Mening ota bobolarim Xorazm sultonlarining amirlaridan va yuz nomli o'zbek toifasidanmiroblik mansabiga yetishganlardandir.

Yoshlik chog'imdan boshlab ilm lishga qiziqdim. Madrasada o'qidim. Olimlarning, shoirlarning xizmatida va suhbatid bo'lishni o'zimga lozim bidim.

Qadam aylabon ilm yo'lida bosh
Hunar kasbida aylar erdim talosh"⁴⁹.

Bu sher orqali biz Ogahiyning she'riyatga juda ham qiziqqanligini ko'ramiz. Ogahiy "Ta'vazu-l-oshiqin" ("Oshiqlar tumori") nazmiy devoni bilan mumtoz she'riyatda hazrat Navoiyning munosib izdoshi ekanini isbotladi.

Ogahiy o'z ijodi davomida ko'plab asarlarning tarjimalari bilan ham shug'illangan. U mashhur shoir Muslihiddin Sa'diy Sheroziyning 690 (1291) "Guliston" nomli asarini, buyuk tojik shoiri Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayxo" dostonini (1825 (1868 – 1869-yili), Ozarbayjon adabiyotining kalassigi Nizomiy Ganjaviyning mashhur "Xamsa" sedan "Haft paykar" dostonini (nasr bilan) o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Shuningdek, Xiloliyning "Shoh va Gado" nomli asarini ham o'zbek tiliga Ogahiy tarjima etgan. Bu asarlar Ogahiyning adabiy asarlarining tarjimasi.

Ogahiyning tarixga qiziqishi va Xorazm shohlarining tarixini yozishga bo'lgan intilishi uning juda ko'plab tarixiy asarlarni o'rgaishiga va ularni tarjima qilishiga sabab bo'lgan. Ogahiy Hindiston podshohlaridan Muhammadshoh Avrangzeb zamonida yashagan olim Muhammad Vorisning "Zubdatul hikoyat" nomli asarini fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan⁵⁰.

Bu asar nasihatnoma shaklida yozilgan. Asarning Ogahiy tomonidan o'zbek tiliga qilingan tarjima nusxasi O'zbekiston FA da Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Shuningdek, Ogahiy Sharqda mashhur "Nasihatnoma" yoki "Qobusnoma" deb ataluvchi asarni ham o'zbek tiliga tarjima qilgan. Bu asr jami 44 bobdan iborat asarda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan afarizimlar juda ham ko'p qo'llanilgan. Asarning Ogahiy tomonidan o'zbek tiliga qilingan tarjima nusxasi O'zbekiston FA da Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Shuningdek, Ogahiy Kaykovus tiliga ham tarjima qilingan.

⁴⁹ Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Zubdatu-t-tavorix. – T.: O'zbekiston, 2009. – B. 3.

⁵⁰ Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Zubdat ut-tavorix. – T.: O'zbekiston, 2009. – B.3.

Ogahiy Imomiddin G'ijduvoniyning "Miftoxut tolibin" nomli asarini fors tilidan o'zbek tiliga tarjima etgan. Ogahiy bergan ma'lumotga ko'ra, asarni 44 kunda tarjima qilgan⁵¹.

Ali Koshifiyning "Ahloqiy Muhsiniy" nomli asarini ham o'zbek tiliga tarjima qilgan. Asar didaktik xarakterga ega bo'lgan hikoylardan iborat. Asarning Ogahiy tomonidan o'zbek tiliga qilingan bir necha nusxasi O'zbekiston FA da Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Ogahiy Muhammad Mahdiy Astirobodiy Muhammad Nosir tomonidan yozilgan "Trixi jhonkushoi Nodiriy" yoki "Tarixi Nodiriy" nomli asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Bu asar Nodirshohning (1148 – 1160/1736 – 1747) hukmronlik qilgan davridagi voqealarni o'z ichiga oladi.

Tarjimaning ikkala nusxasi ham Sharqshunoslim institutining qo'lyozmalar fondida mavjud.

Shuningdek, Ogahiy Mirxondning mashhur "Ravzatus safo" asarining bir necha tomini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Bu asarni I kitobni va II kitobining ikkinchi yarmini Munis tarjima qilgan⁵².

Munisning o'limidan so'ng uning ishini Ogahiy davom ettirgan va "Ravzatus safo" asarining II yarimini tarjima qilgan. Mazkur asarning III kitobi ham Ogahiy tomonidan tarjima etilgan bu tarjimalarining har ikkisi ham O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutining sharq qo'lyozmalar fondida saqlanadi.

Mazkur asarning yettinchi tomi ham Ogahiy tomonidan tarjima qilingan deyishimizga asos yetarli, chunki hozirda O'zbekiston FA sharq qo'lyozmalar fondida bu asar tarjimasining 6757, 827- nomerli nusxalarining avvaligi beti qizil siyoh bilan noma'lum shaxs tomonidan kitobning nomi, muallifi, ko'chiruvchining nomi va ko'chirilgan yili keltirilgan hamda "Mutarjim Muhammad Rizo mirob al mulaqqab ba Ogahiy Xorazmiy" deb yozib qo'yilgan. Shunga qaraganda, 7-tom ham Ogahiy tarafidan tarjima qilingan, deb aytish mumkin⁵³.

⁵¹ Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари.....– Б. 29-30.

⁵²Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари.....– Б. 29-30.

⁵³ Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари.....– Б. 30.

Yuqorida nomlari keltirilgan asarlardan tashqari Ogahiy quyidagi asarlarni ham tarjima etgan: Jomiyning “Guliston”, “Ravzatus safoyi” va “Yusuf va Zulayxo”, Sa’diyning “Bahoriston”, Nosiriyning “Birinchi daftar”, Dalolilal hayrat sharhi” kim rum turkisidan chig’atoy tiliga tarjima etilgan. Shuningdek, “Tazkirai Muqumxoniy”, “Taboqati Akbarshohiy”, Nizomiyning “Haft paykari”, Xisraviyning “Hasht behisht” va Xiloliyning “Shoh va Gado” asrlarini ham tarjima qilgan.

Ogahiy tarixiy asarlar tarjimasi orqali biz tarixchilar uchun qanchalik ko’p tarixiy adabiyotlarni o’qish imkoniyatini yengilashtiribgina qolmay, o’zining Xorazm tarixiga bag’ishlangan asarlari orqali ham ya’nada tarixni biz yosh avlodgacha real xolatda yetib kelishida o’z xissasini qo’shdi.

Ogahiy o’zi yashab turgan davr tarixini aks ettiruvchi o’zida Xorazmning XIX asri davri tarixini aks ettiruvchi beshta memuar qissa yozdi. Ollohqulixon hukmronligi davri (1825 – 1843) to’g’risidagi “Riyozi-d-davla”, Rahimqulixon saltanati voqealari (1843 – 1846) tasvirlangan “Zubdatu-t-tavorix”, Muhammadaminxon (1846 – 1854), Sayyid Abdullahon (1854) va Qutlumurodxon (1855) hukmronlik yillaridagi murakkab va ziddiyatli hodisalar haqidagi “Jome’u-l-voqeoti sultoniy”, Sayid Muhammad zamonga (1856 – 1865) doir “Gulshani davlat” hamda Muhammad Rahimxoni soniy – Feruz davri (1865 – 1910) vasf etilgan “Shohid ul-iqbol” kabi asarlar shular jumlasidandir. Bular qatoriga Shermuhammad Munis yoza boshlagan “Firdavs ul- iqbol” ni davom ettirib, badiy-tarixiy nasrning mukammal namunasi sifatida yakunladi⁵⁴.

Bu asarlar o’ziga xos kamchiliklardan xoli bo’lmsada, xronologik jihatdan davrlar orasida tanaffussiz Xorazmninng 1825 – 1910-yillar tarixi bayon etilgan.

Ogahiyning tarixiy asarlarini o’rganar ekanmiz, ularning har biriga qisqacha to’htalib o’tishni maqul topdik. Dastlabki asar Olloqulixon hukmronligi davri (1825 – 1843) to’g’risidagi “Riyozi-d-davla” tarixiy asarini olib qaraydigan bo’lsak, asar Xorazmning 1825-yildan 1842-yilgacha bo’lgan davr tarixini aks ettiradi.

⁵⁴ Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари..... – Б. 30-33.

Asar o'sha davr an'anasiga muvofiq hamd va na't bilan boshlanadi. Undan so'ng o'zi haqida ma'lumot beradiva tarix ilmiga ta'rif berib, Olloqulixonning maqtaydi. Keyin Olloqulixonning tug'ulishida to o'lgunigacha bo'lgan Xorazm tarixini yozadi. Asarning muqaddimasi muallif o'zi haqida yozib o'tadi: "Erniyozbekning o'g'li Muhammad Rizo Mirob, taxallusim Ogahiy, o'z ahvolimni quyidagicha bayon etaman. Yoshlik chog'larimda boshimga har xil va turli-tuman tashvishlar tushdi. Har tarafdin boshimga balo toshi yog'ildi. Hamisha ko'nglimda notinchlik va ta'bimda xavf hukm surara edi".

Nazm:

Gahi yuz qo'yib boshimga qayg'u,
Ko'rinib ko'zima olam qorong'u.
Bo'lib g'am xayli gohi qosida jon,
Yiqilib boshima gardun tovon.

Asarda Ogahiy o'zi haqida ma'lumot bergach, keyin asarni yozilishi haqida ma'lumot berib o'tadi: "Bu asarni yozishga boshladim. Asarni yozish davomida menga Muhammad Yoqub mehtar yordam berdi. Bu asarni "Riyo'zud davla" nomi bilan atadim"⁵⁵.

Asarning bir necha nusxalari mavjud bo'lib, bu nusxalar Rossiya FA Sharqshunoslik bo'limida va O'zbekiston FA Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik intituti qo'lyozmalar fondida saqlanadi. Uning 821/II nomerli nushasi qora siyohda yahshi nasta'liq xati bilan Qo'qon qog'oziga yozilgan bo'lib, har bir beti 25 qatordan iborat. Sarlavxalar va ba'zi kishilarning nomlari qizil siyoh bilan yozilgan.

Asarning boshi "Jahon bog'lig' mahomining nigini intizomi va hukmronlig' nizomining sar rishtai ihtitomi" so'zlari bilan boshlanib, "sanai 1297 (1873 – 1880)"-so'zlari bilan tamom bo'ladi. Asarning hajmi 117 varaqdan iborat (269 b-385b) iborat, o'lchovi 26,5x43,5 sm dir. Qo'lyozmaning kim tomonidan ko'chirilgani ma'lum emas.

⁵⁵ Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари.....– Б. 43.

Bu asarning huddi shu fondda saqlanayotgan ikkinchi nusxasi to'liq yaxshi saqlangan. Qora siyohda nastaliq hati bilan Qo'qon qog'oziga yozilgan, har bir beti 25 qatordan iborat. Sarlavxalar qizil siyoh bilan yozilgan. Qo'lyozmada ko'chiruvchining nomi va ko'chirilgan yili ko'rsatilmagan. Unig xatini shu asar bilan bir muqovada bo'lgan "Firdavs ul iqbol" ning xati bilan solishtirib ko'rilganda, 344-varaqning betigacha Muhammad Karim devonning o'g'li domla Muhammad Rizo Ohund tomonidan ko'chirilgan degan xulosaga kelish mumkun. 345 varaqdan boshlab xat ozgina o'zgaradi. Shu yerdan boshlab, to oxirigacha asar boshqa bir shahs tomonidan ko'chirilgan bo'lsa kerak⁵⁶.

Rossiya FA da saqlanayotgan ikkita nusxa ham huddi shu nushalarga o'xshaydi va bir xil so'z bilan boshlanib bir xil so'z bilan tugatilgan. Ulardan E nomerli nusxa qora siyohda nasta'liq xati bilan Qo'qon qog'oziga yozilgan. Sarlavxalar qizil siyoh bilan yozilgan bo'lib, tekst qizil siyohda ishlangan ramka ichiga olingan. Asarning ba'zi bir varoqlari qayta tiklangan. Qo'lyozmada ko'chiruvchining nomi va ko'chirilgan yili ko'rsatilmaydi. Asar 113 (269b – 381b) varaqdan iborat, o'lchovi 27-48 sm dir⁵⁷.

Ikkinchi D 123 (590) nomerli nusxa ham yuqoridagiga o'xshash nasta'liq xati bilan qora siyohda Qo'qon qog'oziga yozilgan; sarlavhalar qizil siyoh bilan yozilgan. Asar ko'k muqovada. Asarning har bir beti 19 satrdan iborat. Qo'lyozmada ko'chiruvchining ismi va ko'chirilgan yilio ko'rsatilmagan. Hajmi 256 varaqdan iborat, o'lchovi 21x33 sm dir.

Yana bir Xorazm tarixiga bag'ishlab yozilgan tarixiy asarlardan biri "Zubdatut tavorix" asaridir. Asar 1262 (1845 – 1846)-yili yozilgan bo'lib, Xorazm tarixining 1843 yildan 1846 yilgacha bo'lgan tarixiy voqealarini o'z ichiga oladi.

Toshkentda asarning ikkita to'liq nushasi saqlanadi. Qo'lyozmaning 821/III nomerli nushasi qora siyohda nastaliq xati bilan Qo'qon qog'oziga yozilgan. Sarlavhalar qizil siyoh bilan yozilgan.

⁵⁶ Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари.....– Б. 43.

⁵⁷ Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари.....– Б. 43.

Asar “Siposi vofir tuhfasi ul sultoni azamatnishop onstong’a nisordururkim, ma’murai kavnu makaon aning xitti mamalakatig’a doxil va sitouishi mutakosir hadyasi ul podshohi vahdatdastgoh dargoxig’a visol, salotini sohibiiqtidor aning moidai ni’aming soyili luqmaxo’ri, sipexri axzar bir xaymayi hazrodurur maydoni qudratida va xurshidi anvar bir shamsayi adnodurur ayvoni hikmatida” so’zlari bilan boshlanadi.

Ammo kitobni tugatilish sanasi to’g’risida Q.Munirovning “Munis, Ogahiy, Byoniyning tarixiy asarlari” (1960) va filologiya fanlar doktori N.Jabborov (2009) tomonidan berilgan ma’lumotlarda har ikkisinin kitobida bir oz chalkashlik bor. Q.Munirovda “Tammat ul kitob. Sanai 1279 (1879 – 1880). Roqimi in kitob Mulla Muhammad Rizo ibn Muhammad Karim devon marhumiy” jumlasini bilan tamom bo’ladi. N.Jabborovda esa “Tamutul-kitob bi’avnin maliki-l-Vahhob.1298 sana. Roqimi in kitob Mulla Muhammad Rizo ibn Muhammad Karim devon marhumiy, g’afara Allohu zunubahahumo va satara uyubahuma” so’zlari bilan tugatiladi. Kitobning tugatilgan yillarning har ikkisi 9 yil farq bor⁵⁸.

Bizgacha “Zubdatu-t-tavorix” asarining beshta qo’lyozma nusxasi yetib kelgan bo’lib, ulardan biri Rossiya FA Sankt-Peterburg Sharq qo’lyozmalari institutida (Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo’limida) E 6 – 590 ob) ashyo raqami ostida, yana biri Sankt-Peterburgdagi Rossiya Milliy kutubxonasida (sobiq S.Shedrin nomidagi Davlat xalq kutubxonasida) t.n.s.- 22 ashyo raqami bilan, uchta O’zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida (821/111,5364/111, Hamid Sulaymonov fondi, 275,11) saqlanadi.

Jumladan “Zubdatu-t-tavorix” ning ikki qismi (maqol) dan tarkib topgani, birinchi bo’limda Rahimqulixonning tavaludidan taxtga chiqquniga qadar sodir bo’lgan hodisalar, ikkinchi bo’limda esa uning hukmronlik davri voqealari qalamga olingani qayd etilgan⁵⁹.

⁵⁸ Muhammad Rizo Erniyozbek o’g’li Ogahiy. Zubdat ut-tavorix. – T.: O’zbekiston, 2009. – B.4-5.

⁵⁹ Muhammad Rizo Erniyozbek o’g’li Ogahiy. Zubdat ut-tavorix..... – B.5.

Asar saj'li nasrda ijod etilgan. Unda Xiva hukmdori Rahimqulixonning ezgu fazilatlari yozilgan. Shuningdek, asarda Xiva hukmdorlarining ma'rifatli bo'lganligi va adabiyot va san'at, ilmu hunar rivojiga alohida e'tibor berganini ta'kidlab o'tiladi. Ta'kidlash kerakki, bu singari tavsiflash tarixiy haqiqatga to'liq munosib bo'lmasligi ham mumkin.

Ogahiy qalamiga mansub bo'lgan uchinchi tarixiy asar "Jomi'ul voqeoti sultoni" bo'li, u, 1846-yildan 1855-yilgacha Xorazmda bo'lgan tarixiy voqealarni o'z ichiga oladi.

Bu tarixiy asarni Ogahiy "Zubdatu-t-tavorix" asarini tamomlagach yozishni boshlagan. Bu haqda uning o'zi quyidagicha yozadi: "Bu kitobning yozuvchisi Erniyozbekning o'g'li Muhammad Rizo Mirob, laqabim Ogahiy, quyidagilarni bayon etaman. Muhammad Aminxon davlat tepasiga kelgan vaqtda, Rahimqulixonning Xorazmda hukmronlik qilgan vaqtidagi bo'lgan tarixiy voqealarni yozar edim. Uning tezlik bilan tamom etib, Muhammad Aminxonga taqdim etdim. So'ngra bu kitobimni yozishga boshladim va uni "Jomi'ul voqeoti sultoni" deb atadim".

Asarning bir nusxasi O'zbekiston FA Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda. Bu asar qora siyohda o'rtacha nasta'liq xati bilan Qo'qon qog'oziga yozilgan bo'lib, har bir beti 17 qatordan iborat. Sarlavhalar qizil siyoh bilan yozilgan. Ba'zi bir betlarning hoshiyasiga har xil to'ldirishlar kiritilgan. Ko'p joylarda noaniq va hato yozilgan so'zlar o'chirilib, to'g'rilab yozilgan. 204 a betining yarmi va 204 b betlariga hech narsa yozilmagan.

Asar "Hamd va sitoyishi ubuduyat va purustish ul podshohi" so'zlari bilan boshlanib, oxiri:

Nazm:

Kel ey dil, tajarrud shior aylagil,
O'zinga qanoatni yor aylagil.
Ki to ko'rmagaysan dami dahr aro,
Jahonu falakdin jafou inod.

So'zim ush bu erdiki, qildim tamom,
Qabul atylayu qilma rad assalom".

so'zlari bilan tamom bo'ladi.

Qo'lyozmada ko'chiruvchining nomi va ko'hirilgan yili ko'rsatilmagan. Asarning hajmi 250 varaqdan iborat, o'lchovi 15x25 sm dir. Bu nusxa yaxshi saqlanmaganli tufayli ancha uringan.

Asar 1273-yili (1856 – 1857) yozilgan bo'lib, mulla Ollobergan Usta Qilich zargar tomonidan ko'chirilgan. Bu asarniung oxirida Ogahiy tomonidan yozilgan Abdulla va Qutlug'murodlar davridagi voqealarni bayon etuvchi ilovalar ham bor.

Ogahiyning to'rtinchi asari "Jomi'ul voqeoti sultoni"dir. Asarda Xorazm tarixining 1856 – 1865-yilgacha bo'lgan voqealar o'rin olgan.

Muqaddimada asarning yozilish tarixi haqida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: "Bu kitobni, o'quvchilarga va mutolaa etuvchilarga ma'lum bo'sinki, men, Erniyozbekning o'g'li Muhammad Rizo mirob, laqabim Ogahiy, ko'p vaqtlardan beri Xorazm tarixini yozish bilan o'z qatorlarim ichida xursand edim. Sayid Muhammad davrida bu asarimni yozishga boshladim va uni "Gulshani davlat"nomi bilan atadim"⁶⁰.

Asar qora siyohda yahshi nasta'liq xati bilan Qo'qon qog'oziga yozilgan bo'lib, har bir beti 25 qatordan iborat. Sarlavhalar qizil siyoh bilan yozilgan. Asarning avvali: "Siposi beintimos va sitoyishi beindiros"... so'zlari bilan boshlanib, oxiri: " Ushbu musammo "Gulshani davlat" g'a kim... Sayid Muhammadxonning ... voqeotig'a mushtamildurkim, tarixiy hijriy bir ming uch yuz dag'i yigirma birda muvofiqi tovushqon yili mohi rabi'as soniyniyning 14 da chaharshanba kuni ixtitom topdi", so'zlari bilan yakunlanadi.

Asar 1321 (1903 – 1904)-yilda ko'chirilgan, lekin qo'lyozmada ko'chiruvchining nomi keltirilmagan. Asarning hajmi 280 varaq. O'lchovi 15x23,5 sm.

Bu asardan ikki nusxa Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik bo'liminig qo'lyozmalar fondida saqlanadi. Birinchi E6 nomerli nusxa qora

⁶⁰ Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари.....– Б. 48.

siyohda nasta'liq xati bilan Qo'qon qog'oziga yozilgan. Sarlavhalar qizil siyoh bilan yozilgan. Tekst qizil siyohda qilingan ramka ichiga olingan. Asarning hajmi 78 varaqdan (525b-602a) iborat. O'lchovi 27x48 sm. Qo'lyozmada ko'chiruvchining nomi, ko'chirilgan yili ko'rsatilmagan, asar xatiga, qog'oziga va boshqa alomatalariga qaraganda, XIX asarning ikkinchi yarmida ko'chirilgan deb taxmion qilish mumkin.

Ikkkinchi, 1891 nomerli nusha ham qora siyohda nasta'liq xati bilan chiroyli qilib, yuqori sifatli har xil rangdagi rus qog'oziga yozilgan. Sarlavhalar qizil siyoh bilan yozilgan. Nusxa to'liq bo'lib, qora charm muqovada. Bu nusxa 1324 (1906 – 1907)-yilda domla Muhammad Rahim xo'ja valadi domla Ibrohimxo'ja Xorazmiy tomonidan ko'chirilgan. Asarning hajmi 280 varaqdan iborat, o'lchovi 12,5x20 sm dir. Qo'lyozmaning yuqoridagi ikkala nusxasi ham Toshkent nusxasi bilan o'xshash.

Ogahiyning Xorazm tarixiga oid asarlarining oxirgisi “Gulshani davlat”dan keyin yozilgan va Xorazmda 1872-yilgacha bo'lgan voqealarni bayon etuvchi “Shohidi iqbol” nomli asardir. Uning dunyodagi yagona nusxasi Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida saqlanadi.

Bu nusha qora siyohda nasta'liq xati bilan yozilgan. Har bir beti 15 qatordan iborat. Qizil charm muqovada. Ko'chiruvchining ismi va ko'chirilgan yili ko'rsatilmagan. Asar 1872-yilgi voqealarning tasviri bilan tamom bo'ladi.

Ogahiy o'z asarining muqaddimasida shunday yozadi: “Men, Muhammad Rizo, laqabim Ogahiy, yoshligimdan to shu vaqtgacha Xorazmda yashadim. Bu yerda hukmronlik qilgan podshohlarning tarixlarini yozdim. Muhammad Rahim II (1865 – 1910) vaqtida bu asarni yozishga boshladim va unga “Shohidi iqbol” deb nom qo'ydim”.

Muallifning so'zidan ko'rinib turibdiki asar Muhammad Rahimxonning tarixi va uning hukmronlik davri bilan bog'liq. Asarning hajmi 227 varaqdan iborat bo'lib, o'lchovi 14x25 sm dir.

Ogahiy o'zining ustози Munis tomonidan boshlangan Xorazm tarixini batafsil yoritdi, yanada aniqrog' aytadigan bo'lsak, Ogahiy Xorazmning 1813-

yildan 1872-yilgacha bo'lgan tarixini uzilishlarsiz yozib tugatdi. Xorazmda hukmronlik qilgan sulolar tarixini bir biriga bog'lagan holda davom ettirdi. Ogahiyning bizga qoldirgan merosining tarixiy voqealar aks etgan qismi uning “Firdavs ul iqbol” tarixiy asaridan tashqari “Riyoziy ud davlat”, “Zubdat ut tavorix”, “Jomi’ul voqeti suloniy”, “Gulshani davlat”, “Shohidi iqbol” kabi asarlarida aks etdi.

Shu o'rinda rus olimi akademik V.V.Bartoldning Ogahiy asarlariga bergan tarifini keltirib o'tishni o'rinli deb o'ylaymiz: “Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan adabiy tarixiy asarlar qanchalik kamchilikka ega bo'lmasinlar, tarixiy voqealarni bayon etishi va ularda keltirilgan faktik materiallarning ko'pligi jihatidan bizgacha yetib kelgan Qo'qon va Buhora xonliklari tarixi bo'yicha yozilgan hamma asarlarni o'zidan ancha orqada qoldiradi”⁶¹ deb yozib qoldirgan edi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bu asarlar bir qator kamchiliklarga ega bo'lmasin bizga Xorazm tarixining katta bir davrini o'rganishimizda tarixiy manba sifatida o'z o'rniga ega hisoblanadi. Undagi “kamchiliklar”ni o'sha zamon nuqtai nazaridan baholasak maqsadga muvofiq bo'lar edi, chunki ular o'z davri tarixini va mana shu davrda hukmronlik qilayotgan hukmdorlar tarixi bilan bog'liq jarayonlarni o'z asarlarida aks ettirganlar. Shunday holatlar bo'lganki, ularning ijod bilan shug'ullanish jarayonlarida rad etib bo'lmaydigan takliflar bo'lib turgan. Masalan, Munisning “Firdavs ul iqbol” asarining tamom qilmasdan unga “Ravzat us safo” asarining tarjimasi bilan shug'ullanish taklifi bildiriladi. Albatta bu jarayonda ijodkorning ham ijodida, hamda uning ichki bir qobilyat va his tuyg'ularida o'zgarishlar sodir bo'ladi va bu o'zgarishlar uning ijodiga albatta o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

3.2. Bayoniyning ilmiy merosi

Bayoniyning adabiy ilmiy merosini ilmiy tadqiq etish asosan 1958-yilda nashr etilgan O'zR FA ning “Aspirantlar to'plami” dagi: M.Yo'ldashevning

⁶¹ Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари.....— Б. 48.

“Xorazm tarixidan qimmatli manba” va Munirovning “Bayoniy” sarlavhali maqolalari bilan boshlangan. 1960-yili nashr qilingan O‘zR FAning “O‘zbek adabiyoti ” IV tomligining IV–I kitobida Bayoniy adabiy merosidan namunalar berilgan. Shuningdek, shu yillarida nashr etilgan Q.Munirovning “Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari” monografiyasida ham Bayoniyning adabiy merosi haqida ma’lumot berib o‘tilgan.

Muhammad Yusuf Bayoniy 1858-yili Xiva xonlaridan biri 1804 – 1806-yillari hukmronlik qilgan Eltuzarxonning o‘g‘li Bobojonbek Olloberdi To‘ra oilasida tug‘ilgan. U yoshligidan saroy muhitidagi maktab va madrasada zamonasining zabardast olim muallimlaridan saboq olib ulg‘ayadi. Bayoniy saroyda bo‘lib turadigan she‘rxonlik kechalarining doimiy ishtirokchisi ekanligini o‘zining asarlarida ham keltirib o‘tadi. Bayoniy ayniqsa, Ogahiy ijodi bilan qiziqadi va uning g‘azallariga tashabular yozadi. Bayoniy dininiy va dunyoviy ilmlarni chuqur o‘rganadi. U xatto tibbiyot ilmi bilan ham shug‘illangan. Ogahiy Bayoniyning tibbiyot ilmiga qiziqishini quyidagicha izohlab o‘tadi: “Bayoniy aqilli, zaki ta‘b bo‘lgani uchun, yoshlikdan akasi Yahshimurodbekdan tib ilmini ta‘lim olib, hiyla tibga mohir bo‘ladi”⁶².

Bayoniyning bizgacha birgina devoni va ikkita Xorazm tarixiga doir tarixiy asarlari yetib kelgan.

Bayoniy o‘z zamonasining atoqli xattotlaridan, muzikachilaridan biri bo‘lgan. U suls, kufiy, rayhoni, shikasta va boshqa xil xatlarni yaxshi bilgan. Xozirga qadar Bayoniyni saroyda biron-bir mansabda ishlagani aniq emas. Muhammad Yusuf Bayoniy 1923-yilda Xivada vafot etgan.

Bayoniy ham o‘ziga ustoz deb bilgan Munisva Ogahiy izidan bordi. Bayoniy o‘zining tarixiy asarlarning tarjimalarini va “Shajarai Xorazmshohiy” va “Xorazm tarixi” nomli tarixiy-memuar asarlarini yozib qoldirdi⁶³.

Bayoniy o‘zining tarixiy memuar asarlarini yozish bilan bir qatorda turli tillarda yozilgan tarixiy asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Shunday tarjima

⁶² Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Бағнийнинг тарихий асарлари.....– Б. 31.

⁶³ Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Бағнийнинг тарихий асарлари.....– Б. 33.

asarlaridan biri Mavlono Darvesh Ahmad tomonidan 1092 (1618)-yili arab tilida yozilgan umumiy tarixga oid “Sahoiful axbor” nomli asarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. “Sahoiful axbor” kitobi arab, ajam, turk, rum, farang, hind, arman va umuman hamma mamalakatlardagi bo‘lgan tarixiy voqealarni o‘z ichiga oluvchi bir asar edi. Undan tashqari, bu asarda hokimlar, avliyolar va boshqalar haqida ham ma’lumotlar bor. Bu asar 1132 (1720)-yili Nadim tahalusli bir odam tomonidan arab tilidan usmonli tiliga tarjima qilingan. Bayoniy uni 1318 (1900 – 1901)-yili o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Asar uch tomdan iborat. Bu asarning ikkita o‘zbekcha nusxasi mavjud.

Bayoniy shuningdek, Ali Muhammad al Hiraviy, tahallusi Binoiy (918 (1512) ning “Shayboniynoma” asarini ham 1333 (1914–1915)-yili o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Tarjimon tomonidan bu to‘g‘rida, muqaddimada quyidagi ma’lumotlar keltiriladi: “Men, Muhammad Yusuf, laqabim Bayoniy, Mavlono Binoiyning “Shayboniynoma” asarini o‘zbek tiliga tarjima etdim. Bu asar Shayboniynon davrida bo‘lgan tarixiy voqealarni o‘z ichiga oladi”.

Bu qo‘lyozma Bayoniyning o‘z qo‘li bilan yozilgan bo‘lib, juda ishonchli, qimmatli va yagona nushadir. Bayoniyning haqiqatda ham avtograf ekanligini isbot qilish uchun quyidagi dalillarni keltirish yetarli: “Bu kitob “Shayboniynoma” ning tarjimasi, tahrir va tasvidining iftitohi Muhammad Yusuf al mutaxallus bil Bayoniy ibn Bobojonbekning qalami bila hijriyning 1333 (1914 – 1915)-yili kim, muvofiqi bars yili erdi, ixtitom sarxadiga yetti”⁶⁴.

Shuningdek, Bayoniy tarixchi Tabariyning “Tarixi Tabariy” asarini ham tojik tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Bizning fikrimizcha bunday tarixiy asarlarning tarjimasi Bayoniy ijodiga o‘zining ta’sirini ko‘rsatmay qolmagan. Bayoniy o‘zining tarixiy asarlarini yozish vaqtida bu asarlardan manba sifatida foydalangan bo‘lishi ham mumkin. Shuningdek, bunday tarixiy asarlarning tarjimalari faqat O‘rta Osiyo yoki O‘zbekiston xalqlari tarixini emas, Sharq xalqlari tarixini o‘rganishda ham ahamiyatga ega.

⁶⁴ Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари.....– Б. 33-34.

Bayoniy tarixiy tarjima asarlaridan tashqari o'zida Xorazm tarixini aks ettiruvchi tarixiy asarlar ham yozib qoldirgan. Bu asarlar "Shajarai Xorazmshohiy" va "Xorazm tarixi" nomlari bilan ataladi. Dastlab "Shajarai Xorazmshohiy" tarixiy asariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, asar 1911-yilda yozila boshlangan va 1913-yilda yozib tugatilgan. Asarning qo'lyozma nusxasi to'liq saqlangan. Shuning uchun ko'pincha Xorazm tarixini o'rganishda tarixchilar Bayoniyni shu asariga ko'p murojat etadi. Shuningdek, Bayoniyni tarixiy asarlari sodda tilda, tushunarli qilib yozilgan. Bu o'quvchi uchun qulaylik tig'diradi va Bayoniyni asarlari ishonchli ekanligiga muallifning o'zining kafolati bor. Bayoniy o'zining "Xorazm tarixi" kitobida bu hususida shunday deb yozib o'tadi: "Tarix kitobi yozishning bir sharti bor. Tarixiy voqealarni yozuvchi tarafdorlik etmasdan, bo'lgan voqealarni rostlik bilan bayon etishi kerak. Agar rostlik bilan bayon etmasa, uning so'zlari hech bir odamga ma'qul bo'lmaydi". Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, Bayoniy tarixiy voqealarni yoritishda voqealarni haqqoniy hech bir tarafga og'ishmay yozib o'tgan, bu asarning qiymatini yanada oshiradi.

Bayoniyni tarixiy asarlaridan tarixchilar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida dastlabki manba sifatida foydalanganlar. Ulardan biri M.I.Yo'ldashev, Bayoniyni tarixiy asarlari to'g'risida shunday so'zlarni yozadi: "Bayoniyni asari faktik materiallarning ko'pligi va voqealarni izchil bayon qilish jihatidan Munis va Ogahiyning ko'p tomli qo'lyozmalariga nisbatan ham qimmatliroqdir". Bayoniy asarlariga berilgan bunday ta'rif uning asarlariga bo'lgan o'rganish va qiziqishni oshiradi. Ammo Munis va Ogahiy ijodidagi ushbu kamchiliklar haqida fikr yuritganimizda shu davr nuqtai nazaridan va ularning birining tarixchi birini esa davlat arbobi shu bilan birga ijodkor ekanligini ham eslab o'tishimiz darkor. Bayoniy Munis va Ogahiy qalamiga mansub bo'lgan tarixiy asarlarini o'qib, organib, ilmiy jihatdan qaytadan to'ldirib yozgan.

Bayoniy Xorazm tarixini 1914-yilga qadar bo'lgan davri tarixini ham yozib tugatadi. Xorazmda xonliklar hukmronligining so'nggi davriga qadar, ya'ni milliy davlatchiligimiz hukm surgan davrga qadar yozib qoldiradi.

Bayoniyning “Shajarai Xorazmshohiy” asari Munis va Ogahiyning tarixiy asarlarida tasvirlangan Xorazmda XVIII asr II yarmidan boshlab 1873-yilgacha yuz bergan voqealar bilan bir qatorda, songgi davr, ya’ni 1873–1913/1914-yillar orasida sodir bo’lgan tarixiy voqealar haqida ham ma’lumot beradi. O’z mazmuni bilan bu asar Munis va Ogahiy tomonidan yozilgan tarixiy asarlarning xulosasi va davomi hisoblanadi. Munis va Ogahiyning asarlari hashamdor, qiyin til bilan yozilgan bo’lib, ularda arabcha va forsi so’zlar va o’gir iboralar ko’p uchraydi. Shu sababli, ko’pchilik o’quvchilar bu asarlarni tushunishlari qiyin bo’lgan. Ana shu qiyinchiliklarni bartaraf qilish va ko’pchilik uchun tushunarli qilish maqsadida Bayoniy, Munis va Ogahiyning asarlarini bir tomga to’plab, sodda til bilan qayta yozib chiqqan. Bu to’g’rida Bayoniy shunday so’zlarni yozib o’tadi: “Ogahiy ham Munis mirobning birodarzodasi va dastparvardasi erdi, uning uslubida majoz va istiora bilan so’z bayon etar erdikim, kalomining diqqati sababidan omma xalqi maolin fahm eta olmas erdilar. Ul ham bu yo’sinda du bora so’z boshlab, Olloqulixonidan to Muhammad Rahimxon II zamonigacha har xonning voqeotin bir mujaladda bayon etib, har birin bir ism bilan mavsum etdi. Ul hazratning (Muhammad Rahim II) ayyomi saltanatlaridin ham kam besh–yetti voqeotin tahrir silkiga chekdi... Bu nushalarning maolin omiy fahm etib, borin bir mujalladga jam qilmoqg’a ma’mur bo’ldim”.

1873-yildan 1914-yilgacha bo’lgan davr voqealari Bayoniyning “Xorazm tarixi” nomli asarida davom ettirilgan.

Bayoniy o’z asarining yozilish tarixiga quyidagicha tarif berib o’tadi: “Men, Muhammad Yusuf al mutaxallis bil Bayoniy ibn Bobojonbek, bu tariqa arz qilaman... 1329 (1911)-yili jumodil avval oyining yigirma ikkisida bu asarni yozishga boshladim. Bu ishni Asfandiyorxon menga Tolibxo’ja ibn Avazberdi orqali buyurdi....”.

Ma’lumki, Munis Eltuzarxonning buyrug’iga muvofiq, “Firdavs ul iqbol” nomli asarini yozgan. Munis bu asarini tamomlay olmay, 1244 (1829)-yili vafot etadi. Bundan 11 yil keyin Olloquli Ogahiyga bu chala qolgan asarni yozib tamom etishni buyuradi. Ogahiy bu asarni yozib tamomlaydi. So’ngra, Ogahiy XIX asrda

Xorazmda xonlik qilgan xonlarning har biriga atab, alohida-alohida bir necha asar yozgan. Lekin Ogahiy ham Muhammad Rhim II (1860–1910) hukmronligining 7 yillik voqeasini yozishga ulgurgan xolos.

“Bu yil 1329 (1911)-yildir. (1873-yildan 1911-yilgacha) 42 yillik voqe yozilmay qolgan. Bu davrda Xorazmda bo’lgan tarixiy voqelarni yozish faqirning zimmasiga tushadi. Oz asarimni 16 bobga bo’ldim va uni “Shajarai xorazmshohiy” nomi bilan atadim – deb qayd etib o’tadi Bayoniy⁶⁵.

“Shajarayi Xorazmshoh” asari ana’naviy tarzda boshlanadi, ya’ni “Bismilloh–ir rahmon–ir rohiym. Hamdi nomutanohi shahanshohig’a loyiqlarkim, har sohibi sarir oning taqdiri bila foyiqdur. Jumlayi jahondorning dargohining gadosidurlar. Borchajondor bir farmonining fidosi...”. Bayoniy asarning yozilish sabalarini ham asarning boshlanishida keltirib o’tadi. Munis va Ogahiyning Xorazm tarixiga bag’ishlab tarixiy asarlar yaratganligini yodga olib “Chun faqir, amri oliy muqtazosicha, bu nushlarning maolin ommafahm etib, borin bir mujalladga jam’ qilmoqg’a ma’mur bo’ldim. Hammasini o’n olti bobg’a mushtamal etib, “Shajarayi xorazmshohiy” ismi bila mavsum etdim...” deb yozib o’tadi⁶⁶.

Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy” tarixiy asari Munis va Ogahiy tarixiy asarlarining ham to’ldirilgan ham davom ettirilgan shaklidir.

“Shajarayi Xorazmshohiy” asari ana’naviy tarzda birinchi bobi – Odam alayh ul-salomning va Nuh alayh ul-salom avlodlari bilan boshlanadi.

Ikkinchi bob – Yofasdan qo’ng’irot sho’basigacha va mo’gil xonlari tarixi bayon etiladi.

Uchinchi bob – Qurlos avlodidan xon bo’lgan hukmdorlar va ularning oxirgi hukmdori Abulg’ozi ibn Yodgorxonga qadar.

To’rtinchi bob – Podshohi oily jahonning avlodi kiromu oboyi zul ehtiromlari tarixi.

Beshinchi bob – Muhammad Amin inoq tarixidan.

⁶⁵ Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. – Т.: Камалак, 1994. – Б.178.

⁶⁶ Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. – Т.: Камалак, 1994. – Б.178.

Oltinchi bob – Avaz Muhammad inoqning holatlari tarixidan.

Yettinchi bob – Eltuzarxonning tarning mag'firatnishonning hukmdorligi tarixi.

Sakkizinchi bob – Muhammad Rahimxon jannatmakonning saltanati tarixidan.

To'qqizinchi bob – Olloqulixon jannatmakonning saltanati tarixidan.

O'ninchi bob – Rahimqulihonning tarixidan.

O'n birinchi bob – Muhammad Aminxonning podshohligi tarixidan.

O'n ikkinchi bob – Abdullaxon hukmdorligi tarixidan.

O'n uchinchi bob – Qutliqmurodxonning hukmdorligi tarixidan.

O'n to'rtinchi bob – Sayyid Muhammad Rahimxonning jannatmakonning hukmdorligi tarixidan.

O' beshinchi bob – Sayyid Muihammad Rahimxon soniyning saltanatlari tarixidan .

O'n oltinchi bob – Abul-Muzaffar Val-Mansur Sayyid Asfandiyor Muhammad Bahodirxon saltanati tarixidan⁶⁷.

“Shajarai Xorazshoxiy” da Xorazm xonligidagi amir-amaldorlar, mashhur kishilar haqida muhim ma'lumotlar mavjud. Asarni o'qish jarayonida Muhammad Rhimxon (Feruz) ning shoh, shoir va murakkab bir inson sifatidagi qiyofasini tasavvur etish mumkin. Xorazmda “muddati saltanatlari qirq yetti yilu o'n besh kun” dan iborat bo'lgan (hijriy 1281–1328) Muhammad Rahimxon marifatli shoh edi. U hukmronlik davrida yurtida ilm-fan, adabiyot, san'at rivoj topishiga homiylik qildi. Bayoniy asarda xonning fazilatlar haqida ham yozib o'tadi. “Xon hazratlari bag'oyat mushfiqvfuqaro va bag'oyat hayr do'st kishi erdilar. Ko'p madrasalaru masjidlar bino qildilar...”. Manbalarda esa bu davrda 1500 ga yaqin eski maktablar va 130 ta madrasa mavjudligi qayd etilgan. Feruzshoh ma'rifatning muhim yo'li – kitobxonlikka alohida e'tibor bergan. Bayoniyning yozishicha, haftada ikki marta – juma va dushanbada olimlarni yig'ib, suhbatlar uyishtirar,

⁶⁷ Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. – Т.: Камалак, 1994. – Б.178-180.

kitobxonlik oqshomlari o'tkazardi. Xon amaldorni, sipohiylarniham kitobxonlikka davat etgan⁶⁸.

Shuningdek, Bayoniy Muhammad Rahimxonni “ayyor va o'z manfaatiga pishiq hukmdor edi” deb tasvirlaydi. Va “Xorazm aholisiga solingan ikki million ikki yuz manot soliqning uch yuz ming manoti yovmitlar xissasiga tushadi. Buni undirish ham yovmitlar zimmasiga qolayotgandi. Yovmutlarga azalliy keki bo'lgan xon Kaufmanni ularga qarshi qayraydi. “...Kaufman bir to'pg'a egoliq etganda, xon hazratlari deb erdilar: “Yamut jamoasi bag'oyat sarkashdurkar. Siz bizning hamma to'plarimizni olib ketsangiz, ondin so'ng biz yamutni boshora olmasmiz va bu uch yuz ming manotni ham, o'zingiz olmasangiz, bizga sarkashlik yuzidin taallul ko'rguzib, tazlikda bermasdur”. Bunday so'zlardan keyin Kaufman ikki to'pni yovmitlar qatli uchun olib, o'n to'qqizini xonga qaytaradi. Xon yovmitlardan Kaufman orqali asos soladi.

Bunday jumalarni o'qiganimizda Bayoniy Munis va Ogahiy ijodidagi voqealarning tasvirlanish jarayonlaridagi o'zgarishlarni kuzatamiz, tadqiqotimiz avvalida ham Munis ijodidagi janglar tasvirida asosiy joylar qisqa bayon qilangiligini tarix uchun ahamiyati kam bo'lgan voqealar bayoni esa ko'proq bayon etilganligini ko'ramiz. Shu o'rinda tarixni kelajak avlodga yatkazishdan maqsad o'zi nimada degan savol tug'iladi? Tarixni yozishdan maqsad uni keyingi davrga yetkazdirish, ana shu tarixni o'rganish tadqiq etishdan maqsad, ana shu voqealardan kelajak avlodni xulosa chiqarishi va kelajakda tarixda qilingan xatolarni takrorlamaslik yoki komil, yetuk, inson sifatida tarixda o'z o'rniga ega bo'lgan ajdodlarimizdan o'rnak olish deb o'ylaymiz.

Bayoniy Xorazm tarixini tasvirlar ekan, Xorazmga kelgan elchilar, sayyohlar, savdogarlar va hatto rus bosqinchilari haqida ham yozib o'tadi. Imperiya armiyasining Xivaga yurishi vaqtida bosqinchilarning shafqatsiz harakatlari, ya'ni xalqni talon-taroj etishini, ko'z ko'rib quloq eshitmagan vahshiyliklarni amalga oshirganliklarini, Qo'ng'iro't va Xazorasp hududlarining

⁶⁸ Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. – Т.: Камалак, 1994. – Б.188.

bosib olinishi tog'risida Bayoniy "Shajarai Xorazmshoh" asarida ro'y-rost tasvirlab o'tishga harakat qilgan.

Xiva mustamlakaga aylantirilgach oddiy xalqning ahvoli yanada og'irlashdi. Tarixiy adaboyiotlardan bizga ma'lumki, rus bosqini davrida oddiy xalqdan olinadigan soliqlar oshirib yuboriladi bu davrga kelib jami o'lponlar turi 25 tadan ko'p edi. "...Yana, Rusiya askarining kofayi masorifi (armiyaning keyingi yurishlari ta'minoti uchun Xorazm aholilaridan ikki milion bilan ikki yuz ming manot olmoqg'a qaror berdilar)" ⁶⁹. Bayoniyning aytishicha, bu soliq xalq ayniqsa, turkman qabilalarining budi-shudini sotib, g'arib ro'zg'ori yanada nochor ahvolga tushishiga sabab bo'ldi. Bu soliqning yamut xalqidan qay darajada vahshiylarcha undirilganini Bayoniyning "Shajarai xorazmshoh" asarida tasvirlab berilgan. "Galavachov otlanib lashkari bilan kelib yamut qabilalarining bir tarafidin dohil bo'lib qozoq otlilari mutaffurruq bo'lib yamutlarning xurmanlarig'a va kozalarig'a (chayla, kapa) uylarig'a o't qo'ya berdilar. O't sh'ulalari har tarafda osmong'a bosh chekib tutun tamomi atrofni qurshab olib, "Yavma ta'tissamoi biduxonim muibin' ning mavhum oshkor bo'ldi. Qazoq otlilar ko'zga ko'ringanni otib qarri bobolarni va ayolu atfalni tig' bila chopib, sut ematurg'an o'g'lonlarni nayza bila sanchib o'tg'a otar erdilar va amvollarintaroj etar erdilar. Yamutlar yig'lab dedilar: "Bizlarning ne gunohimiz bordur?" Qazoq otli dedilar: Muhlat berining topib beramiz deganning jazosi mundog' bo'lur". Mundog' zulm dunyoda hech kishidin voqe' bo'lg'on ermasdur" ⁷⁰.

Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo xalqlarining insoniy huquqlarini poymol qilibgina cheklanmay xalqning bor budini olib ketti. Moddiy boyliklar talon taroj qilindi. Eng achinarlisi moddiy boyliklardan tashqari Muhammad Rahimxonning Arkdagi mahsus kitoblar saqlaydigan joydagi 300 jildlik nodir qo'lyozma asarlar ham olib ketildi. Bayoniy bu jarayonlarni o'zining asaridi afsus va norozilik ohangi bilan tasvirlab o'tadi⁷¹. Bu davrda bu jarayonlarga xalqimiz ham befarq qarab turmagan. Lekin shu davrdagi eng katta bir muammo xonliklar o'rtasidagi

⁶⁹ Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. – Т.: Камалак, 1994. – Б.225-226.

⁷⁰ Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. – Т.: Камалак, 1994. – Б.226.

⁷¹ Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий..... – Б.188.

tarqoqlik, ularni ruslar bosqini davrida ham birlashtira olmadi, ruslar bu munosabatlardan ustalik bilan foydalanib qolishdi.

Bu jarayon mazlum xalq va rus askarlari o'rtasidagi munozara tarixiy jinoyatlarning oshkorona ochib berilishidir. Boshqaruv siyosati johillik va zulmga asoslangan imperiyaning oshkor etilishidir.

Bunday tarixiy jarayonda ijod qilishning o'zi bir qiyin masala deb o'ylaymiz. Bu davrda xalq sarosimaga tushgan, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holati izdan chiqqan bir davr edi.

“Shajarai Xorazmshohiy” asarida Xorazmning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvolidan tashqari uning madaniy hayoti adabiy muhiti to'grisida ham ma'lumotlar ham berib o'tilgan. Asarda Munis, Ogahiy, Tabibiy, Komil, Murodiy kabi shoirlarning hayoti va ijodi haqida yangi ma'lumotlar mavjud. Shuningdek, asarda Bayoniy hayotiga taaluqli bo'lgan jumlar ham bor va asarda Xorazm xalqining urf-odatları, marosim-marakalari, so'zlashuv hususiyatlari haqida ham ma'lumotlar berib o'tilgan. Shuningdek, asarni o'rganish davomida Bayoniyning hayot yo'li uning do'stlari hamda hamsuhbatlari to'g'risidagi ma'lumotlarimizni ham yanada boyitib boramiz.

Bayoniy qalamiga mansib bo'lgan ikkinchi tartixiy asar “Xorazm tarixi” asaridir. Bu asar “Shajarai Xorazmshohiy” asarining davomi sifatida yozilgan va asardagi voqealarning bayoni ham bir-biriga o'xshab ketadi. “Xorazm tarixi” asari “Shajarai Xorazmshohiy” asaridan keyin yozilgan. Muallifning yozishicha, asar Pahlavon Niyozxo'ja taklifiga binoan yozilgan.

Asar muqaddimasi “Shajarai Xorazmshohiy” muqaddimasidagi ma'lumotlarni keltirish bilan boshlaydi. “Xorazm tarixi” dagi ma'limotlar “Shajarai Xorazmshohiy” da ham bor. Shu o'rinda o'quvchida savol tug'uladi, bir-biriga o'xshash asarni yozishga sabab nima bo'lgan ekan? Bayoniy o'zining “Xorazm tarixi” asarida o'z so'zi bilan ushbu savolga javob berib ketadi, yani, “Shajarai Xorazmshohiy” asarimning oxirida Asfandiyor davrida bo'lgan voqealar haqida gapirishga to'g'ri keladi. Asfandiyordan, bu kitobning oxirida sizning davringizda bo'lgan voqealar haqida yozsam nima deysiz, deb so'radim. Lekin

Asfandiyor o'z davrida bo'lgan voqealarni yozishga rozilik bermadi, chunki uning qilgan ishlarini va uning davrida bo'lgan voqealarni, agar rostlik bilan bayon etsam, Asfandiyorni mashara qilish bolar edi", deb yozib o'tadi.

Bayoniy o'zining tarixiy asarlarini yozar ekan, "...endi tinchlik bilan bu kitobni avvaldan boshlab yozaman. Undagi xonlarga xush keladigan ortiqcha so'zlarni, xushomadgo'yliklarni olib tashlab rostlik bilan yozaman".

Tarixiy asarlarning adabiy asarlardan farqi – undagi voqealarning holis yoritilishida, adabiy asarlarda mubolag'a, kuchaytirish kabi janrlarni ko'plab qo'llanilishida. Bu asarning ta'sirchanligini oshirishga yordam beradi, ammo tarixiy asarlarda bunday mubolag'a asardagi bo'lib o'tgan voqeani tarixiyligini yo'qotib qo'yadi.

“Xorazm tarixi” kitobi Asfandiyorxon davri tarixi to'g'risida yozilgan bo'lib, jami 16 bobdan iborat. Afsuski xozirda bu asarning 8 bobigina saqlangan. Qolgan boblari yo'q. Uning xozirda yagona nushasi O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda. Bu nusxa qora siyohda o'rtacha nastaliq xati bilan chiziqli rus qog'oziga yozilgan. Qo'lyozmada ko'chiruvchining ismi va asar ko'chirilgan yil ko'rsatilmagan. Asarning hajmi 91 varoq. O'lchovi 22x36 sm.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, asar o'zining soddaligi o'quvchiga tushunarliyligi bilan alohida o'ringa ega bo'lsa, tarixiyligi, haqqoniyligi, ishonarliyligi va voqealarning erkin bayon etilishi bilan o'z o'rniga ega.

III bob bo'yicha xulosa. Ogahiyning “Firdavs ul iqbol” tarixiy asaridan tashqari “Riyozi ud davlat”, “Zubdat ut tavorix”, “Jomi' ul voqeti suloniy”, “Gulshani davlat”, “Shohidi iqbol” kabi ko'plab tarixiy asarlari mavjud. Shuningdek, Ogahiy tomonidan bir qator tarixiy asarlar o'zbek tiliga tarjima qilingan va Xiva xonligida ilm-fan taraqqiyotiga katta xissa qo'shgan.

Bayoniyning bizgacha birgina devoni va ikkita Xorazm tarixiga doir tarixiy asarlari yetib kelgan. Bayoniy o'zining tarixiy asarlarning tarjimalarini va “Shajarai Xorazmshohiy” va “Xorazm tarixi” nomli tarixiy-memuar asarlarini yozib qoldirdi. Xususan, Bayoniy tarixchi Tabariyning “Tarixi Tabariy” asarini

ham tojik tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Bayoniy Xorazm tarixini 1914-yilga qadar bo'lgan davri tarixini yozib tugatadi. Shuningdek, 1873-yildan 1914-yilgacha bo'lgan davr voqealari Bayoniyning "Xorazm tarixi" nomli asarida davom ettirilgan.

XULOSA

XVII asrning ikkinchi yarmidan XX asr boshlarigacha bo'lgan davrda xronologik tartibda yozilgan Abulg'ozixon, Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlarini o'rganish Xiva xonligi tarixini uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini o'rganish uchun to'plangan boshqa ma'lumotlar va materiallarni tahlil etish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- O'rta Osiyoda XVII – XX asrlarda xonliklar davri tarixining yoritilish jihatidan Qo'qon va Buhoro xonliklari ichida nisbatan mukammal yoritilgan xonlik Xiva xonligi tarixidir. Chunki, Xiva xonligida Abulg'ozi Bahodirxon tomonidan asos solingan “Xorazm tarixnavislik maktabi” keyinchalik Munis, Ogahiy va Bayoniy singari tarixnavislar tomonidan davom ettirilib xonlik davri tarixi mufassal yoritilishiga erishildi. Bu tarixiy asarlar faqatgina xonlik davri ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tarixinigina emas balki, Xiva xonligida yashayotgan xalqlar ularning turmush tarzi va ularga qo'shni turkmanlar va qoraqalpoq xalqlari tarixini o'rganishda ham katta ahamiyatga ega;

- Abulg'ozixon Xiva xoni Arab Muhammadxonning to'rtinchi o'g'li bo'lib, Abulg'ozi otasi va aka-ukalari urushlarda bahodirlarcha jang qilgani uchun uni “Bahodirxon” deb atay boshlaganlar. Abulg'ozi Bahodirxon o'z otasining nomi bilan ataluvchi Arabmuhammadxon madrasasida tahsil olgan. O'z zamonasining bilimdonlari qo'lida tahsil ko'rgach, tarix faniga ixlos va ishtiyoq qo'yadi Abulg'ozixon Xiva xonligida og'ir siyosiy vaziyat yuzaga kelgan bir davrda yashadi. Ota-bola, aka-ukalar o'rtasidagi taxt uchun kurashlar avjiga chiqdi, bu kurashlar natijasida Abulg'oziy Eronning Isfaxon shahrida 10 yil tutqinlikda yashadi. Abulg'oziy bir qancha kurashdan so'ng 1644 – 1645- yillarda Xiva taxtini egallaydi va 1663 – 1664-yilgacha Xivada xonlik qiladi;

- Abulg'ozixon xonlik taxtiga chiqqach, Xorazmda ilm-fanni taraqqiy ettirish va madaniyatni yaxshilash maqsadida o'z saroyiga binokorlar, tabiblar, shoirlar tarixnavislar, adib, xattot va boshqa kasb egalarini to'pladi. Abulg'ozixonning “Shajarayi tarokima”, “Shajarayi turk” nomli tarixiy, “Manofe

ul-inson” (Inson uchun foydali tadbirlar) nomli tibbiyotga oid asarlari mavjud va bizgacha yetib kelgan;

– Munis, Ogahiy, Bayoniylar XIX asrda va XX asr boshlarida Xorazmda hukmronlik qilgan xonlarga atab o’zlarining “Firdavs ul iqbol”, “Riyoziy davlat”, “Zubdat ut tavorix”, “Gulshani davlat”, “Jomi’ ul voqeoti sultoniyy”, “Shohidi iqbol”, “Shajarai xorazmshohiy”, “Xorazm tarixi” nomli tarixiy asarlarini yozib qoldirganlar. Bu asarlarning Xorazm tarixini o’rganishdagi ahamiyati juda katta.

– “Firdavs ul iqbol” tarixiy asari ikki muallif, ya’ni Munis va Ogahiy qalamiga mansubdir. Bularning ikkalasi ham qadimiy Xorazm diyorining farzandi hisoblanadi. Asar Xorazmda turkiy tilda yozilgan. “Firdavs ul iqbol” asarining tarix ilmidagi ahamiyati shundan iboratki, unda – Xorazmning qadimgi davridan boshlab, Muhammad Rahimxon I (1806 – 1825 yy.) davrigacha bo’lgan siyosiy tarixi xronologik tartibda bayon qilingan. “Firdavs ul iqbol” tarixiy asari Shermuhammad Munis tomonidan boshlangan va Munis vafot etgach, uning jiyani va shogirdi Ogahiy tomonidan davom ettirilgan. Ogahiy “Firdavs ul iqbol” asarini 1813-yildan 1825-yilgacha bo’lgan voqealar qismini yozadi va shu tariqa ushbu tarixiy asar avlodlar mulkiga aylanadi;

– Munis va Ogahiy qalamiga mansub bo’lgan “Firdavs ul iqbol” asarining to’qqizta nusxasi mavjud bo’lib, bu nusxalar, asosan, Rossiya FA Sharqshunoslik institutida 571 a (590 oa), E6 VIII, raqamlari ostida, O’zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondida 5364/1, 821/1, 9979,7422, 275/1 raqamlari ostida hamda Xel’sinkida saqlanadi;

– Ogahiyning “Firdavs ul iqbol” tarixiy asaridan tashqari “Riyoziy davlat”, “Zubdat ut tavorix”, “Jomi’ ul voqeti suloniyy”, “Gulshani davlat”, “Shohidi iqbol” kabi ko’plab tarixiy asarlari mavjud. Shuningdek, Ogahiy tomonidan bir qator tarixiy asarlar o’zbek tiliga tarjima qilingan va Xiva xonligida ilm-fan taraqqiyotiga katta xissa qo’shgan;

– Bayoniyning bizgacha birgina devoni va ikkita Xorazm tarixiga doir tarixiy asarlari yetib kelgan. Bayoniy o’zining tarixiy asarlarning tarjimalarini va “Shajarai Xorazmshohiy” va “Xorazm tarixi” nomli tarixiy-memuar asarlarini

yoʻzib qoldirdi. Xususan, Bayoniy tarixchi Tabariyning “Tarixi Tabariy” asarini ham tojik tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilgan. Bayoniy Xorazm tarixini 1914-yilga qadar boʻlgan davri tarixini yoʻzib tugatadi. Shuningdek, 1873-yildan 1914-yilgacha boʻlgan davr voqealari Bayoniyning “Xorazm tarixi” nomli asarida davom ettirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

I. Magistrlik dissertatsiyasi uchun nazariy asos bo'lgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 325 б.
- 1.2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 31б.
- 1.3. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
- 1.4. Каримов И. А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 56 б.
- 1.5. Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепсияси // [www. gov.uz](http://www.gov.uz).
- 1.6. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 430 b.
- 1.7. Karimov I. A. Ona yurtimiz baxt-u istiqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: Ozbekiston, 2015. – 304 b.

II. Manbalar

- 2.1. Абуғозий. Шажарайи турк. –Т.: Чўлпон, 1992. – 167 б.
- 2.2. Абулғози Баҳодирхон. Шажараи тарокима. –Самарқанд, 1995. – 72 б.
- 2.3. Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. – Тошкент,1994.
- 2.4. Гулбаданбегим. Ҳумоюннома. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997.
- 2.5. Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию 1558-1560гг. Английские путешествие в Московском государстве в XVI веке. Перевод с английского Л.Готье. – Л.,1932.
- 2.6. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Ҳозирги ўзбек тилига В.Раҳмонов ва К.Муллаҳўжаевалар табдил қилишган. – Тошкент: Ўқитувчи, 2008.

- 2.7. Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. – Т., 1961. – 321 б.
- 2.8. Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. V жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашр., 1978.
- 2.9. Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. VI жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашр., 1980.
- 2.10. Муҳаммадризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Зубдат ут-таворих. Нашрга тайёрловчи Н.Жабборов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 238 б.
- 2.11. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Масъул муҳаррир: Б. Эшпўлатов. – Тошкент: Шарқ, 1997.
- 2.12. Шермуҳаммад Мунис. Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-икбол. – Тошкент: Ўқитувчи, 2010. – 381 б.
- 2.13. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Масъул муҳаррир: Б. Эшпўлатов. – Тошкент: Шарқ, 1997.
- 2.14. Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулланом. Нашрга тайёрловчи: Б.Аҳмедов. – Тошкент: Шарқ, 1999.

III. Adabiyotlar

- 3.1. Абдурасулов А. Хива. Тарихий-этнографик очерklar. – Тошкент: 1997.
- 3.2. Абдуллаев В. А. Ўзбек адабиёти тарихи. II китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 344 б.
- 3.3. Абдуллаева М.Д. “Бобурнома” ва “Шажараи турк”нинг қиёсий типологик таҳлили.// Ҳозирги давр тил ва адабиёти масалалари. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2001. – Б. 33-38.
- 3.4. Абдуллаева М. Д. Бобур ва Абулғози. // Мулоқот. – Тошкент, 2003. – №1. – Б. 33-34.
- 3.5. Агзамова Г. А. Хиванинг хонлик пойтахтига айланишига доир айрим маълумотлар.// Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Т., 1997. –№6-7. – Б. 84-87.
- 3.6. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2001.
- 3.7. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.

- 3.8. Аҳмедов Б. А. Кўчманчи ўзбеклар тарихи. – Тошкент, 1965.
- 3.9. Бобожонов Д., Абдурасулов М. Фирдавсмонанд шаҳар. – Хива, 2008.
- 3.10. Бартольд В. В. К истории орошения Туркестана. – СПб., 1914.
- 3.11. Бартольд В. В. Сочинение. Часть I. – Москва, 1963.
- 3.12. Вамбери Х. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – 91 б.
- 3.13. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.
- 3.14. Иванов П. П. Очерки по истории Средней Азии. – Москва, 1958.
- 3.15. Иванов С. И. Родословное дерево тюрок Абулгазихана. – Тошкент, 1969.
- 3.16. Йўлдошев М. И. Хива хонлигида ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Тошкент: Ўздавнашр, 1959.
- 3.17. Лунин Б. В. История Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Тошкент: Фан, 1976.
- 3.18. Маллаев Н. М. Ўзбек адабиёти тарихи. I китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1963.
- 3.19. Маънавийт юлдузлари. Муаллифлар жамоаси. – Тошкент: Маънавийт, 2001.
- 3.20. Матниёзов Н., Сотлиқов А. Жаҳон тарихи ва маданияти тарихида Хоразм. – Урган, 1999. – 178 б.
- 3.21. Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002.
- 3.22. Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийларнинг тарихий асарлари. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1960.
- 3.23. Семенов А. А. Собрание Восточных рукописей, том I. – Тошкент, 1952.
- 3.24. Саидкулов Т. С. Ўрта Осиё халқларининг тарихшунослигидан лавҳалар. – Тошкен, 1993.

- 3.25. Рахманова Ю. М. Хива шаҳри Абулғози Баҳодирхон ҳукмронлиги даврида.//Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Урганч, 2006. – Б. 8-9.
- 3.26. Хасанов С. Хоразм маърифати – олам кўзгуси. – Тошкент, 1996.
- 3.27. Хасанов С. Хоразм маънавияти дарғалари. – Т., 2001.
- 3.28. Хива – минг гумбаз шаҳри. Масъул муҳаррир: А.Азизхўжаев. – Т.: Шарқ, 1997. – 108 б.
- 3.29. Хоразм тарихи. I жилд. Муаллифлар жамоаси. –Урганч, 1997.
- 3.30. Худойберганов К. Хива хонлари тарихидан. –Тошкент, 2007.
- 3.31. Худойназаров Ҳ. “Шажараи турк” ва унинг ўрганилиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993.
- 3.32. Худойназаров Ҳ. Абулғози Баҳодирхон тарихчи ва адиб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994.
- 3.33. Толстов С. П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Тошкент: Фан, 1964. – 436 б.
- 3.34. Толстов С. П. Древний Хорезм. – Москва, 1948.
- 3.35. Юнусов М. Барҳаёт анъаналар. – Тошкент, 1969.
- 3.36. Ўзбек давлатчилиги тарихи очерклари. Муаллифлар жамоаси. – Тошкент, 2001.
- 3.37. Ғаффоров Ш. С., Нарманов Ф.А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Услубий кўрсатма. – Самарқанд: СамДУ нашр., 2013. – 75 б.
- 3.38. G'afforov Sh. S. va b. O'zbekiston arxitektura yodgorliklari tarixi. – Samarqand: SamDU nashr., 2011. – 203 b.
- 3.39. Ғуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи . – Т., 1959.
- 3.40. Гулямов Я. Памятники города Хивы. – Тошкент: Фан, 1941.

IV. Dissertasiya va aftoreferatlar:

- 4.1. Абдуллаева М. Д. “Бобурнома” ва “Шажараи турк” нинг қиёсий типологик таҳлили: филология фанлари номзоди илмий дараж. олиш учун тайёр. диссер. автореферати. – Самарқанд, 2004. – 22 б.

4.2. Аллаева Н. А. Взаимосвязи Хивинского ханства с Ираном в XVI-XVII вв: Авт-т канд. ист. наук. – Тошкент, 2007. – 30 с.

4.3. Рахманова Ю.М. Общественно-политическая жизнь города Хивы в XVI - начале XX века: Авт-т дисс. канд. ист. наук. – Тошкент, 2009. – 46 б.